



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

№3 (67) 2026

AXBOROTNOMASI

Et docere et discere servitute legis

СУДЕБНО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В КОНТЕКСТЕ
УКРЕПЛЕНИЯ ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА

PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI
TASNIFLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI NODAVLAT
NOTIJORAT TASHKILOTLARI TUSHUNCHASI: QIYOSIY-
HUQUQIY TAHLIL



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

AXBOROTNOMASI

ILMIY-AMALIY, IJTIMOY-HUQUQIY NASHR

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

Bosh muharrir:

Yevgeniy Kolenko

Mas'ul kotib:

Farhodjon Nazarov

Tahrir kengashi:

Nig'matilla Yo'ldoshev

Baxriddin Valiyev

Salom Samadov

Marat Bashimov

Akmal Saidov

Raxim Xakimov

Patrik Olsson

Ichihashi Katsuya

Tahrir hay'ati:

Halim Boltayev

Baxtiyor Po'latov

Faxri Raximov

Muzaffarjon Mamasiddiqov

Uyg'un Nigmadjanov

Jahongir Maksumov

Vahobjon Karimov

Gulchehra Malikova

Baxodir Ismailov

Matluba Aminjonova

Avazbek Komilov

Adham Odinayev

Baxtiyor Kayumov

Muxtaram Radjapova

Xurshid Karimov

Nosirjon Askarov

Alisher Hidoyatullayev

Istam Astanov

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2010-yil 7-yanvarda 0580-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan va 2023-yil 25-martda qayta ro'yxatdan o'tgan.

2010-yil yanvar oyidan chiqqa boshlagan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining (2013-yil 30-dekabr 201/3-sonli) 2018-yil 30-maydagi 253/7-sonli qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Jurnalda chop etilgan materiallardan foydalanganda "O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborotnomasi"dan olingani deb ko'rsatilishi shart. Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatlarini olmagan.

Manzil:

100190, Toshkent shahri,

Rixsiliy ko'chasi, 9-uy

veb-sayt: www.proacademy.uz

e-mail: publish@proacademy.uz

Sahifalovchi:

J. Abduqahhorov

Buyurtma №278-23. Adadi 636.

Jurnal "Credo Print" MCHJ kitob

fabrikasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy

Tel.: 71 234-44-01/05. www.credoprint.uz

MUNDARIJA

SH. ABDUKODIROV	Судебно-правовые реформы в контексте укрепления правового государства	3
A. XOLBO'TAYEV	DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish ma'muriy huquqbuzarligining yuridik tavsifi	7
A. KOMILOV	Prokuror huquqiy vositalarini tasniflashning ilmiy-nazariy asoslari	11
L. ISOQOV	Mintaqaviy integratsiya va raqamli transformatsiya sharoitida transport huquqining evolyutsiyasi	15
O'. DAVLETOV	Sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish hamda sud hujjatlarini ijro etishda kompensatsiya institutining huquqiy mohiyati va ahamiyati	20
G. TAIROVA	Prokuratura organlari xodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish istiqbollari	25
A. ABDULLAYEV, B. AXMEDOV	Yarashuv institutining qadimgi manbalari va ibtidoiy shakllari	30
F. TEMIROV	Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikning tarixiy-huquqiy tahlili	37
SH. DOVLETOV	Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati: inson huquqlarini ta'minlashning huquqiy kafolati	41
T. MAMATALIYEV	Ta'lim olish huquqini ta'minlashda masofaviy ta'limning me'yoriy-huquqiy va metodologik asoslari	45
K. ALIXODJAYEV	Aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi, vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari	51
M. JALILOV	Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va qonunchilikni takomillashtirish masalalari	56
Y. G'AFUROVA	Rasmiy baholashning nazariy asoslari va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini doimiy kuzatish mexanizmlari	59
SH. OLIMOV	Mehnat inspeksiyasining mehnat nazorati sohasida huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlashda ma'muriy tartib-taomillarni unifikatsiyalashning o'rni	63
N. BOLLIYEV	O'zbekistonda qimor o'yinlari va bukmekerlik faoliyatiga nisbatan taqiqllovchi siyosatning shakllanishi va huquqiy asoslari	69
M. NOSIROVA	Inson huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi: qiyosiy-huquqiy tahlil	73
B. DAVLATOV	Qog'ozda qonun — hayotda poraxo'rlik: korrupsiyaga qarshi qonunlarning amalda bajarilishi tahlili	78
M. NE'MATOVA	Elektron savdo platformalarida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy nizolar va ularning kelib chiqish sabablari	82
SH. JUMAYEV	Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarining ayrim jihatlarini takomillashtirish masalalari	86
M. KHUDAYBERDIYEVA	The manifestation of the child's right to education as a specific system and its elements	91



Шерзод АБДУКОДИРОВ,
Ректор Академии правосудия Республики Узбекистан,
доктор юридических наук, доцент

СУДЕБНО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В КОНТЕКСТЕ УКРЕПЛЕНИЯ ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются основные этапы судебно-правовых реформ в Республике Узбекистан в контексте укрепления правового государства. Особое внимание уделяется усилению независимости судебной власти, расширению судебного контроля, внедрению института следственного судьи, цифровизации судов, повышению открытости правосудия и совершенствованию подготовки судейских кадров. Делается вывод о том, что проведённые реформы способствовали укреплению гарантий прав и свобод человека, повышению эффективности судебной системы и общественного доверия к правосудию.

ANNOTATSIIYA. Maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlatni mustahkamlash borasida amalga oshirilgan sud-huquq islohotlarining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Unda sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish, sud nazoratini kengaytirish, tergov sudyasi institutini joriy etish, sud tizimini raqamlashtirish, odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda sudyalarni tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xulosa qilinishicha, amalga oshirilgan islohotlar inson huquq va erkinliklarining kafolatlarini mustahkamlash, sud tizimi samaradorligini oshirish hamda jamiyatning odil sudlovga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qilgan.

ABSTRACT. This article analyzes the key stages of judicial and legal reforms in the Republic of Uzbekistan within the framework of strengthening the rule of law. Particular attention is paid to enhancing the independence of the judiciary, expanding judicial oversight, introducing the institution of the investigating judge, digitalizing the judiciary, increasing the openness and transparency of justice, and improving the system of judicial education and training. The article concludes that these reforms have significantly strengthened the protection of human rights and freedoms, improved the effectiveness of the judicial system, and increased public confidence in the administration of justice.

Ключевые слова: судебно-правовые реформы, правовое государство, независимость судебной власти, судебный контроль, следственный судья, цифровой суд, искусственный интеллект, доступ к правосудию, открытость судов, подготовка судейских кадров.

Kalit so'zlar: sud-huquq islohotlari, huquqiy davlat, sud hokimiyati mustaqilligi, sud nazorati, tergov sudyasi, raqamli sud, sun'iy intellekt, odil sudlovdan foydalanish imkoniyati, sudlar ochiqligi, sudyalarni tayyorlash va malakasini oshirish.

Key words: judicial and legal reforms, rule of law, judicial independence, judicial oversight, investigating judge, digital judiciary, artificial intelligence, access to justice, judicial transparency, judicial education and training.

В последние годы по инициативе Главы государства судебно-правовые преобразования в стране приобрели системный характер и стали одним из ключевых направлений реализации Стратегии развития «Узбекистан - 2030», в рамках которой судебная власть рассматривается как фундаментальный гарант прав и свобод человека, верховенства закона и общественного доверия¹.

В рамках реализации Стратегии в 2016-2025 годах в судебно-правовой сфере было принято более 70 нормативно-правовых актов, направленных на укрепление независимости судебной власти, повышение эффективности и открытости правосудия, расширение доступа граждан и предпринимателей к судебной защите, гуманизацию правоприменительной практики и внедрение цифровых решений.

Особое значение приобрели меры по усилению судебного контроля, развитию административного и конституционного правосудия, модернизации подготовки судей и цифровой трансформации судов.

Одним из базовых документов реформ стал Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2016 года № УП-4850 «О мерах по дальнейшему реформированию судебно-правовой системы, усилению гарантий надежной защиты прав и свобод граждан»². Указом сокращён срок задержания подозреваемого с 72 до 48 часов (реализация принципа «habeas corpus»), а максимальный срок предварительного следствия, содержания под стражей и домашнего ареста — с 1 года до 7 месяцев. Судам переданы полномочия по санкционированию ареста почтово-телеграфных отправок и эксгума-

1 Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан - 2030» // lex.uz/ru/docs/6600404.

2 Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2016 года № УП-4850 «О мерах по дальнейшему реформированию судебно-правовой системы, усилению гарантий надежной защиты прав и свобод граждан» // lex.uz/docs/3050494.



ции, отменена практика возврата уголовных дел на дополнительное расследование. Эти меры расширили процессуальные гарантии и снизили репрессивность правоприменения.

Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4966 от 21 февраля 2017 года положил начало системному реформированию судебной системы: создан самостоятельный Высший судейский совет Республики Узбекистан взамен упразднённой Высшей квалификационной комиссии при Президенте, что исключило влияние исполнительной власти на назначение и дисциплинарную практику судей³. Утверждён персональный состав Совета из судей и представителей государственных и общественных институтов; для председателя Совета установлены социальные гарантии на уровне председателя Верховного суда. Это укрепило институциональную независимость судебной власти и судейское самоуправление.

Объединение Верховного суда и Высшего хозяйственного суда обеспечило единую судебную практику по гражданским, уголовным, административным и экономическим делам; созданы специализированные административные суды, оптимизирована численность судов, введены помощники судей.

В целях институционального укрепления независимости судебной власти внедрена поэтапная система назначения судей: первоначально - на 5 лет, затем продление на 10 лет, а далее - без ограничения срока полномочий, что позволило сочетать объективную оценку профессиональной деятельности судей с устойчивыми гарантиями их независимости.

Указ от 13 июля 2018 года № УП-5482 сместил приоритет реформ на повышение доверия населения к судам и практическую открытость правосудия: введён обязательный порядок публикации судебных решений на сайте Верховного суда, практика разъяснения сторонам сути решения непосредственно после его оглашения, ежеквартальные брифинги председателей областных судов, публикация обзоров судебной

практики⁴. Повышены надбавки судьям за особые условия труда (до 50%), стимулирующие выплаты приравнены к уровню органов юстиции, введено обязательное страхование жизни и здоровья судей - в целях обеспечения независимости судей и снижения кадровой текучести.

Указ № УП-6034 от 24 июля 2020 года⁵ утвердил новые организационно-штатные структуры Верховного суда, военных судов, судов общей юрисдикции и административных судов, определил чёткие зоны юрисдикции межрайонных и районных (городских) судов по гражданским и экономическим делам, ввёл новый порядок апелляционного и кассационного пересмотра дел, право обжалования решений квалификационных коллегий судей, а также создал Судебный состав по рассмотрению инвестиционных споров и дел о конкуренции в структуре Верховного суда.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 3 сентября 2020 года № ПП-4818 утвердило Программу цифровизации деятельности органов судебной власти на 2020-2023 годы⁶: дистанционное обращение в суды, онлайн-участие в заседаниях посредством видеоконференцсвязи, автоматическое распределение дел между судьями, публикация судебных решений в интернете, электронная передача исполнительных документов, аудиофиксация заседаний, бесплатные СМС-уведомления, интерактивные терминалы в зданиях судов, а также интеграция информационных систем судов с 28 государственными органами.

Указ № УП-6118 от 24 ноября 2020 года направлен на повышение эффективности исполнения судебных актов: реорганизовано Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре с централизацией и персональной ответственностью руководства, созданы Республиканский и территориальные советы по повышению эффективности исполнения, внедрена Единая информационная система по алиментам, снижены издержки граждан за счёт механизмов добровольного исполнения,

3 Указ Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2017 года № УП-4966 «О мерах по коренному совершенствованию структуры и повышению эффективности деятельности судебной системы Республики Узбекистан» // lex.uz/ru/docs/3121085.

4 Указ Президента Республики Узбекистан от 13 июля 2018 года № УП-5482 «О мерах по дальнейшему совершенствованию судбно-правовой системы и повышению доверия к органам судебной власти» // lex.uz/ru/docs/3822469.

5 Указ Президента Республики Узбекистан от 24 июля 2020 года № УП-6034 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности судов и повышению эффективности правосудия» // lex.uz/docs/4910841.

6 Постановление Президента Республики Узбекистан от 3 сентября 2020 года № ПП-4818 «О мерах по цифровизации деятельности органов судебной власти» // lex.uz/ru/docs/4979899.



цифровизации расчётов и электронных аукционов реализации имущества⁷.

Указ № УП-6134 от 13 января 2021 года перевёл финансирование судебной системы полностью на средства Государственного бюджета (ранее свыше 70% расходов покрывалось за счёт Фонда развития органов судебной власти), утвердил единую тарифную сетку оплаты труда судей и работников судебной системы⁸. Заработная плата судей увеличена в 3 раза - как реализация международно признанного принципа материальной независимости судей, что укрепило кадровую стабильность и эффективность при рассмотрении дел.

Постановление № ПП-107 от 29 января 2022 года закрепило принцип «активной роли суда» в административном судопроизводстве: суды обязаны самостоятельно собирать и истребовать доказательства; заявителям предоставлено право одновременно с требованием об отмене незаконного решения заявлять требование о возмещении причинённого ущерба; введены судебные штрафы к должностным лицам за неисполнение решений административных судов (с повышением при повторном неисполнении) и месячный срок обязательного исполнения; расширены механизмы примирения сторон; запрещён отказ в принятии дел по мотиву неподведомственности без передачи в компетентный суд⁹.

Указ № УП-12 от 16 января 2023 года направлен¹⁰ на снижение перегруженности судов: создана информационная система «Участие прокурора в судах», обеспечена полная интеграция информационных систем Верховного суда и Генеральной прокуратуры, часть гражданских, экономических и административных дел передана административным органам, расширены примирительные процедуры и медиация, оптимизирована организационная структура Верховного суда.

Указ № УП-89 от 10 июня 2024 года впервые ввёл в национальной правовой системе институт следственного судьи¹¹ в районных и городских судах по уголовным делам - с исключительным правом санкционировать заключение под стражу и домашний арест, продление сроков содержания, обыск, прослушивание телефонных переговоров, арест имущества, эксгумацию, арест почтово-телеграфных отправлений и продление задержания до 48 часов; пересмотр таких санкций допускается только в апелляционной инстанции. Следственным судьям также переданы дела об административных правонарушениях.

Указ № УП-140 от 21 августа 2025 года направлен на построение модели «Цифровой суд»¹²: поэтапное полное ведение судебных дел в электронной форме, отказ от бумажного документооборота, использование искусственного интеллекта для прогнозирования исхода судебного разбирательства до подачи заявления, подготовки протоколов заседаний в реальном времени и формирования проектов судебных актов, дистанционное участие в заседаниях, электронное ознакомление с материалами дела. Образован Департамент цифровых технологий и искусственного интеллекта при Верховном суде, утверждена Программа цифровизации судебной сферы на 2025-2027 годы (виртуальный правовой консультант, платформы анализа нормативных актов), предусмотрены оптимизация структуры экономических судов и модернизация зданий судов.

Указом № УП-141 от 21 августа 2025 года Высшая школа судей преобразована в Академию правосудия Республики Узбекистан при Высшем судебном совете. Введена подготовка кандидатов на должности судей на шестимесячных конкурсных курсах профессиональной переподготовки с оценкой про-

7 Указ Президента Республики Узбекистан от 24 ноября 2020 года № УП-6118 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы исполнения судебных актов и актов иных органов» // lex.uz/ru/docs/5124091.

8 Указ Президента Республики Узбекистан от 13 января 2021 года № УП-6134 «О мерах по коренному совершенствованию системы финансирования деятельности судебных органов» // lex.uz/ru/docs/5215808.

9 Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 января 2022 года № ПП-107 «О мерах по дальнейшему обеспечению эффективной защиты прав граждан и субъектов предпринимательства во взаимоотношениях с государственными органами, а также повышению доверия населения к судам» // lex.uz/ru/docs/5841298.

10 Указ Президента Республики Узбекистан от 16 января 2023 года № УП-12 «О дополнительных мерах эффективной организации деятельности по отправлению правосудия» // lex.uz/ru/docs/6358922.

11 Указ Президента Республики Узбекистан от 10 июня 2024 года № УП-89 «О мерах по дальнейшему усилению гарантий надежной защиты прав и свобод личности в оперативно-розыскной и следственной деятельности» (о введении института следственного судьи) // lex.uz/ru/docs/6964389.

12 Указ Президента Республики Узбекистан от 21 августа 2025 года № УП-140 «О дополнительных мерах по повышению уровня доступа к правосудию путем внедрения технологий искусственного интеллекта в деятельность судов, а также улучшению материально-технического обеспечения судебной системы» // lex.uz/docs/7696571.



фессиональной пригодности, психологической устойчивости, знания иностранных языков и репутации; внедрена дуальная модель обучения «теория — практика — имитация»¹³, включая занятия «виртуальный суд». Академии предоставлены автономные полномочия по формированию учебных программ, привлечению зарубежных экспертов и организации международных стажировок.

Указ от 24 ноября 2025 года № УП-227 закрепил принцип несменяемости судей (назначение на первоначальный пятилетний срок¹⁴ с последующим бессрочным периодом), конкурсный отбор руководителей судов через открытые конкурсы, публикацию сведений о вакантных должностях и этапах отбора кандидатов, а также цифровизацию деятельности Высшего судейского совета, включая использование инструментов искусственного интеллекта для оценки эффективности судей и анализа кандидатов.

Указ от 18 декабря 2025 года № УП-253 направлен¹⁵ на совершенствование деятельности Конституционного суда: упрощён порядок рассмотрения обращений, введено перенаправление жалоб надлежащим субъектам обращения, установлена обязанность мотивированного уведомления заявителя при отказе, а признание закона неконституционным закреплено как основание для пересмотра судебных актов. Утверждён план полной цифровизации Конституционного суда на 2026-2027 годы: электронные уведомления, видеоконференцсвязь, аудиофиксация заседаний, автоматизация протоколов, запуск информационной системы «E-SUD» (отслеживание обращений, трансляции заседаний, доступная среда для лиц с инвалидностью). Решены вопросы штатной численности, оплаты труда и размещения суда в отдельном здании.

Реализованные судебно-правовые реформы отражают последовательную государственную политику, направленную на утверждение верховенства закона, надёжную защиту прав и свобод человека и формирование справедливой судебной системы. Под руко-

водством Президента Республики Узбекистан судебная власть получила устойчивую институциональную, правовую и кадровую основу.

Расширены гарантии прав и свобод личности: сокращены сроки задержания, усилен судебный контроль на досудебной стадии, введён институт следственного судьи, судам переданы полномочия по санкционированию наиболее чувствительных процессуальных действий.

Укреплена институциональная независимость судебной власти: создан Высший судейский совет, реформирована система отбора, оценки и дисциплинарной ответственности судей, обеспечено стабильное бюджетное финансирование судов и социальные гарантии судейского корпуса.

Повышена эффективность исполнения судебных актов за счёт реформирования системы принудительного исполнения, цифровизации контроля за алиментными обязательствами и усиления персональной ответственности должностных лиц.

Сформировано открытое и доступное правосудие: расширены полномочия административных судов, развиты примирительные процедуры и медиация, внедрено электронное судопроизводство и обращение в суд в электронной форме, что сократило временные и финансовые издержки граждан.

Обновлена система подготовки судейских кадров с внедрением технологий искусственного интеллекта: Академия правосудия перешла на дуальную модель обучения и системное повышение квалификации судей, что заложило основу для устойчивого развития судебной системы.

В результате комплексной реализации судебно-правовых преобразований в Республике Узбекистан сформирована современная судебная система, отвечающая стандартам независимости, открытости и эффективности, что укрепило доверие общества к правосудию и заложило институциональную основу для правовой стабильности и инвестиционной привлекательности государства.

#

13 Указ Президента Республики Узбекистан от 21 августа 2025 года № УП-141 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки высококвалифицированных кадров в сфере правосудия» (о преобразовании Высшей школы судей в Академию правосудия Республики Узбекистан) // lex.uz/ru/docs/7696610.

14 Указ Президента Республики Узбекистан от 24 ноября 2025 года № УП-227 «О мерах по повышению эффективности и открытости деятельности органов судейского сообщества, а также дальнейшему усилению гарантий судебной независимости» // lex.uz/ru/docs/7852951.

15 Указ Президента Республики Узбекистан от 18 декабря 2025 года № УП-253 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Конституционного суда Республики Узбекистан и внедрению современных цифровых технологий» // lex.uz/uz/doc-passport/7926656.



Abdug'ani XOLBO'TAYEV,
yuridik fanlar doktori (DSc)

DXX CHEGARA QO'SHINLARI HARBIY XIZMATCHISINING O'Z XIZMAT BURCHLARINI BAJARISHLARIGA QARSHILIK KO'RSATISH MA'MURIY HUQUQBUZARLIGINING YURIDIK TAVSIFI

ANNOTATSIYA. Maqolada DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish ma'muriy huquqbuzarligining yuridik tavsifi yoritib berilgan bo'lib, milliy va xalqaro qonunchilik hujjatlarining tahlili natijalariga muvofiq, mazkur ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif bildirilib o'tilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье раскрывается юридическая характеристика по противодействию выполнения служебного долга военнослужащими Пограничных войск СГБ, а также по результатам анализа национального и международного законодательства дано предложение о внесении соответствующих изменений в Кодекс об Административных правонарушениях Республики Узбекистан по совершенствованию оформления данного правонарушения.

ABSTRACT. The article reveals the legal characteristics of countering the performance of official duty by the servicemen of the Border Troops of the State Security Service, as well as the results of the analysis of the national a proposal has been made to introduce appropriate amendments to the Code of Administrative Offences of the Republic of Uzbekistan to improve the registration of this offense.

Kalit so'zlar: Davlat chegarasi, Davlat chegarasini qo'riqlash, Davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejim, Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar.

Ключевые слова: Государственная граница, охрана Государственной границы, режим Государственной границы, пограничный режим, режим пунктов пропуска через Государственную границу, административные правонарушения в области охраны Государственной границы.

Key words: State border, protection of the State border, regime of the State border, border regime, regime of checkpoints across the State border, administrative offenses in the field of protection of the State border.

Huquqbuzarlik ijtimoiy ma'noda fuqarolar, jamiyat huquqlari va qonuniy manfaatlariga xavfni vujudga keltiruvchi xulq-atvor bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ularning buzilishiga olib keladi. Huquqbuzarlik qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladigan xulq-atvor bo'lib, uning natijasida jamiyat, davlat va fuqarolar manfaatlariga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkaziladi.

Huquqbuzarliklar o'zining mazmuni, yuridik xususiyatlari va tarkibiga ega bo'lib, turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-sonli qonuni¹ 3-moddasiga ko'ra, *huquqbuzarlik* – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sanaladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning² (keyingi o'rinlarda – MJtK) 10-moddasiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonunchilikka

binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi.

MJtKning 196²-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq qonuniy talablarini bajarishga ommada oldida har qanday shaklda da'vatlar qilish, xuddi shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilariga ommaviy ravishda bo'ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Davlat chegarasini qo'riqlash, huquqiy tartibotni himoya qilish va qonunni mustahkamlashda DXX

1 O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-sonli qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil 19-may, 20-son, 221-moddada.

2 O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, 3-son, 6-moddada.



Chegara qo'shinlari huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida alohida rol o'ynaydi. DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari davlat hokimiyatining vakillari hisoblanib, davlatning alohida himoyasida turadilar. DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining qonuniy talabi barcha shaxslar uchun majburiydir. Chegara qo'shinlari safida Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish, huquqiy tartibotni himoya qilish va qonunni mustahkamlashda o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan muddatli harbiy xizmatchilar, shartnoma (kontrakt) bo'yicha oddiy askar va serjantlar tarkibi hamda ofitserlar DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari hisoblanadi. Ular Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishda, shu bilan birga, huquqiy tartibotni himoya qilish va qonunni mustahkamlash vazifalarini bajarish jarayonida fuqarolarga (shu jumladan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar) va tegishli mansabdor shaxslarga majburiy farmoyish berish va huquqiy tartibotni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy talablar qo'yish huquqiga egadirlar.

DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining o'z xizmat vazifalarini bajarishga taalluqli qonuniy talablarini bajarmaslikka har qanday ko'rinishda omma oldida da'vat qilish MJtKning 196²-moddasi bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik tarkibini tashkil etadi.

Omma oldida da'vat qilish boshqa fuqarolarni Davlat chegarasi, chegara zonasi va chegara mintaqasi, shuningdek, fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarni tark etishdan bosh tortishi, harakatni to'xtatmaslik, hokimiyat vakillari obro'-e'tiboriga putur yetkazish, ularni haqoratlash, ularga zulm o'tkazish kabi qilmishlar sodir etishga undashdan iborat bo'lishi mumkin.

Uydirmalar tarqatish deganda go'yo ro'y bergan ma'lumotlar, faktlarni hech bo'lmaganda bitta shaxsga ma'lum qilish tushuniladi. Bunda ma'lum qilish og'zaki, yozma yoki boshqa bir shaklda bayon etilganligining ahamiyati yo'q³.

Aybdorning barcha xatti-harakatlari, shu jumladan, yolg'on ma'lumotlar, ularni bayon etish usuli DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilariga o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish, ommaviy bo'ysunmaslikka qaratiladi.

Boshqaruv tartibi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning ushbu huquqbuzarlik *obyekti* hisoblanadi. Davlat chegarasini qo'riqlash, huquqiy tartibotni himoya qilish

va qonunni mustahkamlash bilan bog'liq vazifalarni olib borayotgan DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining obro'si mazkur huquqbuzarlikning *bevosita obyekti* hisoblanadi.

Obyektiv tomon faol xatti-harakat: bo'ysunmaslikka da'vat, qarshilik ko'rsatish, kuch ishlatish, tan jarohati yetkazish, bila turib soxta uydirmalarni og'zaki yoki yozma usulda tarqatish shaklida ifodalanadi.

Subyekt – 16 yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxs.

Huquqbuzarlikning *subyektiv tomoni* bevosita g'arazda ifodalanadi. Aybdor qonunga xilof xatti-harakat qilayotganini bila turib, aynan DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisiga bo'ysunmaslikni omma oldida da'vat etadi va qarshilik ko'rsatish, ommani bo'ysunmaslikka chaqiradi.

Davlat chegarasini qo'riqlash, huquqiy tartibotni himoya qilish va qonunni mustahkamlash bo'yicha o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlarida DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisiga *faol* qarshilik ko'rsatgan aybdorlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 219-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Qarshilik ko'rsatish deganda xizmat vazifasini bajarayotgan hokimiyat vakilining qonuniy faoliyatiga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga faol qarshilik ko'rsatish tushuniladi⁴.

M.X.Rustambayevning ta'biri bilan aytganda, jismoniy qarshilik ko'rsatish shaklida amalga oshiriladigan faol qarshilik ko'rsatish – o'zining xizmat yoki fuqarolik majburiyatlarini bajarayotgan shaxslarning badaniga qasddan shikast yetkazish, urish, do'pposlash, bog'lash, qamab qo'yish yoki ularning erkinligini boshqacha usulda cheklab qo'yish tushuniladi⁵.

MJtKning 196²-moddasi bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish jinoyat ishlari bo'yicha sudyalarning tomonidan ko'rib chiqiladi (MJtK 245-modda).

DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining talabi qonuniy, ya'ni qonunda ko'rsatilgani bo'yicha asoslangan va bu harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini bajarish chog'ida berilgan yoki ko'rsatilgan bo'lsa, aybdor 196²-modda bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun, agar 196²-moddada ko'rsatilgan harakat DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi o'z xizmat vazifasini o'tayotgan paytda emas, balki boshqa faoliyat ko'rsatayotganda

3 Ma'muriy huquq: Darslik / H.T.Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T.Ismailov va boshq.; prof. H.T.Odilqoriyev va B.E.Qosimovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2010-yil, 25-bet.

4 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, 1-son, 3-modda.

5 Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. T.: Adolat, 2011-yil.



sodir bo'lsa, unda shaxsning harakatlari mazkur moddada keltirilgan huquqbuzarlik tarkibini keltirib chiqarmaydi.

DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining o'z xizmat vazifasini bajarayotganidan belgilangan tartibda kiyingani, shuningdek, ma'lum qurol-aslaha va boshqa ashyolar bilan jihozlangani yoki tegishli guvohnoma ko'rsatishi shohidlik beradi.

Huquqbuzarlik DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisiga o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilgan-qilmaganligidan qat'i nazar, qonuniy talabni bajarmaslikka omma oldida har qanday shaklda da'vatlar qilish yoki ommaviy ravishda bo'ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatishda aybdor hisoblangan paytdan boshlab tan olinadi.

Qayd etish joizki, Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlariga muvofiq, Davlat chegarasini qo'riqlash nafaqat DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan, balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa vazirlik va idoralar harbiy xizmatchilari (xodimlari) tomonidan ham amalga oshiriladi.

Xususan, "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonuni⁶ 10-moddasiga asosan, Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish sohasidagi vakolatli davlat organlarining hamkorligini ta'minlash maqsadida Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishning yagona tizimi tashkil etiladi. Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishning yagona tizimiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi.

Qonunning 11-moddasiga asosan, Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlaridan tashqari boshqa bo'linma va organlari ham DXX Raisining tegishli qaroriga muvofiq Davlat chegarasini qo'riqlashga jalb etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Davlat chegarasining samoviy hududda qo'riqlanishi va himoya qilinishini amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat chegarasini himoya qilishda ishtirok etishini ta'minlaydi (qonunning 12-moddasi).

Mazkur qonunning 14-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat chegarasini qo'riqlashga va himoya qilishga doir tadbirlarni amalga oshirishda DXX Chegara qo'shinlariga ko'maklashadi; chegara zonalarida chegara rejimiga rioya etilishi hamda o'tkazish punktlariga tutash bo'lgan hududda huquq-tartibotga rioya etilishi ustidan nazorat qilishda ichki ishlar organlarining ishtirok etishini ta'minlaydi; chegara zonalarida va chegaraoldi hududlarida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan hamkorlikda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash hamda jamoat tartibini saqlash choralari ko'radi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining Davlat chegarasidagi qurolli bostirib kirishlarga, boshqa fitnalar va ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yishga doir tadbirlarida ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda chegara zonalarida va chegaraoldi aholi punktlarida jamoat tartibini ta'minlashda ishtirok etadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo'shinlari bilan birgalikda Davlat chegarasini buzuvchilarning ehtimoliy harakatlanish yo'nalishlarini to'sadi, huquqbuzarlarni qidirishni, ta'qib etishni va qo'lga olishni amalga oshiradi;

fuqarolarning chegara zonalarida va chegaraoldi hududlarida joylashgan turar joylarini, boshqa obyektlarini hamda transport vositalarini, shuningdek yuridik shaxslarning obyektlarini va transport vositalarini belgilangan tartibda ko'zdan kechirish chog'ida xavfsizlikni ta'minlashda ishtirok etadi (qonunning 16-moddasi).

6 O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 13-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi 868-sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2023-yil 13-sentyabr.





“O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida”gi qonunga⁷ muvofiq, Milliy gvardiya organlariga DXX Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash hamda himoya qilishda ko'maklashish vazifasi yuklatilgan.

Davlat chegarasini qo'riqlashni amalga oshirayotgan nafaqat DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari, balki Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) Davlat chegarasini qo'riqlash bo'yicha vazifalarini amalga oshirishlari davomida shaxslar tomonidan ularning Davlat chegarasini qo'riqlash bo'yicha o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatishlari ehtimoldan xoli emas.

Xorij qonunchiligi tahlili natijalari Rossiya Federatsiyasi⁸ va Qozog'iston Respublikasi⁹ ma'muriy qonunchiligiga asosan, aynan Davlat chegarasini qo'riqlashni amalga oshirayotgan harbiy xizmatchilarning qonuniy farmoyishi va talablarini bajarmaslik bo'yicha ma'muriy javobgarlikning belgilanganligini ko'rsatmoqda.

Shunga muvofiq, MJtKning 196²-moddasi nomlanishi va dispozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilishi taklifini bildirib o'tamiz:

“196²-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat che-

garasini qo'riqlash bo'yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) o'z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash bo'yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchining (xodimning) o'z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq qonuniy talablarini bajarmaslikka omma oldida har qanday shaklda da'vatlar qilish, xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash bo'yicha xizmat vazifasini bajarayotgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) ommaviy ravishda bo'ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatish”.

Xulosa qilib aytish mumkinki, DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish ma'muriy huquqbuzarligining yuridik tavsiflari yoritib berilganligi DXXga kadrlar tayyorlab berish faoliyatida hamda kelgusida harbiy xizmatchilarning Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi munosabatlari ni tartibga solishda qonunchilik hujjatlarini to'g'ri qo'llashda, shuningdek, ularning Davlat chegarasini qo'riqlash faoliyatini to'g'ri tashkillashtirishda hamda ma'muriy-huquqiy munosabatlarga to'g'ri huquqiy baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#

7 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida”gi 647-sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2020-yil 19-noyabr.

8 Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях от 30 декабря 2001 г. № 195-ФЗ // Elektron manba: <http://pravo.gov.ru>

9 Кодекс Республики Казахстан об административных правонарушениях от 5 июля 2014 г. № 235-В // Elektron manba: <https://online.zakon.kz/>





PROKUROR HUQUQIY VOSITALARINI TASNIFLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada prokuror huquqiy vositalarining ilmiy-nazariy asoslari, ularning mazmun-mohiyati va tizimlashtirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif prokuror huquqiy vositalarini tasniflash bo'yicha milliy va xorijiy olimlarning yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, ularni ikkita asosiy guruhga ajratgan holda o'rgangan. Maqolada A.Davletov, Y.Ergashev, N.Koreshnikova, A.Marinicheva, S.Filipenko va boshqa yetakchi huquqshunos olimlarning tasniflash mezonlari atroflicha muhokama qilingan va ba'zi o'rinlarda ular bilan ilmiy munozaraga kirishilgan. Tadqiqot yakunida muallif tomonidan prokuror huquqiy vositalarining maqsadiga, funksional mansubligiga, normativ tartibga solish manbasiga va ifodalanish shakliga ko'ra tizimlashtirilgan mualliflik tasnifi taklif etilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются научно-теоретические основы, сущность и вопросы систематизации правовых средств прокурора. Автор проводит сравнительный анализ подходов национальных и зарубежных ученых к классификации правовых средств прокурора, разделяя их на две основные группы. В статье подробно обсуждаются критерии классификации, предложенные такими ведущими учеными-юристами, как А.Давлетов, Е.Ергашев, Н.Корешникова, А.Мариничева, С.Филипенко и другие, при этом в определенных пунктах автор вступает с ними в научную полемику. По итогам исследования автором предложена оригинальная классификация, систематизирующая правовые средства прокурора по их целям, функциональной принадлежности, источнику нормативного регулирования и форме выражения.

ABSTRACT. This article investigates the theoretical and scientific foundations, essence, and systematization of the prosecutor's legal means. The author conducts a comparative analysis of approaches by national and foreign scholars regarding the classification of these means, categorizing them into two primary groups. The classification criteria proposed by prominent legal scholars, such as A.Davletov, E.Ergashev, N.Koreshnikova, A.Marinicheva, S.Filipenko, and others, are discussed in detail, incorporating scientific debates on specific points. Based on the research findings, the author proposes an original classification that systematizes the prosecutor's legal means according to their purpose, functional attribution, source of regulatory framework, and form of expression.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, prokuror huquqiy vositalari, prokuror vakolatlari, funksional mansublik, protsessual va noprotsessual vositalar.

Ключевые слова: прокурорский надзор, правовые средства прокурора, полномочия прокурора, функциональная принадлежность, процессуальные и непроцессуальные средства.

Key words: prosecutorial supervision, prosecutor's legal means, prosecutor's powers, functional attribution, procedural and non-procedural means.

Ma'lumki, prokuror huquqiy vositalari turli-tuman bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq vositalar va ularning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ayni paytda mazkur vositalarning tartibsizligi ularni muayyan belgilar asosida ma'lum bir tizimga solishni, tartibga keltirishni talab qiladi. Shu sababli ko'plab milliy va xorijiy olimlar o'z tadqiqotlari, ilmiy va o'quv adabiyotlarida prokuror huquqiy vositalarini tasniflash bo'yicha o'zlarining alohida yondashuvlarini ishlab chiqishgan. Ular orasida S.Alekseev, M.Bizova, O.Voronin, N.Votchel, A.Davletov, A.Dolgova, Y.Ergashev, N.Koreshnikova, O.Kojevnikov, A.Marinicheva, O.Teterina¹, Y.Turigin², P.Prigorsha va S.Filipenko kabi olimlar alohida ajralib turadi.

Prokuror huquqiy vositalarini tasniflashga oid ilmiy-nazariy asoslarni o'rganish natijasida ushbu vositalarni tasniflagan tadqiqotchi va olimlarni ular taklif etgan tasniflash belgilariga ko'ra 2 ta katta guruhga ajratish mumkin degan xulosaga kelindi. *Birinchi guruhga* prokuror huquqiy vositalarini bir yoki ikkita mezonga ko'ra tasniflagan olimlar (S.Alekseev, Y.Vinokurov, A.Dolgova, O.Kojevnikov, A.Marinicheva, S.Filipenko, F.Shvaba³), *ikkinchi guruhga* tasniflash masalasiga chuqurroq yondashib, huquqiy vositalarni nisbatan kengroq belgilar asosida tizimlashtirgan olimlar (M.Bizova, O.Voronin, A.Davletov, Y.Ergashev, N.Koreshnikova, P.Prigorsha, Y.Turigin) kiradi.

Birinchi guruhga mansub olimlarning aksariyati prokuror huquqiy vositalarini tasniflashda asos si-

1 Тетерина О.А. Средства прокурорского реагирования на нарушения законов при учете преступлений // Вестник КГУ им. Н.А.Некрасова, №6 / 2013 г. – С. 135.

2 Турыгин Ю.Н. Взаимодействие прокуратуры Российской Федерации и неправительственных правозащитных организаций по защите прав и свобод человека и гражданина. Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Федеральное государственное казенное образовательное учреждение высшего образования "Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации", 2012 г. – С. 150-151.

3 Шваба Ф.В., Ергашев Е.Р. Процессуальные средства прокурорского реагирования: проблемы правовой регламентации // «Российское право: образование, практика, наука», №1 / 2019 г. – С. 78.



fatida yoki vositalarni qo'llash maqsadi yoki qo'llash sohasi yoxud ularning ifodalanish shakli kabi mezonlarga tayanadilar. Xususan, S.Alekseevning qarashlariga ko'ra, prokuror nazorati huquqiy vositalariga prokurorga "Prokuratura to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlar bilan taqdim etilgan vositalar taalluqli bo'lib, avvalo, ular qonun buzilishini aniqlashga qaratilgan vositalar (*masalan, shaxsni prokuraturaga chaqirish yoki suddan fuqarolik ishini talab qilib olish*) va aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan vositalarga bo'linishi haqida yozadilar⁴. Shu kabi, A.Marinicheva prokuror nazoratining huquqiy vositalarini qo'llash maqsadiga ko'ra: qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar (*misol uchun, prokuror tekshiruv*); aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etishga qaratilgan vositalar (*misol uchun, prokuror protesti*) va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortishga yo'naltirilgan vositalarga (*misol uchun, prokurorning ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qarori*) bo'lib tasniflaydi⁵.

Birinchi guruhga mansub olimlardan Y.Vinokurov⁶, O.Kojevnikov⁷ va S.Filipenkolar ilgari surgan yondashuvlar ham e'tiborga molik sanaladi. Jumladan, huquqshunos olim S.Filipenkoning yozishicha, qonunlar ijrosi ustidan nazorat jarayonida qo'llaniladigan huquqiy vositalar dastlab 2 ta katta guruhga bo'linadi: *birinchi guruh* – qonunbuzarliklarni aniqlashda qo'llaniladigan vositalar va *ikkinchi guruh* – ularni to'xtatish va oldini olishda qo'llaniladigan vositalar, ya'ni prokuror ta'sir hujjatlaridir. Uning fikricha, qonunbuzarliklarni aniqlashda qo'llaniladigan vositalarning o'zini ham 2 ta guruhga ajratish mumkin bo'lib, birinchisi – qonuniylik ahvolini monitoring qilish vositalari, ikkinchisi – prokuror tekshiruvlari mobaynida qo'llaniladigan vositalar hisoblanadi. Shuningdek, prokuror huquqiy vositalari ular kimga yo'naltirilgan bo'lsa, o'sha organning prokuror nazorati obyekti sanalishi yoki sanalmasligiga qarab nazorat vositalari va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga bo'linadi. Bunda

ikkinchi turdagi vositalar protsessual va noprotsessual vositalarga ajraladi⁸. Bizningcha, birinchi guruhga mansub olimlarning tasniflarida, *birinchidan*, huquqiy vositalarni tasniflash asoslari yetarlicha emas, *ikkinchidan*, ushbu asoslar bo'yicha mazkur vositalarni u yoki bu guruhlarga bo'lishda barcha vositalar mansubligini to'liq aniqlash imkoni yo'q. Shu jihatdan olib qaraganda, bizning qarashlarimiz ko'proq ikkinchi guruhga mansub olimlarning qarashlari bilan mos keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi guruhga mansub olimlarning prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasidagi yondashuv va qarashlari o'zining nisbatan keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan 1991-yildan shu kunga qadar milliy olimlar orasida prokuror huquqiy vositalarini tartibga solish masalasini o'z asarlarida ko'tarib chiqqan olim faqatgina A.Davletov hisoblanadi. U o'zining "Prokuror nazorati" darsligida⁹ prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasiga to'xtalib o'tadi. Muallif prokuror nazoratining huquqiy vositalarini maqsadiga ko'ra:

- a) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar;
- b) qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan vositalar;
- v) qonunbuzarlarni javobgarlikka tortishga qaratilgan vositalar;
- g) huquqbuzar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni undirishni ta'minlashga qaratilgan vositalar;
- d) qonun buzilishining oldini olishga qaratilgan vositalarga bo'ladi.

U *birinchi turdagi huquqiy vositalarga* tekshirish uchun vakolatli idoralardan ma'lumot, statistika va boshqa zaruriy hujjatlarni talab qilib olish, nazorat organlaridan tekshirish yoki reviziya o'tkazishni talab qilish, mutaxassis ajratishni talab qilish, tekshirish o'tkazish, fuqarolar va mansabdor shaxslarni chaqirish va ulardan qonun buzilishi holati yuzasidan yoz-

4 Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. Прокурорский надзор: Учебное пособие / под ред. д.ю.н., профессора Ф.Н.Багаутдинова. – Казань: Информационно-технологический центр АСО, 2014 г. – С. 31.

5 Мариничева А.Ю. Некоторые правовые средства прокурорского надзора за законностью закупочной деятельности // «Уголовная юстиция – Russian Journal of Criminal Law», №17 / 2021 г. – С. 101-103.

6 Прокурорский надзор: Учебник / Винокуров Ю.Е. и др.; под общ. ред. Ю.Е.Винокурова. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Высшее образование, 2005 г. – С. 159.

7 Прокурорский надзор за исполнением законов органами, осуществляющими оперативно-розыскную деятельность, дознание и предварительное следствие: Учебное пособие / О.А.Кожевников. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2006 г. – С. 12.

8 Филипенко С.В. Классификация правовых средств органов прокуратуры, применяемых при надзоре за исполнением законов // Вестник Саратовской государственной юридической академии, № 3 (116) / 2017 г. – С. 209.

9 Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: «Bilim», 1999 г. – С. 320.



ma yoki og'zaki tushuntirishlar talab qilish kabilarni kiritadi. *Ikkinchi turdagi huquqiy vositalarga* noqonuniy huquqiy hujjat yoki harakatga nisbatan protest keltirish, qonun buzilishini bartaraf etish to'g'risida taqdimnoma kiritish va boshqalarni kiritadi. *Uchinchi turdagi huquqiy vositalarga* jinoyat ishi qo'zg'atish, intizomiy yoki ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish kabilarni, *to'rtinchi turdagi huquqiy vositalarga* fuqarolik ishlari bo'yicha yetkazilgan zararni qoplash haqida da'vo ariza kiritish kabilarni kiritadi. Va nihoyat, *beshtinchi turdagi huquqiy vositalarga* qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida rasmiy ogohlantiruv e'lon qilish, protest sudda ko'rib chiqilguniga qadar huquqiy hujjat ijrosini to'xtatib qo'yish va boshqalar misol bo'lishini qayd etadi. A.Davletov xarakteri bo'yicha huquqiy vositalarni: majburlovchi, to'xtatuvchi, ma'muriy buyruq beruvchi vositalarga ajratadi. Uning fikricha, majburlash xarakteriga ega bo'lgan huquqiy vositalarga tekshirish yoki reviziya o'tkazishni talab qilish, to'xtatuvchi xarakterga ega huquqiy vositalarga sudlarning hujjatlari ijrosini to'xtatib qo'yish hamda ma'muriy buyruq beruvchi huquqiy vositalarga yozma ko'rsatma berish, jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish kabilarni misol qilib ko'rsatadi. Shuningdek, muallif huquqiy vositalarni shakli bo'yicha harakatlar va hujjatlarga bo'ladi¹⁰. Fikrimizcha, A.Davletov tomonidan taklif etilgan tasniflardagi prokuror huquqiy vositalarining u yoki bu guruhga mansubligini belgilash asoslari bilan kelishish mumkin, ammo nazarimizda, muallif huquqiy vositalarni prokuror vakolatlari bilan aralashtirib yuborgan. Boisi u misol tariqasida keltirgan vositalar huquqiy vositalar emas, balki "Prokuratura to'g'risida"gi qonun bilan prokurorlarga berilgan vakolatlar hisoblanadi.

Shu o'rinda MDH mamlakatlari olimlari, ayniqsa, rossiyalik olimlar tomonidan prokuror huquqiy vositalarini tasniflash masalasi keng o'rganilganligini alohida e'tirof etish zarur. Jumladan, M.Bizova prokuror huquqiy vositalarini faoliyat yo'nalishi, maqsadi, imperativlik darajasi va normativ tartibga solish manbasiga ko'ra tasniflaydi. Xususan, u huquqiy vositalarni:

1) faoliyat yo'nalishiga ko'ra prokuror nazorati

faoliyati bilan bog'liq bo'lgan vositalar va nazorat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga;

2) maqsadiga ko'ra: qonun buzilishini aniqlash vositalari va aniqlangan qonun buzilishiga ta'sir ko'rsatish vositalariga;

3) imperativlik darajasiga ko'ra imperativ, cheklangan-imperativ va dispozitiv vositalarga;

4) normativ tartibga solish manbasiga ko'ra protsessual vositalar va noprotsessual vositalarga ajratadi¹¹.

Mazkur sohada maxsus o'rganishlar olib borgan olim P.Prigorsha esa prokuror huquqiy vositalarini dastlab 2 turga: huquqbuzarliklarni aniqlash vositalari (*masalan, prokuror tekshiruvi*) va aniqlangan huquqbuzarliklarga ta'sir ko'rsatishga (*munosabat bildirish*) qaratilgan vositalarga (*masalan, prokuror talabnomasi*)¹² bo'ladi. Muallif ilgari surgan yondashuvga asosan, prokuror huquqiy vositalari o'z navbatida nazorat va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ajratilishi lozim. Nazorat vositalariga prokuratura organlari tomonidan nazorat funksiyasini amalga oshirish moyinida qo'llaniladigan vositalar, nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga nazorat funksiyasidan tashqari funksiyalar, masalan, odil sudlovga ko'maklashish funksiyasini (*sudlarda jinoyat, fuqarolik ishlari ko'rili-shida prokuror ishtirokini ta'minlash*) amalga oshirish chog'ida qo'llaniladigan vositalar kiritiladi. Nazorat va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan huquqiy vositalar protsessual va noprotsessual vositalarga ajratiladi. Protsessual nazorat vositalari orasida prokuror yozma ko'rsatmasi, prokuror talabnomasi, prokurorning turli xildagi qarorlari; noprotsessual nazorat vositalari orasida protest, taqdimnoma, ogohlantiruv, ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi qaror ajralib turadi. Nazorat bilan bog'liq bo'lmagan protsessual vositalarga sud hujjatlariga nisbatan prokuror taqdimnomasi va shikoyati, prokurorning da'vo arizasi va boshqa arizalari mansub bo'lsa, nazorat bilan bog'liq bo'lmagan noprotsessual vositalarga qonun buzilishlar haqidagi prokuror xabarnomasi, prokuror xati, prokuror axboroti va prokuror ma'ruzasi kiritiladi¹³.

Bizningcha, yuqorida qayd etilgan tasniflarga nisbatan Y.Ergashev va N.Koreshnikovalar¹⁴ taklif etgan

10 Давлетов А.Дж. Прокурорский надзор: учебник для студентов юридических вузов и факультетов. – Нукус: "Bilim", 1999 г. – С. 36-39.

11 Бызова М.В. Представление прокурора. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Уральская государственная юридическая академия", 2009 г. – С. 182.

12 Пригорща П.А. К вопросу и сущности требования как акта прокурорского реагирования современной Российской прокуратуры // «Бизнес в законе», №1 / 2011 г. – С. 84-85.

13 Пригорща П.А. Требование прокурора как средство обеспечения исполнения закона: теоретические и практические аспекты. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2011 г. – С. 18-20.

14 Корешникова Н.Р. Основные правовые средства прокуратуры Российской Федерации как инструмент обеспечения исполнения законов. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург: Уральская государственная юридическая академия, 2010 г. – С. 25-32.



tasniflash asoslari va ularning tarkibiy qismlari o'zining to'liqligi hamda keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, prokuror huquqiy vositalari, ularni anglash, qo'llash va huquqiy jihatdan tartibga solish muammolari yuzasidan alohida tadqiqot olib borgan olim Y.Ergashevning ta'kidlashicha, prokuror huquqiy vositalari maqsadiga ko'ra *qonun buzilishini aniqlash vositalari* – ularni qo'llashdan ko'zlangan eng asosiy maqsad – qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni, ularni sodir etishda aybdor shaxslarni aniqlash hisoblanadi. Ular orasida eng muhim vosita – bu prokuror tekshiruvi sanaladi. *Aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir vositalari (prokuror ta'sir vositalari)* bo'lib, ular aniqlangan qonun buzilishi, uning sababi va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadini ko'zlaydi.

Olim prokuror ta'sir vositalarini qo'llanish sohasiga ko'ra umumiy va maxsus vositalarga, xarakteriga ko'ra ogohlantiruvchi, oldini oluvchi va jazolovchi vositalarga bo'ladi. Shu bilan birga uning fikricha, prokuror huquqiy vositalari nazorat vositalari va nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ham ajratiladi. O'z navbatida, ular protsessual va noprotsessual vositalarga bo'linadi. Prokurorning protsessual ta'sir vositalarini nazorat osti subyektlarining nohuquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (*qaror, talabnoma, yozma ko'rsatma*) va huquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (*prokuror tasdig'i, prokuror roziligi, prokuror sanksiyasi*) vositalarga ham ajratish mumkin. Muallif yakunda prokuror ta'sir vositalarini xarakteriga ko'ra: asosiy – qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan, prokuraturaning bosh funksiyasi namoyon bo'ladigan prokuror ta'sir vositalari (*prokuror nazorati hujjatlari, prokurorning protsessual vositalari*) va signal beruvchi – qonun buzilishini bartaraf etish talabi qo'yilmagan qonuniylik ahvoli to'g'risidagi axborotlarni qamrab oluvchi vositalarga (*axborot xatlari, axborotlar, xabarnomalar, prokuror suhbatlari, ma'ruza*) tasniflaydi¹⁵.

Mazkur mavzuni o'rgangan tadqiqotchi-olimlarning ilmiy qarashlari, milliy qonunchilik va prokuror nazorati amaliyotini umumlashtirgan holda bizningcha, prokuror huquqiy vositalarini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq. Xususan, prokuror huquqiy vositalari *maqsadiga ko'ra* qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qara-

tilgan vositalar hamda aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir ko'rsatish vositalariga bo'linadi.

Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan vositalar *funksional mansubligiga ko'ra* 2 ta turga, ya'ni prokuror nazorati vositalari (*prokurorning nazorat tartibidagi tekshiruvlari*) va prokuror nazorati bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga (*prokurorning nazorat bilan bog'liq bo'lmagan tekshirishlari, masalan, huquqiy hujjatlarning qonuniyligini aniqlashga qaratilgan tekshirish, normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlashga qaratilgan tekshirish, monitoring*) bo'linadi.

Aniqlangan qonun buzilishiga nisbatan ta'sir ko'rsatish vositalari ham *funksional mansubligiga ko'ra* prokuror nazorati vositalari va prokuror nazorati bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga ajratiladi.

Nazorat vositalari *normativ tartibga solish mansabiga ko'ra* 2 turga, ya'ni protsessual nazorat vositalari (*protsessual qonunchilik bilan tartibga solinadi*) va noprotsessual nazorat vositalariga (*boshqa qonunchilik bilan tartibga solinadi*) bo'linadi. Prokurorning protsessual nazorat vositalari nazorat osti subyektlarining nohuquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (*qaror, talabnoma, yozma ko'rsatma*) va huquqiy xatti-harakatlariga nisbatan qo'llanuvchi (*prokuror tasdig'i, prokuror roziligi, prokuror sanksiyasi*) vositalarga ajratiladi. Prokurorning noprotsessual nazorat vositalariga prokuror nazorati hujjatlari (*protest, taqdimnoma, ogohlantiruv, qaror*) kiradi.

Prokurorning nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalari ham 2 turga: protsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalar (*asosiy vositalar*) va noprotsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga (*signal beruvchi vositalar*) bo'linadi. Protsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga da'vo ariza, ariza, sud hujjatlariga (*hal qiluv qarori, ajrim, qaror va buyruq*) nisbatan protest kiradi. Noprotsessual nazorat bilan bog'liq bo'lmagan vositalarga prokuror axboroti, prokuror xabarnomasi, prokuror ma'ruzasi kiradi.

Bundan tashqari, prokuror huquqiy vositalari *ifodalanish shakliga ko'ra* qonunda nazarda tutilgan harakatlar (*masalan, prokuror tekshiruvi*) va hujjatlarga (*prokuror nazorati hujjatlari va h.k.*) tasniflanadi.

Xulosa qilib aytganda, prokuror huquqiy vositalarini tasniflash ularni yanada chuqurroq anglash, ularning turlari, har bir huquqiy vositaga xos xususiyatlarni tushunib yetish va amaliyotda ularning to'g'ri qo'llanishiga xizmat qiladi.

#

15 Ergashev E.P., E.A.Gabyшева. Правовые средства прокурора: проблемы осмысления, применения и правового регулирования // Российское право: образование, практика, наука. 2018 г. №5 (107). – С. 40-42.



MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT HUQUQINING EVOLYUTSIYASI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada O'zbekiston transport sohasida davlat boshqaruvining tarixiy-huquqiy evolyutsiyasi mintaqaviy xavfsizlik, xalqaro integratsiya (MDH va SHHT) va raqamli transformatsiya nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqaviy tranzit salohiyatini xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish maqsadida milliy qonunchilikni global standartlarga moslashtirish jarayonlari va yangi geoiqtisodiy loyihalarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro yuk tashuvlarini boshqarishda an'anaviy byurokratik usullardan raqamli modelga o'tishning ma'muriy-huquqiy jihatlarini o'rganilib, kelajakdagi boshqaruv tizimida algoritmlar va "aqli huquq" tamoyillarining ustuvorligi ilmiy asoslangan. Natijada milliy transport huquqi normalari chuqur transformatsiyaga uchrab, global raqamli logistika makonining uzviy va raqobatbardosh qismiga aylanayotganligi asoslab berilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проводится глубокий анализ историко-правовой эволюции государственного управления в транспортной сфере Узбекистана с точки зрения региональной безопасности, международной интеграции (СНГ и ШОС) и цифровой трансформации. В исследовании раскрываются процессы адаптации национального законодательства к глобальным стандартам в целях защиты регионального транзитного потенциала от угроз безопасности, а также значение новых геоэкономических проектов. Кроме того, изучаются административно-правовые аспекты перехода от традиционных бюрократических методов к цифровой модели в управлении международными грузоперевозками, и научно обосновывается приоритетность алгоритмов и принципов «умного права» в будущей системе управления. В результате обосновывается, что нормы национального транспортного права подвергаются глубокой трансформации, становясь неотъемлемой и конкурентоспособной частью глобального цифрового логистического пространства.

ABSTRACT. This article provides an in-depth analysis of the historical and legal evolution of state administration in the transport sector of Uzbekistan from the perspective of regional security, international integration (CIS and SCO), and digital transformation. The study explores the processes of adapting national legislation to global standards to protect regional transit potential from security threats, as well as the significance of emerging geoeconomic projects. Furthermore, it examines the administrative and legal aspects of transitioning from traditional bureaucratic methods to a digital model in managing international freight, scientifically substantiating the priority of algorithms and "smart law" principles in the future management system. As a result, it is substantiated that the norms of national transport law are undergoing a profound transformation, becoming an integral and competitive part of the global digital logistics space.

Kalit so'zlar: transport huquqi, transport xavfsizligi, davlat boshqaruvi, mintaqaviy integratsiya, SHHT, MDH, raqamli transformatsiya, "e-Permit", "smart-kontraktlar", "aqli huquq", transport diplomatiyasi.

Ключевые слова: транспортное право, транспортная безопасность, государственное управление, региональная интеграция, ШОС, СНГ, цифровая трансформация, e-Permit, смарт-контракты, умное право, транспортная дипломатия.

Key words: transport law, transport security, state management, regional integration, SCO, CIS, digital transformation, e-Permit, smart contracts, smart law, transport diplomacy.

Ma'lumki, xalqaro tashuvlarni amalga oshirishda ishonchli va uzluksiz aloqalar, turli transport vositalarini birlashtirish va xalqaro yo'laklardan foydalanish zarur. Eng avvalo, bu xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar guruhi bo'lib, ular xalqaro oldi-sotdi shartnomalarining transport shartlaridan kelib chiqadigan munosabatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar bevosita xalqaro tashuvlar bilan bog'liq munosabatlarda, xususan, yuklarni tashish bo'yicha shartnomaviy munosabatlar da yanada aniqlashtiriladi. Shuningdek, ushbu guruhga yo'lovchilar va bagajni xalqaro tashish bilan bog'liq munosabatlar ham kiradi. Bundan tashqari, xalqaro tashuvlarni transport-ekspeditsiya xizmati

bilan ta'minlashga oid munosabatlar ham mazkur guruh tarkibini tashkil etadi. Xalqaro tashuvlarni amalga oshirish jarayonida transport sug'urtasi bilan bog'liq ravishda shakllanadigan munosabatlar ham shu guruhga yaqin hisoblanadi. Ularning barchasi xalqaro xususiy huquq doirasiga kiruvchi munosabatlar bo'lib, ushbu huquq sohasining manbalari bilan tartibga solinadi¹.

Keyingi guruh davlatlar o'rtasida xalqaro transport aloqalarini o'rnatish, xorijiy tashuvchilarning suveren davlatlar hududlari bo'ylab erkin harakatlanishi imkoniyatini ta'minlash, Jahon okeani, xalqaro havvo makoni, xalqaro daryolar va kanallardan foydalanish masalalariga oid munosabatlardan iborat. Bu

1 Ерпылева Н.Ю. Международное частное право: учебник для бакалавров. М.: Юрайт, 2012 г. – С. 18; Лимонов Э.Л. Внешнеторговые операции морского транспорта и мультимодальные перевозки. СПб.: Выбор, 2001 г. – С. 22-23; Международное частное право: учебник / под ред. Г.К.Дмитриевой. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Проспект, 2004 г. – С. 8; Федосеева Г.Ю. Международное частное право: учебник. М.: Остожье, 1999 г. – С. 22.



yerda xalqaro tashuvlarni amalga oshirishda hududlarning huquqiy rejimlariga rioya etish haqida gap boradi, ya'ni davlat hududlari, umumiy foydalanishdagi xalqaro hududlar hamda aralash huquqiy rejimga ega hududlar huquqiy tartibi nazarda tutiladi. Demak, bu holda xalqaro ommaviy huquq munosabatlari nazarda tutiladi hamda ular xalqaro ommaviy huquq manbalari – xalqaro shartnomalar va xalqaro huquqiy odat normalari bilan tartibga solinadi².

Xalqaro tashuvlar ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning yana bir guruhini – xalqaro tashuvlarni amalga oshirish jarayonida transport vositalari va transport yo'laklaridan foydalanishga oid munosabatlar, shuningdek, xalqaro tashuvlarni amalga oshirishda bojxona rejimlariga rioya qilish, soliqlar, yig'imlar va boj to'lovlari bilan bog'liq moliyaviy hisob-kitoblar sohasida yuzaga keladigan munosabatlar tashkil etadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ushbu munosabatlar guruhi va ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar yetarlicha darajada o'rganilmagan³. Ularning huquqiy tabiati va qaysi huquq sohasiga mansubligi yuzasidan turli, ayrim hollarda esa o'zaro zid fikr-mulohazalar uchraydi.

Ayrim mualliflar mazkur munosabatlar guruhi va ularni tartibga soluvchi normalar xalqaro ommaviy huquq tarkibiga taalluqli, deb hisoblaydilar⁴. Biroq, bu masalada bir xil va qat'iy xulosaga kelish mumkin emas. Avvalo, mazkur munosabatlarning subyekt tarkibi (bunda davlat organlari vakillari bilan bir qatorda tashuvchilar, ularning mijozlari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadi) ularni to'liq ravishda xalqaro ommaviy huquq doirasiga kiritish imkonini bermaydi. Milliy huquq tizimlarini esa xalqaro ommaviy huquq tarkibiga kiritish mumkin emas⁵.

Ayrim mualliflar mazkur munosabatlarni (xususan, moliyaviy, soliq va bojxona munosabatlarini) hamda ularning normativ asosini xalqaro xususiy huquq doirasiga kiritadilar⁶. Biroq, ushbu yondashuv ham mutlaq va bahssiz hisoblanmaydi. Masalan, bojxona munosabatlarini tahlil qilganda, davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari bojxona

sohasida faol hamkorlik olib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Ushbu sohada o'ziga xos qator printsiplar mavjud bo'lib, jumladan, yangi xalqaro iqtisodiy tartibni shakllantirishga ko'maklashish tamoyili, mamlakatlarning bojxona suverenitetiga to'sqinlik qilishga qaratilgan bevosita yoki bilvosita harakatlarni taqiqlash tamoyili, bojxona soliqqa tortishning mustaqilligi tamoyili va boshqa tamoyillar shular jumlasidandir⁷.

Ayrim xorijiy olimlar xalqaro ma'muriy huquqning mustaqil huquqiy institut sifatida mavjudligini e'tirof etadilar⁸.

Har qanday holatda ham ko'rib chiqilayotgan munosabatlar guruhiga boshqaruv, hokimiyat va bo'y-sunuv elementlari xos bo'lib, bunda tomonlarning huquqiy maqomi teng emasligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur munosabatlar guruhining subyekt tarkibi va normativ manbalarini tahlil qilish natijasida ular murakkab va ko'p o'lchamli tizimni tashkil etishi haqida xulosa qilish mumkin.

Umuman olganda, xalqaro tashuvlar bilan bog'liq transport faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni shartli ravishda uchta guruhga ajratish uchun barcha asoslar mavjud. Birinchi guruh xalqaro transport sohasidagi xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ikkinchi guruh transport faoliyatining ayrim jihatlarini aks ettiruvchi xalqaro ommaviy huquq munosabatlarini qamrab oladi. Uchinchi guruh esa xalqaro ma'muriy-huquqiy transport munosabatlarini tartibga soladi.

Ko'rib chiqilgan barcha huquqiy normalar guruhlari bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, balki o'zaro chambarchas bog'liq holda faoliyat yuritadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, huquqiy tartibga solish predmeti huquq sohaslarini ajratish mezonlaridan biri hisoblanishini inobatga olgan holda, xalqaro transport huquqini mustaqil bazaviy huquq sohalari qatoriga kiritish uchun yetarli asoslar mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin.

Mazkur holatga huquq normalari tizimini mustaqil huquq sohasiga kiritish mezonlaridan yana biri – huquqiy tartibga solish metodi ham ishora

2. Международное публичное право: учебник / отв. ред. Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова. М.: Международные отношения, 2000 г. – С. 113-114; Международное право: учебник для вузов / отв. ред. Г.В.Игнатенко, О.И.Тиунов. М.: Норма, 2003 г. – С. 7-8.

3. Садиков О.Н. Правовое регулирование международных перевозок. М., 1981 г. – С. 16.

4. Международное публичное право: учебник / отв. ред. К.А.Бекашев. М.: Проспект, 2004 г. – С. 20, 508 – 512, 866 – 869.

5. Садиков О.Н. Указ. соч.; Международное публичное право: учебник / отв. ред. К.А.Бекашев. – С. 21 – 23.

6. Международное публичное право: учебник / отв. ред. К. А.Бекашев. – С. 18

7. Международное публичное право: учебник / отв. ред. Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова. – С. 658.

8. Международное публичное право: учебник / отв. ред. К.А.Бекашев. – С. 20.



qiladi⁹. Bu yerda quyidagi jihatlarni inobatga olish zarur.

Xalqaro transport huquqi doirasida shakllanadigan xususiy huquqiy munosabatlar xalqaro xususiy huquq metodini tashkil etuvchi tegishli usullar, vositalar va mexanizmlar ta'siri ostida bo'ladi. Tartibga solish predmetining o'ziga xosligi, ya'ni xorijiy element bilan murakkablashgan xususiy huquqiy munosabatlar mavjudligi sababli ushbu munosabatlarga, bir tomondan, fuqarolik huquqiga xos bo'lgan metodlar, ikkinchi tomondan esa, xorijiy element bilan bog'liq huquqiy tartibga solish metodlari tatbiq etiladi¹⁰.

Ma'lumki, xususiy huquqiy munosabatlar asosan tomonlarning yuridik tengligi metodi, dispozitiv metod yoki muvofiqlashtirish metodi kabi asosiy usullarga tayanadi¹¹. Ular tomonlarning mustaqilligi, huquqlarini himoya qilishning mulkiy vositalari mavjudligi, shuningdek, shartnoma erkinligi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, turli davlatlarning normativ-huquqiy manbalari ayrim hollarda xususiy huquqiy munosabatlarni turlicha tartibga soladi, bu esa alohida milliy huquq tizimlari normalari o'rtasida kolliziyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi¹².

Xorijiy element mavjudligi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan kolliziyalarni hal etish xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga solish metodining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi¹³. Yuridik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, xususiy huquqiy munosabatlarda xorijiy elementning mavjudligi xalqaro xususiy huquqda alohida metodni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu metod turli davlatlar huquq normalari o'rtasida yuzaga keladigan kolliziyalarni bartaraf etishga qaratilgan yuridik ta'sir ko'rsatishning muayyan usullari, vositalari va mexanizmlari majmuasidan iborat. Bunday usullarga kollizion va moddiy-huquqiy usullar kiradi. Ularni amalga oshirishda esa qator maxsus huquqiy mexanizmlardan foydalaniladi¹⁴.

Ko'rsatib o'tilgan usul va mexanizmlar xususiy huquqiy munosabatlarga xos bo'lgan asosiy huquqiy metodlar – dispozitivlik, tomonlarning yuridik tengligi, ruxsat berish va muvofiqlashtirish

metodlari bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur metodlarning barchasi xalqaro transport huquqidagi xususiy huquqiy munosabatlarga ham to'liq xosdir.

Ushbu tadqiqot globallashuv va mintaqaviy integratsiyalashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimining tarixiy-huquqiy evolyutsiyasini, xususan, xalqaro huquqiy normalarni implementatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini konseptual jihatdan tahlil qiladi. Transport xavfsizligi va tranzit salohiyatini ta'minlash bugungi kunda nafaqat muhandislik-kommunikatsiya, balki murakkab ma'muriy-huquqiy vazifaga aylangan bo'lib, davlatdan mintaqaviy geosiyosiy tuzilmalar (MDH, SHHT) doirasida mohirona transport diplomatiyasini olib borishni talab qiladi. Shuningdek, bu jarayon an'anaviy byurokratik boshqaruv usullaridan "aqli huquq" hamda raqamli logistika (e-Permit, e-CMR, smart-kontraktlar) modellariga o'tishni taqozo etmoqda.

Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimining tarixiy evolyutsiyasini mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro huquqiy integratsiya jarayonlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'zining milliy transport qonunchiligini shakllantirar ekan avvalo, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va keyinchalik Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi yirik geosiyosiy tuzilmalarning normativ-huquqiy bazasini milliy huquq tizimiga implementatsiya qilishdek o'ta murakkab institutsional vazifani bajarishga kirishdi.

Mintaqaviy transport integratsiyasining dastlabki bosqichida MDH doirasidagi huquqiy baza integratsion jarayonlarning o'ziga xos "o'tish ko'prigi" vazifasini o'tadi. "Postsovet" makonidagi integratsiyaning yangi turlarini tadqiq qilgan K.P.Kurilev o'z izlanishlarida ta'kidlashicha, MDH makonida qabul qilingan model qonunlar va ko'p tomonlama transport bitimlari yosh suveren davlatlarning milliy qonunchiligi bir-biridan keskin uzoqlashib ketishining oldini olgan hamda yagona transport-kommunikatsiya makonini saqlab qolishda muhim siyosiy-huquqiy vosita bo'lib xizmat

9 Алексеев С.С. Теория права. М.: Бек, 1995 г. – С. 196-197; Мухаев Р.Т. Теория государства и права: учебник для бакалавров. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт, 2014 г. – С. 423 – 424; Черданцев А.Ф. Теория государства и права. М., 1999 г. – С. 237-238.

10 Ануфриева Л.П. Международное частное право: учебник; в 3 т. М.: Бек, 2000 г. Т. I: Часть общая. – С. 64.; Ерпылева Н.Ю. Указ. соч. – С. 37

11 Российское гражданское право: учебник: в 2 т. Т. 1. / отв. ред. Е.А.Суханов. М.: Статут, 2013 г. Т. 1. – С. 112; Гражданское право: в 3 т. / под ред. А.П.Сергеева. М.: РФ-Пресс, 2009 г. Т. 1. – С. 42

12 Международное частное право: учебник / под ред. Г.К.Дмитриевой. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Проспект, 2004 г. – С. 14 –16.

13 Международное частное право: учебник / под ред. Г.К.Дмитриевой. – С. 17; Ермолаев В.Е., Сиваков О.В. Международное частное право: курс лекций. М.: Былина, 1998 г. – С. 12-13.

14 Ануфриева Л.П. Международное частное право. Т. I: Общая часть. – С. 64, 65; Скаридов А.С. Международное частное право: учеб. пособие. СПб., 2000 г. – С. 14.



qilgan¹⁵. Olimning ushbu nazariy qarashlariga munosabat bildirgan holda, shuni qat'iy ta'kidlashimiz joizki, MDH normalari garchi tarqalib ketish xavfini yumshatgan bo'lsa-da, ular asosan tavsiyaviy va deklarativ xarakterga ega bo'lganligi sababli transport xavfsizligi va qat'iy majburiyatlarni ijro etishda kuchli mexanizmlarni yarata olmadi, bu esa O'zbekistonni yanada qudratliroq va majburiy yuridik kuchga ega bo'lgan SHHT formatlariga yuzlanishiga obyektiv zamin yaratdi.

SHHTning tashkil topishi va O'zbekistonning unga a'zo bo'lishi transport sohasida davlat boshqaruvining huquqiy tabiatida mutlaqo yangi, xavfsizlikka yo'naltirilgan tushunchani shakllantirdi. SHHTning rivojlanish strategiyasi va xavfsizlik muammolarini tahlil qilgan A.F.Klimenkoning yondashuviga ko'ra, tashkilot dastlab sof harbiy-siyosiy va chegara xavfsizligini ta'minlash maqsadida tuzilgan bo'lsa-da, keyinchalik transport va iqtisodiy kommunikatsiyalarni rivojlantirishsiz mintaqaviy barqarorlikka erishib bo'lmazligi anglab yetildi, natijada transport infratuzilmasi SHHT doirasida xavfsizlikni ta'minlashning eng markaziy moddiy-huquqiy elementiga aylandi¹⁶.

Transport xavfsizligi va huquqiy implementatsiya masalalari bugungi kunda "Katta Yevroosiyo" konsepsiyasi va turli integratsion bloklar (MDH, SHHT, BRIKS) normalarining o'zaro kolliziyaga kirishmasligini ta'minlashdek o'ta murakkab nazariy muammoni yuzaga keltirmoqda. Yevroosiyo integratsiyasi jarayonlarida SHHT va BRIKSning ishtirokini o'rgangan V.I.Yurtayevning ilmiy kuzatuvlariga ko'ra, mintqa davlatlari bir vaqtning o'zida bir nechta integratsion loyihalarda qatnashar ekan, ularning milliy transport va iqtisodiy qonunchiligi turli xalqaro standartlar o'rtasida muvozanat saqlashi, ayniqsa, tranzit infratuzilmalari ustidan nazoratni yo'qotmasligi uchun o'ta egiluvchan va sinxronlashgan huquqiy bazaga ega bo'lishi kerak¹⁷. Bu fikrni rivojlantirib ta'kidlaymizki, O'zbekistonning transport sohasidagi davlat boshqaruvi MDHning texnik reglamentlari va SHHTning logistik-xavfsizlik protokollari o'rtasida ziddiyat kelib chiqmasligi uchun mohirona transport diplomatiyasini olib bordi va milliy kodekslarni har ikki tizimning eng ilg'or, dispozitiv

normalarini o'zida mujassamlashtiruvchi universal hujjatlarga aylantirishga erishdi.

Yangi global transport loyihalari, xususan, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida SHHT normalarining milliy transport tizimiga singishi davlatning geoiqtisodiy ustuvorliklarini huquqiy jihatdan qonuniylashtirdi. Markaziy Osiyo davlatlarining SHHT doirasidagi ustuvor yo'nalishlarini tadqiq qilgan K.G.Muratshinaning ilmiy xulosalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari uchun SHHT shunchaki xavfsizlik tashkiloti emas, balki Xitoyning ulkan sarmoyaviy va infratuzilmaviy resurslarini mintqa transport tarmoqlariga jalb qilish, shu orqali muqobil dengiz portlariga chiqish yo'llarini kafolatlovchi eng muhim xalqaro huquqiy platformadir¹⁸. Ushbu qarashni to'liq quvvatlagan holda bizningcha, "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li qurilishi kabi loyihalarning yuridik bazasi aynan SHHT doirasida shakllangan ko'p tomonlama ishonch va xavfsizlik kafolatlari ustiga qurilgan bo'lib, bu davlat boshqaruvining tranzit siyosatini geostrategik g'alaba sari yetaklaydigan mukammal huquqiy mexanizmdir.

Transport sohasida davlat boshqaruvining zamonaviy tarixiy bosqichida mahalliy va xalqaro aeroportlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, transmintaqaviy temir yo'l tarmoqlarini yaratish hamda boshqarish jarayonlari oddiy muhandislik-texnik vazifa doirasidan chiqib, o'ta murakkab ma'muriy-huquqiy jarayonga aylandi. Ushbu mega-loyihalar davlatdan misli ko'rilmagan normativ-huquqiy hujjatlar majmuasini yaratishni taqozo etdi.

Avtomobil transportida xalqaro yuk tashuvlarini davlat tomonidan boshqarish tarixi bugungi kunga kelib an'anaviy byurokratik usullardan raqamli boshqaruv modeliga o'tishdek fundamental evolyutsiyani boshidan kechirmoqda. Bu jarayon davlatning nazorat funksiyalarini qisqartirmaydi, balki ularni intellektual va virtual makonga ko'chirib, tranzit jarayonlarining tezligini keskin oshiradi. Raqamli reallik sharoitida huquqning transformatsiyasini tadqiq qilgan T.Y.Xabriyev va N.N.Chernogorlarning ilmiy yondashuviga ko'ra, davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo'llash huquqiy tartibga solishning mohiyatini o'zgartirib, imperativ buyruq-

15 Курьев К.П., Рахимов К.Х. ЕАЭС как новый тип интеграции на пространстве СНГ: проблемы и перспективы развития // Вестник Таджикского национального университета. – 2016 г. – № 3-6. – С. 88-94.

16 Клименко А.Ф. Стратегия развития ШОС: проблемы и перспективы ее реализации в аспекте обеспечения безопасности // Китай в мировой и региональной политике. История и современность. – 2017 г. – № 1. – С.139-153.

17 Юртаев В.И., Рогов А.С. ШОС и БРИКС: особенности участия в процессе евразийской интеграции // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Международные отношения. – 2017 г. – № 3. – С.469-482

18 Муратшина К.Г. Приоритеты стран Центральной Азии в ШОС в контексте их взаимоотношений с Китаем // Вестник Омского университета. Серия «Исторические науки». – 2017 г. – № 3. – С. 445-456.



lar o'rnini avtomatik ijro etiluvchi algoritmlar egalaydi va bu ma'muriy huquqning yangi raqamli tar-mog'ini shakllantiradi¹⁹. Bizning fikrimizcha, algo-ritmlar huquqni to'liq almashtira olmaydi, transport sohasida algoritmlar faqatgina vositadir, uning ortida esa milliy manfaatlarni himoya qiluvchi, yo'lovchi va yuk xavfsizligini kafolatlovchi mustahkam davlat irodasi va aniq yuridik norma turishi shart.

Ushbu raqamli transformatsiyaning eng yorqin va inqilobiy institutsional ko'rinishi xalqaro avto-mobil tashuvlarida ruxsatnomalar almashishning elektron tizimi "e-Permit" loyihasining joriy etilishi bo'ldi. Qog'oz blankalariga asoslangan eski tizim ko'pincha sun'iy taqchilik, korrupsiya va logistik zanjirlarning uzilishiga olib kelar edi.

Yuk tashuvlarini raqamlashtirishning huquqiy bazasi elektron transport hujjatlari (e-CMR) va "smart-kontraktlar"ni legallashtirishni taqozo eta-di. L.G.Efimova transport huquqida "smart-kontrakt-lar"ni qo'llashning nazariy muammolarini tadqiq qi-lib, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan transport shartnomalari ijro avtomatik ravishda ta'minlashini, biroq ularning an'anaviy shartnomaviy huquq dokt-rinasiga to'la mos kelmasligi sud va arbitraj amali-yotida jiddiy kolliziyalarni yuzaga keltirishini qayd etadi²⁰. Olimning ushbu xavotirli farazlariga javoban shuni ta'kidlash joizki, davlat boshqaruvi organla-ri "smart-kontraktlar"ni fuqarolik qonunchiligining yot elementi sifatida emas, balki ommaviy-huquqiy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiya qilingan ishonchli elektron bitim shakli sifatida tan olishi va transport kodekslarida ularning mutlaq yuridik ku-

chini qat'iy belgilab qo'yishi dolzarbdir.

Avtomobil transportida "e-Permit" tizimining joriy etilishi va bojxona protseduralarining raqamlashtiri-lishi shunchaki texnologik yangilanish emas, balki O'zbekiston transport sohasidagi davlat boshqaru-vining tarixiy evolyutsiyasidagi muhim voqelikdir. Bu jarayon davlatning nazorat funksiyalarini qat'iy jazo-lash va cheklashdan tahliliy boshqaruv va raqam-li xizmat ko'rsatishga yo'naltirdi, milliy transport huquqini esa global raqamli logistika makonining uzviy va raqobatbardosh qismiga aylantirdi. Kelajak-dagi davlat boshqaruvi modeli to'liq qog'ozsiz, blokli tranzaksiyalarga va transchegaraviy ma'lumotlar in-tegratsiyasiga asoslangan "aqlli huquq" tamoyillari asosida rivojlanishi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasida dav-lat boshqaruvining zamonaviy bosqichi O'zbekis-tonning tranzit salohiyatini mintaqaviy xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish hamda milliy qonunchi-likni global standartlarga moslashtirishdek strate-gik maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bir tomondan, SHHT va boshqa xavfsizlikka yo'naltirilgan geo-siyosiy tuzilmalar doirasidagi integratsiya davlat-ning geoiqtisodiy ustuvorliklarini qonuniylashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, sohaga algoritmlar, blok-cheyn texnologiyalari va elektron ruxsatnomalar al-mashish tizimlarining joriy etilishi ma'muriy bosh-qaruvni yangi raqamli xizmat ko'rsatish darajasiga olib chiqdi. Kelajakdagi davlat boshqaruvi modeli to'liq qog'ozsiz tranzaksiyalarga va milliy manfaatlarni himoya qiluvchi normalar bilan uyg'unlashgan "aqlli huquq" tamoyillariga asoslanadi.

#

19 Хабриева Т.Я., Черногор Н.Н. Право в условиях цифровой реальности. – Москва: Юридическая фирма «Контракт», 2018 г. – С.112.

20 Ефимова Л.Г. Смарт-контракты в транспортном праве // Lex Russica. – 2020 г. – Т. 73, – № 8. – С.25.





O'tkirbek DAVLETOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig'ining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SUD ISHLARINI OQILONA MUDDATDA KO'RIB CHIQISH HAMDA SUD HUJJATLARINI IJRO ETISHDA KOMPENSATSIYA INSTITUTINING HUQUQIY MOHIYATI VA AHAMIYATI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish hamda sud hujjatlarini o'z vaqtida ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya tayinlashning nazariy-huquqiy asoslari, xalqaro tajriba va milliy huquq tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Sud jarayonlarining asossiz cho'zilishi va qarorlarning ijrosiz qolishi odil sudlov samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Shuningdek, kompensatsiya institutining huquqiy tabiati va inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati yoritilib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются теоретико-правовые основы присуждения компенсации за нарушение права на рассмотрение судебных дел и исполнение судебных актов в разумный срок, а также международный опыт и его значение для национальной правовой системы. Обосновано, что необоснованное затягивание судебных процессов и неисполнение судебных решений негативно влияет на эффективность правосудия. Также исследуется правовая природа института компенсации и его роль в защите прав человека, а также разрабатываются научные предложения по устранению существующих проблем.

ABSTRACT. This article analyzes the theoretical and legal foundations of awarding compensation for the violation of the right to have court cases heard and judicial decisions enforced within a reasonable time, as well as international experience and its significance for the national legal system. It is substantiated that unjustified delays in court proceedings and non-enforcement of judicial decisions negatively affect the effectiveness of justice. The legal nature of the compensation mechanism and its role in protecting human rights are also examined, and scholarly proposals are developed to address existing problems.

Kalit so'zlar: oqilona muddat, odil sudlov, kompensatsiya, sud hujjatlarini ijro etish, sud himoyasi huquqi, inson huquqlari, huquqiy davlat, sud tizimi samaradorligi.

Ключевые слова: разумный срок, правосудие, компенсация, исполнение судебных актов, право на судебную защиту, права человека, правовое государство, эффективность судебной системы.

Key words: reasonable time, justice, compensation, enforcement of court decisions, right to judicial protection, human rights, rule of law, efficiency of the judicial system.

Zamonaviy huquqiy demokratik davlatda insonning odil sudlovga bo'lgan huquqini samarali ta'minlash sud hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sud himoyasi huquqining amalda ta'minlanishi nafaqat nizoning qonuniy va asosli hal etilishi, balki sud ishining oqilona muddatlarda ko'rib chiqilishi hamda qabul qilingan sud hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi bilan uzviy bog'liqdir. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlov samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, sud ishlarining ayrim hollarda asossiz cho'zilishi hamda sud hujjatlarining o'z vaqtida ijro etilmasligi sud himoyasi huquqining to'liq ro'yobga chiqarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish va sud hujjatlarini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya institutini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish hamda sud hujjatla-

rini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya institutining huquqiy mohiyati va ahamiyatini ochib berish, xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, ushbu institutni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga samarali joriy etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish va sud hujjatlarini ijro etish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardan iborat. Tadqiqot predmetini esa ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi milliy va xalqaro huquq normalari, xorijiy davlatlar qonunchiligi, sud amaliyoti hamda kompensatsiya institutining nazariy va amaliy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot davomida dialektik, tizimli, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, tarixiy-huquqiy, mantiqiy, statistik tahlil hamda sud amaliyotini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, qiyosiy-huquqiy metod asosida Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Rossiya qonunchiligi hamda xalqaro standartlar o'rganildi. Statistik metod yordamida fuqarolik sud



ishlarini ko'rib chiqish muddatlari va sud hujjatlari ijrosi samaradorligini tavsiflovchi ma'lumotlarni tahlil qilish nazarda tutiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish va sud hujjatlarini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya institutining huquqiy tabiati kompleks ravishda tahlil qilinib, xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida ushbu institutni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga takomillashtirilgan tarzda joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Huquq nazariyasi va xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan "kechiktirilgan adolat – adolatsizlikdir" (Justice delayed is justice denied) tamoyili mazkur masalaning dolzarbligini yaqqol ifoda etadi. Chunki, hatto qonuniy va asosli qaror ham uni qabul qilish yoki ijro etish jarayoni ortiqcha cho'zilgan taqdirda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

Yevropa davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish huquqini ta'minlash nafaqat protsessual muddatlarni belgilash, balki mazkur huquq buzilgan taqdirda samarali kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishda Germaniya, Fransiya va Ispaniya tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning huquqiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasida taklif etilayotgan kompensatsiya institutini takomillashtirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Germaniyada sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya instituti 2011-yilda qabul qilingan sud ishlarini ko'rib chiqishda ortiqcha kechikishlar bo'yicha huquqiy himoya to'g'risidagi qonun orqali joriy etilgan. Mazkur qonunga ko'ra, ishni ko'rib chiqishning asossiz cho'zilishi aniqlangan hollarda manfaatdor shaxs davlatdan kompensatsiya talab qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, sud muhokamasi davomida kechikish to'g'risida e'tiroz berish majburiy bosqich sifatida belgilangan¹.

Fransiya Respublikasida sud muhokamasining asossiz cho'zilishi davlatning odil sudlovni samarali tashkil etish majburiyatini lozim darajada bajar-maganligi sifatida baholanadi. Davlat javobgarligi fuqarolik javobgarlik tamoyillari asosida belgilanadi hamda ishning davomiyligi, nizoning murakkabligi, taraflarning xulqi va yetkazilgan zarar ino-

batga olinadi.

Ispaniyada sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish huquqi Konstitutsiya va sud hokimiyati to'g'risidagi qonunchilik bilan kafolatlangan. Sud ishining ortiqcha cho'zilishi konstitutsiyaviy huquq buzilishi sifatida baholanadi hamda shaxs davlatdan kompensatsiya talab qilish huquqiga ega.

Mazkur davlatlar tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, kompensatsiya instituti nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki sudlar va boshqa vakolatli organlarni ishlarni oqilona muddatlarda ko'rib chiqishga rag'batlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois O'zbekistonda mazkur institutni joriy etishda ushbu davlatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish hamda sud hujjatlarini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya tayinlash institutining samaradorligi ko'p jihatdan kompensatsiya miqdorini belgilash mezonlarining aniq va shaffof tartibga solinganligiga bog'liq. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompensatsiya miqdori har bir ishning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda individual ravishda belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida mazkur institutni joriy etishda kompensatsiya miqdorini belgilashning yagona mezonlarini qonunchilik darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Bunda sud muhokamasining davomiyligi, ishning murakkabligi, taraflarning protsessual xulqi, tashkiliy kamchiliklar hamda yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar asosiy mezonlar sifatida e'tirof etilishi lozim.

Shuningdek, kompensatsiya miqdorini belgilashda yagona tavsiyaviy metodikani ishlab chiqish sud amaliyotining bir xilda shakllanishini ta'minlaydi va fuqarolarning sud qarorlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Kompensatsiya institutining samarali faoliyat yuritishi uni moliyalashtirishning barqaror mexanizmlarini yaratishni ham taqozo etadi. Xorijiy davlatlar tajribasida kompensatsiya to'lovlari avvalo, davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bizningcha, davlat budjetiga ortiqcha yuk tushishining oldini olish maqsadida regress mexanizmini takomillashtirish zarur. Agar kechikish mansabdor shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan bo'lsa, davlat tomonidan to'langan kompensatsiya regress tartibida aybdor shaxslardan undirilishi lozim.

Shu bilan birga, kompensatsiya institutining mo-

1 Althammer C., Schauble D. Effektiver Rechtsschutz bei uberlanger Verfahrensdauer – Das neue Gesetz aus zivilrechtlicher Perspektive.// NJW.2012.Heft 1/2. S/1-7.



liyaviy barqarorligini ta'minlash uchun davlat budjetida alohida budjet dasturi yoki zaxira jamg'armasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Oqilona muddat huquqi sud himoyasi huquqining tarkibiy qismi hisoblanadi. Sudga murojaat qilish imkoniyatining o'zi shaxs huquqlarini to'liq ta'minlab bermaydi.

Sud hujjatining ijro etilmasligi yoki kechiktirilishi nafaqat protsessual muammo, balki konstitutsiyaviy huquqlarning buzilishi ham hisoblanadi. Sud qarori ijro etilmagan taqdirda sud himoyasi huquqi formal xarakter kasb etadi.

Shu bois huquqiy davlatlarda sud ishlarini asossiz kechiktirish davlatning huquqiy majburiyatlarini bajarmasligi sifatida baholanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston sudlar faoliyatida ko'rilgan ishlar soni haqida quyidagi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Biroq, kechikayotgan yoki kechiktirilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar uchramaydi. Bu esa fuqarolik sud ishlarining yillab davom etishiga xizmat qilishi mumkin.

Fikrimizcha, kechiktirilayot fuqarolik sud ishlarini (bir yil, uch yil, besh yil va h.k.) tizimli tahlil asosida monitoring qilib borish, ochiq manbalarda e'lon qilish amaliyotini joriy etish lozim.

Oqilona muddat kategoriyasi xalqaro va milliy huquqshunoslikda keng tadqiq qilingan masalalar-

dan biri hisoblanadi.

Masalaga oid nazariy yondashuvlar xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Xususan, M.Kappelletti² – sudga murojaat qilish huquqi va odil sudlov samaradorligi masalalarini; S.Treksel³ va L.Vildxaber⁴ – Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 6-moddasi doirasida ishlarni oqilona muddatda ko'rish standartlarini tahlil qilganlar. Kompensatsiya institutining nazariy va amaliy jihatlarini esa V.M.Juykov⁵, T.G.Morshchakova⁶, V.V.Yarkov va Y.A. Tixomirovning⁷ ishlarida chuqur tadqiq etilgan.

O'zbekistonda sud himoyasi huquqi, sud qarorlarini ijro etish va protsessual muddatlar masalalari bo'yicha ilmiy ishlar mavjud bo'lsa-da, oqilona muddat buzilganligi uchun kompensatsiya instituti alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Sud ishlarini oqilona muddatda ko'rish huquqi xalqaro inson huquqlari tizimida muhim o'rin egallaydi. Mazkur huquq birinchi navbatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda har bir shaxsning huquq va majburiyatlarini belgilashda mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli ko'rib chiqilish huquqi e'tirof etilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasida har bir shaxsning ishi vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona

	Ko'rilgan fuqarolik ishlari soni (sud buyruqlari inobatga olinmagan)					
	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Jami ko'rilgan ishlar soni	194 598	351 300	562 304	460 308	533 019	649 601
Fuqarolik-huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlar	61 570	190 962	315 888	181 942	202 221	224 817
Uy-joy munosabatlari bilan bog'liq ishlar	8 085	20 913	19 915	18 021	21 043	26 960
Oila munosabatlari bilan bog'liq ishlar	67 775	99 695	112 985	115 616	119 649	134 229
Mehnat munosabatlari bilan bog'liq ishlar	5 413	7 385	11 113	13 746	13 120	14 343

2 Cappelletti M. Access to Justice. Vol. 1. A World Survey. – Alphen aan den Rijn: Sijthoff and Noordhoff, 1978. – P. 8–12.

3 Trechsel S. Human Rights in Criminal Proceedings. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – P. 134–150.

4 Wildhaber L. The European Court of Human Rights and the Right to a Fair Trial // European Public Law. – 2002. – Vol. 8. – No. 3. – P. 297–302.

5 Жуйков В.М. Компенсация за нарушение права на судопроизводство в разумный срок и права на исполнение судебного акта в разумный срок. – М.: Норма, 2011 г. – С. 15–28.

6 Морщакова Т.Г. Право на судебную защиту и разумный срок судопроизводства // Сравнительное конституционное обозрение. – 2010 г. – № 5. – С. 45–57.

7 Янков В.В., Тихомиров Ю.А. Проблемы обеспечения права на судопроизводство в разумный срок // Российский юридический журнал. – 2012 г. – № 4. – С. 12–24.



muddatlarda ko'rib chiqilishi lozimligi belgilangan. Ushbu norma davlatlar zimmasiga faqat sudlarga murojaat qilish imkoniyatini yaratish emas, balki ishlarni ortiqcha kechiktirmasdan hal qilish majburiyatini ham yuklaydi.

Xalqaro huquq nazariyasida sud ishlarining cho'ziliishi inson huquqlarining buzilishi sifatida baholanadi. Chunki, bunday holatlarda shaxsning mulkiy, mehnat, tadbirkorlik yoki oilaviy huquqlarini amalga oshirish imkoniyati cheklanishi mumkin.

Odil sudlov huquqi insonning fundamental huquqlaridan biri hisoblanadi.

U faqat sudga murojaat qilish huquqini emas, balki ishning mustaqil va xolis sud tomonidan asossiz kechiktirmasdan ko'rib chiqilishini ham o'z ichiga oladi. Zero, huquqni himoya qilishning kechikishi aksariyat hollarda mazkur huquqning amalda inkor qilinishiga olib keladi.

Oqilona muddat tushunchasi muayyan kalendar muddatni emas, balki har bir ishning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholanadigan huquqiy kategoriyani anglatadi.

Oqilona muddat institutining shakllanishida Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti muhim ahamiyatga ega⁸. Sud o'z qarorlarida oqilona muddatni baholash uchun quyidagi asosiy mezonlarni qo'llaydi:

- ishning huquqiy va faktik murakkabligi;
- ishtirokchilar soni;
- tarflarning protsessual xulqi;
- sud tomonidan ko'rilgan tashkiliy choralar;
- nizoning shaxs uchun ahamiyati.

Shu o'rinda sudyaning ish yuklamasi yoki sud apparatidagi tashkiliy muammolar kechikishni oqlovchi mustaqil asos sifatida tan olinmasligi kerak. Chunki, davlat organlarining ichki, tashkiliy muammolari fuqarolar huquqlarini cheklash uchun asos bo'la olmaydi.

"Kudła v. Poland" sud ishida Yevropa inson huquqlari sudi davlatlar zimmasiga faqatgina sud ishlarini oqilona muddatda ko'rib chiqish majburiyatini emas, balki mazkur huquq buzilgan hollarda shaxslarga samarali milliy huquqiy himoya vositalarini taqdim etish majburiyatini ham yuklagan. Ushbu huquqiy pozitsiya keyinchalik Yevropa davlatlarida sud muhokamasi va sud qarorlarini ijro etishning asossiz cho'zilishi uchun kompensatsiya tayinlash mexanizmlarini joriy etishning muhim huquqiy asosiga aylangan.

Zero, sud qarorlarining ijro etilmasligi yoki asossiz kechiktirilishi quyidagi salbiy oqibatlariga olib

kelishi mumkin:

mulkiy huquqlarni amalga oshirish imkoniyati cheklanishi;

kreditorning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazilishi;

davlat organlariga nisbatan ishonchning pasayishi;

investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi;

sud qarorlarining ta'sirchanligini susaytirishi.

Shu sababli sud qarorining amalda ijro etilishi odil sudlovning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kompensatsiya institutining huquqiy mohiyati huquq buzilishining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Uning asosiy maqsadi aybdor shaxsni jazolash emas, balki huquq buzilgan shaxs manfaatlarini tiklashdan iborat.

Huquq nazariyasida kompensatsiyaning quyidagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi⁹:

restitutsion funksiya;

profilaktik funksiya;

rag'batlantiruvchi funksiya;

kafolatlovchi funksiya.

Restitutsion bu buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan bo'lsa, profilaktik funksiya esa davlat organlarini kelgusida bunday huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikka undaydi.

Shu nuqtayi nazardan kompensatsiya instituti faqat individual huquqiy himoya vositasi emas, balki davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda nizo sudda hal qilingan bo'lishiga qaramasdan, ijro bosqichidagi muammolar tufayli fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o'z huquqlarini amalda ro'yobga chiqara olmaydilar.

Taklif etilayotgan kompensatsiya instituti esa bir tomondan huquq buzilgan shaxs manfaatlarini tiklasa, ikkinchi tomondan sudlar va ijro organlarini o'z faoliyatini samarali tashkil etishga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, tizimli muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatini ham yaratadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sud ishlarining asossiz cho'zilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashning maxsus mexanizmlari shakllantirilgan. Jumladan, Italiyada 2001-yilda qabul qilingan "Pinto" qonuni (Law No. 89 of 24 March 2001) sud muhokamasining oqilona muddat talabini buzish holatlarida shaxslarga davlat hisobidan adolatli kompensatsiya (equa riparazione) olish huquqini berdi.

8 European Court of Human Rights. Kudła v. Poland, Application No. 30210/96, Judgment of 26 October 2000, §§ 124–160.

9 European Court of Human Rights. Kudła v. Poland, Application No. 30210/96, Judgment of 26 October 2000, §§ 152–160.



Mazkur qonun Yevropa inson huquqlari sudining oqilona muddat masalasiga oid amaliyoti ta'sirida qabul qilinib, keyinchalik boshqa davlatlarda ham o'xshash kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish uchun namuna vazifasini o'tagan¹⁰.

Ushbu qonunga muvofiq, sud muhokamasining ortiqcha davom etishi fuqaroga yetkazilgan ma'naviy zarar sifatida baholanadi.

Rossiya Federatsiyasida 2010-yilda qabul qilingan maxsus federal qonun sud ishlarini oqilona muddatda ko'rish va sud qarorlarini ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya to'lash tartibini belgilagan¹¹. Ushbu qonunda kompensatsiyani belgilash mezonlari, vakolatli sudlar hamda ishlarni ko'rib chiqishning protsessual qoidalari aniq tartibga solingan.

Mazkur qonunning yana bir muhim jihati "ish yuritishni tezlashtirish to'g'risida"gi ariza institutining joriy etilishidir. Ushbu mexanizmning ahamiyati shundaki, u huquq buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik vosita hisoblanadi. Ya'ni davlat faqat zararni qoplash bilan cheklanmay, kechikishni bartaraf etish choralari ham ko'radi.

Shu bilan birga, sud raisi vakolatlarining tashkiliy masalalar bilan cheklanganligi sudya mustaqilligi prinsipini saqlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar mazkur institut quyidagi ijobiy natijalar-ga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi:

insonning sud himoyasi huquqini kengaytirish;
sud va ijro organlari faoliyati intizomini kuchaytirish;

davlat organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchini oshirish;

milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish;

sud-huquq islohotlarining samaradorligini oshirish.

Albatta, mazkur institutni amalga oshirish jara-yonida quyidagi bir qator huquqiy muammolar yu-

zaga kelishi mumkin:

birinchidan, "oqilona muddat" tushunchasining baholovchi kategoriya ekanligi turlicha sud amaliyoti shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, kompensatsiya miqdorini belgilash bo'yicha yagona yondashuvning mavjud emasligi turli qarorlar o'rtasida tafovutlarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas;

uchinchidan, davlat budjetiga qo'shimcha moliyaviy yuklama tushishi mumkin;

to'rtinchidan, ayrim ishtirokchilar tomonidan protsessual huquqlardan foydalanishda suiiste'mol qilish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shularni hisobga olgan holda mazkur institutni qabul qilishda quyidagilar taklif etiladi:

1) davlat tomonidan to'langan kompensatsiya regress tartibida aybdor shaxslardan undirilishi tartibini joriy etish;

2) kompensatsiya institutining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun davlat budjetida alohida budjet dasturi yoki zaxira jamg'armasini shakllantirish;

3) Oliy sud Plenumining tegishli qarorini qabul qilish orqali yagona sud amaliyotini shakllantirish;

4) sud qarorlari ijrosini baholash bo'yicha maxsus indikatorlarni ishlab chiqish;

5) sud va ijro organlari faoliyati samaradorligini baholashda oqilona muddat ko'rsatkichlarini alohida mezon sifatida belgilash;

6) "Sud ishlarini oqilona muddatda ko'rish va sud hujjatlarini oqilona muddatda ijro etish huquqi buzilganligi uchun kompensatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilish.

Xulosa qilib aytganda, sud ishlarini oqilona muddatda ko'rish va sud hujjatlarini o'z vaqtida ijro etish huquqi zamonaviy huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Ushbu huquqlarning samarali ta'minlanishi insonning odil sudlovga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini to'liq ro'yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi.

#

10 Legge 24 marzo 2001, n. 89. Previsione di equa riparazione in caso di violazione del termine ragionevole del processo (c.d. Legge Pinto). Gazzetta Ufficiale della Repubblica Italiana, n. 78, 3 aprile 2001.

11 Федеральный закон Российской Федерации от 30 апреля 2010 г. № 68-ФЗ «О компенсации за нарушение права на судопроизводство в разумный срок или права на исполнение судебного акта в разумный срок». Российская газета, 2010 г. № 94, 5 мая 2010 г.



Gulmira TAIROVA,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada prokuratura xodimlari malakasini oshirish tizimining nazariy-huquqiy va amaliy asoslari tahlil qilingan. O'zbekistonda amaldagi xodimlar malakasini oshirish tizimining muammolarini aniqlash hamda xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy o'rganish orqali ushbu tizimni takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan. Xususan, uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli mazmuni ochib berilgan holda, prokuratura xodimlari malakasini oshirishning zamonaviy qisqa muddatli, ko'p subyekтли va kompetensiyaga yo'naltirilgan modeli taklif etilgan. Tadqiqot doirasida qiyosiy-huquqiy, institutsional, funksional va formal-yuridik tahlil usullaridan foydalanilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье проанализированы теоретико-правовые и практические основы системы повышения квалификации работников прокуратуры. На основе выявления проблем действующей системы повышения квалификации сотрудников в Узбекистане и сравнительного изучения зарубежного опыта выдвинуты предложения по совершенствованию данной системы. В частности, раскрыто содержание модели непрерывного профессионального развития, а также предложена современная краткосрочная, много субъектная и компетентно-ориентированная модель повышения квалификации работников прокуратуры. В рамках исследования использовались сравнительно-правовой, институциональный, функциональный и формально-юридический методы анализа.

ABSTRACT. The article analyzes the theoretical, legal, and practical foundations of the professional development system for prosecutorial personnel. Based on the identification of problems within the current professional training system in Uzbekistan and a comparative study of foreign experience, proposals aimed at improving this system are developed. In particular, the article reveals the essence of the continuous professional development model, while proposing a modern short-term, multi-actor, and competency-oriented model for the professional development of prosecutorial personnel. The study utilized comparative legal, institutional, functional, and formal legal methods of analysis.

Kalit so'zlar: prokuratura, malaka oshirish, uzluksiz ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, qiyosiy tahlil, kasbiy rivojlanish.

Ключевые слова: прокуратура, повышение квалификации, непрерывное образование, компетентностный подход, сравнительный анализ, профессиональное развитие.

Key words: prosecutor's office, professional development, continuous education, competency-based approach, comparative analysis, professional development.

Hozirgi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati mazmun jihatdan tubdan o'zgarmoqda. Jinoyatchilikning transmilliy tus olishi, kiberjinoyatlar ulushining keskin oshishi hamda moliyaviy jinoyatlarning murakkablashuvi prokuratura organlari faoliyatiga nisbatan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab etmoqda.

Xalqaro huquqiy amaliyotda prokurorlarning kasbiy rivojlanishiga huquqiy davlat barpo etishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Jumladan, Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi standartlarida prokurorlar o'z bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishi lozimligi qayd etiladi¹.

Shu bilan birga, tadqiqotlar davlat xizmatchilari kasbiy ko'nikmalar uzluksiz ta'lim orqali shakllantirilmagan taqdirda professional layoqat darajasi

pasayish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi². Bu holat o'z navbatida, malaka oshirish tizimini davriy emas, balki uzluksiz shaklda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5438-sonli farmonida³ prokuratura organlari xodimlari qonunchilikdagi yangiliklar mazmun-mohiyatini anglash, kasbiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, prokuror-tergov ishining ilg'or yutuqlarini o'rganish, shuningdek, faoliyatdagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan davomiyligi 144 soatdan kam bo'lmagan malaka oshirish kurslarida o'qishi lozimligi hamda malakasini oshirishning davriyligi har uch yilda kamida bir martani tashkil

1 International Association of Prosecutors, *Standards of Professional Responsibility and Statement of the Essential Duties and Rights of Prosecutors*, International Association of Prosecutors, The Hague, 2019, available at: [https://www.iap-association.org/getattachment/Resources-Dokumentation/IAP-Standards-\(1\)/IAP-Standards_Oct14_2019.pdf.aspx](https://www.iap-association.org/getattachment/Resources-Dokumentation/IAP-Standards-(1)/IAP-Standards_Oct14_2019.pdf.aspx) (murojaat vaqti: 12.05.2026-y).

2 World Bank, *Government Analytics and Public Sector Performance*, Washington D.C.: World Bank, 2021, available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/governance> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y).

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-maydagi "Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5438-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/3727319> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y).



etishi belgilab berilgan.

Prokurorlar zimmasida o'z kasbiy mahorati va malakasini oshirib borish majburiyati mavjudligi Bosh prokurorning kadrlar faoliyatini tashkil etishga doir qator buyruqlarida ham o'z ifodasini topgan.

Shunga ko'ra, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan prokuratura xodimlari malakasini oshirishga doir o'quv reja va o'quv dasturlari shakllantirib, har uch yilda bir marta davomiyligi 144 soatdan iborat bo'lgan majburiy malaka oshirish kurslari tashkil etib kelinmoqda. Mazkur malaka oshirish kurslarining formati o'ziga xos bo'lib, u "Blended learning" – masofaviy va an'anaviy ta'lim shaklining aralash ko'rinishi, xususan, 108 soatni tashkil qiladigan to'qqiz hafta masofaviy hamda 36 soatni o'z ichiga olgan bir hafta yuzma-yuz an'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'z ichiga olmoqda.

Malaka oshirish kursi yakunlari bo'yicha tinglovchilar faoliyatdagi tizimli muammolar tahlili va yechimiga qaratilgan "laboratoriya ishi"ni topshirib, malaka oshirganlik haqida sertifikatni qo'lga kiritmoqdalar.

Ta'kidlash lozimki, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o'zining o'quv portali orqali prokurorlar uchun elektiv, ya'ni nomajburiy xarakterga ega bo'lgan qisqa muddatli – 18-36 soatlik masofaviy o'quv kurslarini ham tashkil etib kelmoqda. Ushbu qisqa muddatli masofaviy kurslarda tahsil olayotgan xodimlar soni yildan-yilga oshib borishi kuzatilmoqda.

AQSHda prokurorlar malakasini oshirish tizimi Uzluksiz yuridik ta'lim (Continuing Legal Education – CLE) konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, u huquq sohasidagi barcha mutaxassislar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. CLE tizimi federal darajada emas, balki shtatlar kesimida tartibga solinadi, bu esa uning nomarkazlashganlik va moslashuvchan xarakterini belgilaydi⁴.

Har bir shtat o'z mustaqil CLE talablariga ega bo'lib, prokurorlar har yili 12-18 soat malaka oshirishlari majburiy hisoblanadi. Mashg'ulotlar muayyan sohada yuqori tajribaga ega bo'lgan xodimlarni trener sifatida jalb qilgan holda real ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan tor mavzularda (raqamli dalillar

bilan ishlash, moliyaviy jinoyatlar bo'yicha protsessual faoliyat, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash kabi) masofaviy onlayn yoki yuzma-yuz formatlarda tashkil etiladi. Barcha prokurorlar har yili CLE ballarini (kreditlarni) to'playdi, minimal talablarni bajarib o'z litsenziyasini saqlab qolishi mumkin bo'ladi.

Buyuk Britaniyada prokurorlar malakasini oshirish tizimi Uzluksiz kasbiy rivojlanish (Continuous Professional Development – CPD) yondashuviga asoslangan bo'lib, u kompetensiyaga yo'naltirilgan va natijaga asoslangan ta'lim tizimi hisoblanadi⁵. CPDda asosiy e'tibor bilimiga emas, balki ko'nikmalarni qo'llash natijasiga (performance) qaratilib, xodimning qaror qabul qilish qobiliyati, ish sifati va professional o'sishi baholanadi.

E'tiborli jihati, har bir prokuror o'zining professional rivojlanish rejasini (Personal Development Plan) tuzadi va qaysi ko'nikmalarni rivojlantirishini belgilaydi. Ushbu malakaviy talabdan kelib chiqib, xodim yillik 20-30 soat majburiy kurslarda o'qiydi. CPD trening va ish faoliyati birlashgan, ya'ni "learning by doing" modeli ekanligi bilan ahamiyatli hisoblandi⁶.

Germaniyada prokurorlar malakasini oshirish tizimi sudyalalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilgan bo'lib, asosiy institutsional baza sifatida Germaniya Sudlov akademiyasi (Deutsche Richterrakademie) faoliyat yuritadi. Germaniyada malaka oshirish kurslari amaliyotga yo'naltirilib, asosan yuzma-yuz formatda intensiv seminar va "workshop" (keys tahlili, sud jarayoni simulyatsiyasi, guruhli muhokamalar) ko'rinishlarda tashkil etiladi. Treninglar asosan jinoyat huquqi, jinoyat-prosessual huquqi, Yevropa Ittifoqi huquqi, inson huquqlari muhofazasi, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishlarida o'tkaziladi.

Germaniyada prokurorlar malaka oshirishi majburiy emas, biroq professional standart sifatida kuchli rag'batlantiriladi, yuqori kasbiy madaniyatga asoslanadi va tashqi nazoratdan ko'ra ichki motivatsiyaga tayanadi⁷. Malaka oshirish kurslari tinglovchilarini baholash – kursdagi ishtirok va amaliy faollikka tayanadi.

Fransiyada prokurorlar malakasini oshirish tizimi markazlashgan holda Milliy sudyalalar va prokurorlar

4 American Bar Association, *Continuing Legal Education (CLE) Requirements*, American Bar Association, Chicago, 2022, available at: <https://www.americanbar.org/groups/cle/> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

5 Crown Prosecution Service, *Continuous Professional Development Framework*, Crown Prosecution Service, London, 2021, available at: <https://www.cps.gov.uk> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

6 Academy of European Law (ERA), *Judicial Training Methods and Practice-Oriented Learning in Europe*, Trier: ERA, 2020, available at: <https://www.era.int> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

7 Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), *Skills for a High Performing Civil Service*, Paris: OECD Publishing, 2019, available at: <https://www.oecd.org/gov/pem/skills-for-a-high-performing-civil-service.htm> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)



maktabi (École Nationale de la Magistrature – ENM) orqali amalga oshiriladi. Garchi, Fransiyada prokurorlar muntazam malaka oshirishi lozim va ushbu tizim davlat tomonidan qat'iy tartibga solingan bo'lsa-da, undagi ta'lim mazmuni zamonaviy va moslashuvchan hisoblanadi⁸.

Malaka oshirish onlayn (nazariy bilim, qonunchilik yangiliklari) va oflayn (sud jarayoni simulyatsiyasi, keys tahlili, amaliy treninglar) formatlarning kombinatsiyasida amalga oshiriladi.

ENM dasturlari kompetensiyaviy yondashuvga tayanib, sud muhokamasidagi rollar, dalillarni baholash, professional etika kabi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Kurs yakunida tinglovchilar test, keys tahlili va amaliy topshiriqlar orqali baholanadi va sertifikat oladi.

Italiyada prokurorlar malakasini oshirish tizimi sudyalalar bilan integratsiyalashgan bo'lib, asosiy institut – Italiya Oliy magistratura maktabi (Scuola Superiore della Magistratura – SSM) sanaladi. Malaka oshirish yuzma-yuz formatda 2-5 kunlik intensiv treninglar (seminar, keys tahlili, sud simulyatsiyasi) shaklida uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, xalqaro hamkorlik kabi mavzularda o'tkazilib, amaliyotga yo'nalganlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xodimlar malaka oshirishi qat'iy majburiyat sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, amalda kasbiy standart sifatida qabul qilinadi va malaka oshirmaganlik xizmat pog'onalarida o'sishga salbiy ta'sir qiladi. Kurs natijalari formal testlar bilan emas, ishtirok va amaliy faollik asosida baholanadi⁹.

Xitoyda prokurorlar malakasini oshirish davlat nazoratida bo'lib, markazlashgan tizim (Xitoy Xalq Oliy prokuraturasi) tomonidan tashkillashtiriladi. Kurslarda siyosiy-huquqiy komponent kuchli bo'lib, nafaqat qonunchilik va huquq, balki korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat xavfsizligi masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Xitoyda prokurorlar malaka oshirishi davlat siyosati darajasida majburiy xarakterga ega. Kurslar markazlashgan reja asosida aniq o'quv soatlariga muvofiq masofaviy va yuzma-yuz formatlarda o'tkaziladi. Kurs natijalari qat'iy baholanadi. Malaka oshirmaslik intizomiy choralarga olib kelishi mumkinligi

kuzatiladi¹⁰.

Rossiya Federatsiyasida prokuratura xodimlarining malaka oshirish jarayoni an'anaviy markazlashgan "postsovet" modeliga xos bo'lib, Bosh prokuraturasida huzuridagi universitet tomonidan amalga oshiriladi. U yerda prokurorlar har uch yilda kamida bir marta 72-144 soat hajmidagi malaka oshirish kurslaridan o'tishi shart. Ta'lim jarayoni asosan yuzma-yuz va qisman masofaviy formatlarda o'tkaziladi.

Malaka oshirish natijalari test yoki yakuniy imtihon orqali baholanadi hamda kursni muvaffaqiyatli yakunlagan xodimlarga sertifikat beriladi. Ilmiy nuqtayi nazardan mazkur tizim formal markazlashgan model (formal centralized model) sifatida baholanadi, chunki u yuqori darajadagi institutsional markazlashuv, majburiylik va formal baholash mexanizmlari bilan tavsiflanadi¹¹.

Qozog'iston Respublikasida prokurorlarning malaka oshirish tizimi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati professionallashtirishga qaratilgan institutsional model asosida tashkil etilib, uning asosiy provayderi sifatida Bosh prokuratura huzuridagi Huquqni muhofaza qiluvchi organlar akademiyasi faoliyat yuritadi. Malaka oshirish kurslari davriy xarakterga ega bo'lib, prokuratura xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini yangilash, zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurash usullarini o'zlashtirish hamda qonunchilikdagi yangiliklarga moslashtirishga qaratilgan. Akademiya tomonidan qisqa va o'rta muddatli o'quv dasturlariga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish, kiberjinoyatchilik, moliyaviy tergov, inson huquqlari va raqamli texnologiyalar kabi zamonaviy mavzulardagi o'quv mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim jarayoni yuzma-yuz qisqa muddatli yoki ikki haftalik masofaviy (onlayn) formatlarda tashkil etilib, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va keys tahlili usullaridan foydalaniladi. Malaka oshirish natijalari yakuniy baholanib, kursni muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga sertifikat beriladi¹².

Janubiy Koreyada prokuror va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari malakasini oshirish tizimi yuqori texnologiyalashgan va ixtisoslashti-

8 École Nationale de la Magistrature, *Formation Continue des Magistrats*, Bordeaux: ENM, 2021, available at: <https://www.enm.justice.fr> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

9 Scuola Superiore della Magistratura, *Formazione Permanente dei Magistrati*, Rome: SSM, available at: <https://www.scuolamagistratura.it> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

10 Supreme People's Procuratorate of the People's Republic of China, *National Prosecutors Training System*, Beijing, available at: <http://www.spp.gov.cn> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

11 Университет прокуратуры Российской Федерации, *Дополнительное профессиональное образование прокурорских работников*, Москва, available at: <https://genproc.gov.ru> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

12 Academy of Law Enforcement Agencies under the Prosecutor General's Office of the Republic of Kazakhstan, *Advanced Training Programs*, Astana, available at: <https://academy-gp.kz> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)



rilgan model asosida tashkil etilib, uning markaziy elementi Huquqiy tadqiqot va ta'lim instituti (Legal Research and Training Institute – LRTI) hisoblanadi. Koreya modelida asosiy e'tibor formal davriy malaka oshirishdan ko'ra, zamonaviy jinoyatchilik turlari bo'yicha maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi. Xususan, kiberjinoyatchilik, raqamli dalillar, moliyaviy jinoyatlar, raqamli tergov texnologiyalari va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanganligi kuzatiladi. Ta'lim jarayonida simulyatsiya (simulation-based learning), keys tahlili (case-study) va raqamli kriminalistik tayyorgarlik (digital forensic training) kabi amaliy-innovatsion metodlar keng qo'llaniladi¹³.

Yaponiyada prokuror va sud-huquq sohasi xodimlarining malakasini oshirish ishlari Huquqiy tayyorgarlik va tadqiqot instituti (Legal Training and Research Institute – LTRI) tomonidan tashkil etilib, u an'anaviy institutsional va amaliy-mentorlik modeliga tayanadi. "Postsovet" tizimlaridan farqli ravishda, Yaponiyada formal davriy malaka oshirish, test yoki majburiy sertifikatsiyadan ko'ra prokurorlarning kasbiy madaniyati, amaliy tajribasi va xizmat intizomini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Malaka oshirish asosan yuzma-yuz formatda o'tkazilib, amaliy keyslar tahlili, sud jarayonlari modellastirishi va yuridik yozish ko'nikmalariga yo'naltiriladi.

Yaponiya modelining o'ziga xos jihati, prokurorlarning kasbiy rivojlanishi ko'proq tajribali mutaxassislar rahbarligidagi amaliy mentorlik va xizmat jarayonidagi o'qitish orqali shakllantiriladi. Shu sababli mazkur tizim ilmiy adabiyotlarda amaliyotga yo'naltirilgan mentorlik modeli (practice-oriented mentorship model) sifatida baholanadi. Bu model yuqori darajadagi institutsional ishonch, kasbiy etika va doimiy amaliy rivojlanishga asoslanganligi bilan boshqa markazlashgan va formal baholash ustun bo'lgan tizimlardan farq qiladi¹⁴.

Qiyosiy tahlil prokurorlarning malakasini oshirish sohasida uchta ustuvor tendensiya shakllanganligini ko'rsatadi. Birinchidan, aksariyat davlatlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyasi asosida qisqa muddatli, ammo muntazam ta'lim modeli qo'llanilmoqda. Ikkinchidan, zamonaviy tizimlarda nazariy bilimdan ko'ra amaliy kompetensiyalar va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Uchin-

chidan, malaka oshirish jarayonida amaliyotga yo'naltirilgan treninglar va ko'p subyektli ta'lim modellari-ning roli tobora ortib bormoqda. Bu esa O'zbekistonda prokuratura xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilishda uzluksiz, kompetensiyaviy va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash lozimki, xalqaro amaliyot prokurorlarning kasbiy rivojlanishi sohasida bir nechta ustuvor yondashuvlar shakllanganligini ko'rsatadi. Ular qatoriga CLE (uzluksiz yuridik ta'lim) modeli, CPD (uzluksiz kasbiy rivojlanish) yondashuvi hamda markazlashgan institutsional malaka oshirish tizimlari kiradi. Xususan, AQSHda CLE modeli amal qiladi va unda prokurorlar hamda huquqshunoslar uchun yillik kredit-soat tizimi joriy etilgan. Mazkur tizim doirasida xodimlar muayyan miqdordagi ta'lim soatlarini to'plashi shart bo'lib, o'quv jarayoni onlayn kurslar, vebinarlar va oflayn seminarlar orqali amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyada esa CPD yondashuvi qo'llaniladi. Ushbu yondashuv prokurorlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, asosiy e'tibor formal o'quv soatlaridan ko'ra kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi. Yevropa davlatlarining aksariyatida esa institutsional tizim ustun bo'lib, malaka oshirish maxsus davlat akademiyalari va sudya-prokurorlar maktablari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda yuzma-yuz ta'lim ustuvor hisoblansa-da, ayrim davlatlarda masofaviy modullar ham qo'llaniladi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli – zamonaviy huquqiy ta'lim tizimining asosiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. U mutaxassislarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz ravishda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, an'anaviy malaka oshirish tizimlaridan tubdan farq qiladi.

Ushbu model mutaxassislarning kompetensiyalarini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz va rejalashtirilgan kasbiy ta'lim jarayonini o'zida aks ettirib¹⁵, unda asosiy e'tibor bilimni o'rgatish emas, balki uni amaliyotda qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi. Shu jihatdan u kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi.

1. Uzluksizlik (Continuity) – ta'lim uch yilda bir martalik emas, balki har yili amalga oshiriladigan

13 Legal Research and Training Institute of the Republic of Korea, *Professional Legal Training Programs*, Seoul, available at: <https://www.lawtraining.go.kr> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

14 Legal Training and Research Institute of Japan, *Professional Training System for Legal Professionals*, Tokyo, available at: <https://www.courts.go.jp/english/institute/index.html> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)

15 Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), *Skills for a High Performing Civil Service*, OECD Publishing, Paris, 2019, available at: <https://www.oecd.org/gov/pem/skills-for-a-high-performing-civil-service.htm> (murojaat vaqti: 12.05.2026-y.)



doimiy jarayon sifatida tashkil etiladi.

2. Kompetensiyaga asoslanganlik (Competency-based) – baholash nazariy bilimlar emas, amaliy ko'nikmalar asosida amalga oshiriladi.

3. Individuallashtirish (Individualisation) – har bir mutaxassis o'z rivojlanish yo'nalishini belgilaydi.

4. Amaliyotga yo'naltirilganlik (Practice-oriented) – keys tahlili, simulyatsiyalar, real holatlar asosiy o'rin tutadi.

5. Ko'p subyektlilik (Multi-provider system) – ta'lim bir nechta muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur tadqiqot prokuratura organlari xodimlari malakasini oshirish tizimini kompleks, qiyosiy va institutsional tahlil qilish orqali o'rganishga bag'ishlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda amaldagi malaka oshirish tizimi muayyan institutsional asoslarga ega bo'lsa-da, uning mazmuni va metodologik jihatlari zamonaviy xalqaro standartlar talablariga moslashtirishni taqozo qiladi.

Xususan, 3 yilda bir marta amalga oshiriladigan 144 soatlik malaka oshirish modeli uzluksiz ta'lim prinsipiga zid bo'lib, bilim va ko'nikmalarning tez eskirishiga olib keladi. Huquqiy munosabatlarning shiddatli rivojlanishi sharoitida bunday davriylik prokurorlarning kasbiy samaradorligini ta'minlash uchun yetarli deb bo'lmaydi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqa rivojlangan davlatlarda prokurorlar malakasini oshirish tizimi uzluksiz, kompetensiyaga asoslangan va ko'p subyekтли ta'lim modeliga tayanadi. Ushbu tizimlarda ta'lim jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, keys tahlili, simulyatsiya va real vaziyat tahlili asosiy o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston uchun

zamonaviy model sifatida "uzluksiz kasbiy rivojlantirish modeli" taklif etildi. Ushbu model quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, malaka oshirish tizimi uzluksiz ta'lim tamoyili asosida tashkil etilib, har yili o'rtacha 30-40 soatlik (3-5 kunlik) kasbiy ta'lim joriy etilishi;

ikkinchidan, ta'lim mazmunan prokuror faoliyati uchun muhim bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilishi;

uchinchidan, ta'lim jarayoni amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay formatda yuzma-yuz yoki onlayn treninglar shaklida amalga oshirilishi;

to'rtinchidan, ta'lim tizimining diversifikatsiya qilinishi va unga qator akademiyalar, ilmiy markazlar hamda xalqaro tashkilotlarning keng jalb etilishi;

beshtinchidan, tajribali amaliyotchi xodimlar mashg'ulotlarga trener sifatida birlashtirilishi va ularning tajriba almashuvi rag'batlantirib borilishi;

oltinchidan, baholash tizimi takomillashtirilishi hamda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish va kelgusi faoliyatida qo'llay olishiga urg'u berilishi;

yettinchidan, prokurorlarning malakasini oshirish tizimida majburiy kurslar bilan bir qatorda elektiv masofaviy ta'lim dasturlari natijalarini ham rasmiy hisobga olish mexanizmlarini joriy etish.

Taklif etilgan modelning joriy etilishi prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish, inson huquqlarini himoya qilish darajasini kuchaytirish va milliy huquqiy tizimni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Prokuratura xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish nafaqat sohaviy, balki strategik ahamiyatga ega vazifa bo'lib, uni amalga oshirish ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvni talab etadi.





Akmaljon ABDULLAYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baxodir AXMEDOV,
Ichki ishlar vazirligi akademiyasi katta o'qituvchisi

YARASHUV INSTITUTINING QADIMGI MANBALARI VA IBTIDOIY SHAKLLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada yarashuv institutining qadimgi manbalari va ibtidoiy shakllari tarixiy-huquqiy tahlil usulida o'rganilgan. Qadimgi Rim, Bobil, Xitoy va Hindiston kabi ilk sivilizatsiyalar tajribasi, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida amal qilgan "Avesto", Turk xoqonligi davrining "To'ra huquqi" va shariat normalari tahlil qilinib, tadqiqot natijalariga ko'ra, yarashuv instituti mustaqil protsessual shaklda rasmiylashmagan bo'lsa-da, uning asosiy elementlari – zararni qoplash, jabrlanuvchi roziligi va jazoni yengillashtirish – insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan buyon amalda bo'lgan va zamonaviy huquq tizimiga evolyutsion yo'l bilan kirib kelganligi haqida xulosaga kelingan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются древние источники и первоначальные формы института примирения посредством историко-правового анализа. С применением дедуктивного метода познания рассмотрен опыт ранних цивилизаций – Древнего Рима, Вавилона, Китая и Индии, а также правовые источники, действовавшие на территории современного Узбекистана: «Авеста», система Тюре эпохи Тюркского каганата и нормы шариата. По результатам исследования сделан вывод о том, что, хотя институт примирения не был оформлен в качестве самостоятельного процессуального института, его основные элементы – возмещение ущерба, согласие потерпевшего и смягчение наказания – существовали с древнейших этапов истории человечества и эволюционным путём вошли в современную правовую систему.

ABSTRACT. This article examines the ancient sources and primordial forms of the reconciliation institution through a historical-legal analysis. Applying the deductive method of cognition, the experience of early civilizations – Ancient Rome, Babylon, China, and India – has been analysed alongside legal sources that operated on the territory of modern Uzbekistan, namely the Avesta, the Töre legal system of the Turkic Khaganate, and Sharia norms. Based on the research findings, it is concluded that, although the reconciliation institution was not formalized as an independent procedural institute, its core elements – compensation for harm, the consent of the victim, and mitigation of punishment – have existed since the earliest stages of human history and entered the modern legal system through a gradual evolutionary process.

Kalit so'zlar: yarashuv instituti, sulh, diya, qisas, "To'ra huquqi", "Avesto", odat huquqi, shariat, tovon to'lash, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, tarixiy-huquqiy tahlil.

Ключевые слова: институт примирения, сулх, дийя, кисас, система Тюре, «Авеста», обычное право, шариат, возмещение ущерба, освобождение от уголовной ответственности, историко-правовой анализ.

Key words: reconciliation institution, sulh, diyya, qisas, Ture legal system, Avesta, customary law, Sharia, compensation for damages, exemption from criminal liability, historical-legal analysis.

Barchamizga ma'lumki, jamiyatda yuzaga keladigan nizolarni hal etish va ijtimoiy adolatni tiklash masalasi insoniyat tarixidan dolzarb bo'lib kelgan. Yarashuv instituti – bu tarixan shakllangan, xalqimizning bag'rikenglik, kechirimlilik va insonparvarlik qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan huquqiy fenomendir. U kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas, balki ming yillik tarixiy tajriba zaminida vujudga kelgan va takomillashib borgan.

Shu nuqtayi nazardan so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan islohotlar natijasida o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan ezgulik va rahmdillik kabi ko'p asrlik an'analарimizga mos bo'lgan o'rtadagi nizolarning

tomonlar kelishuvi asosida tinch yo'l bilan hal etilishi, kechirimlilik, mehr-oqibat timsolida o'z ifodasini topgan yarashuv instituti huquqni qo'llash amaliyotiga keng joriy qilindi. Xususan, 2001-yil 29-avgustda "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunning¹ qabul qilinishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6041-sonli farmoni² qabul qilinishi maz-

1 O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 254-II-sonli qonuni // [https://lex.uz/\(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 10.12.2025-y.\)](https://lex.uz/(Elektron%20manbaga%20murojaat%20qilingan%20sana%2010.12.2025-y.))

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6041-sonli farmoni // <https://lex.uz/docs/4939467/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 10.12.2025-y.)





kur yo'nalishdagi muhim huquqiy asos bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Biroq, yarashuv institutining zamonaviy qonunchilikdagi mavqeyini to'liq tushunish uchun uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish zarur. Zotan, yarashuv instituti kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas, u xalqimizning tarixiy an'analarga mos tushadigan³ tarixan shakllangan bag'rikenglik, kechirimlilik kabi insoniy qadriyatlarning zamonaviy ko'rinishi xolos.

Zero, moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlikdir⁴. O'zbek xalqining haqiqiy millatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'biri bilan aytganda esa "Moziy – istiqbolning tarozusidir"⁵. Qancha ko'proq o'tmishga nazar sola olsangiz, shuncha yaxshiroq kelajakni ko'ra olasiz⁶.

Tarixdan ma'lumki, yarashuv institutining ilk ko'rinishlari qadimgi jamiyatlarda paydo bo'lgan⁷. Qonunni buzgan shaxs va uning ta'siridan jabr ko'rgan shaxs o'rtasidagi yarashuv tartib-taomillari qadim zamonlardayoq vujudga kelganligi juda mantiqiy bo'lib, chunki u vaqtlarda davlat hokimiyati to'liq shakllanib ulgurmagan. Shuning uchun ham bu vaqtda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar davlat tomonidan tartibga solinmagan. Yarashuv tartib-taomillarining shakllanishiga odat normalari katta ta'sir ko'rsatgan. Ushbu odatlarga ko'ra, jabrlanuvchi tomon bilan yarashish, unga tovon to'lab, nizoni hal qilishi mumkin bo'lgan.

Endilikda yarashuv institutining vujudga kelishi va shakllanishini insoniyat tarixida ilk yuzaga kelgan sivilizatsiyalar misolida tahlil qilib chiqsak. Eng avvalo, hozirgi zamonaviy qonunlarning ilk ko'rinishlari yuzaga kelgan Qadimgi Rimdan boshlasak.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, miloddan avvalgi VIII asrda Rim shahri tashkil topgandan keyin asta-sekinlik bilan uning davlat tuzilishi va huquqiy tizimi shakllana boshladi. Podshohlik davridagi Rimda (miloddan avvalgi 753 – 509-yillar)⁸ jamiyat munosabatlari yuqorida tilga olingan odatlar asosida tartibga solinar edi.

Keyinchalik Qadimgi Rim tarixi davrlashuviga ko'ra, ilk yozma huquqiy manbalarning paydo bo'lishi miloddan avvalgi V asrga, ya'ni Rim Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Xususan, mazkur davrning eng muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlaridan biri sifatida "O'n ikki jadval qonunlari"ni qayd etish mumkin. Ushbu qonunlar orqali turli jamiyat munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solingan⁹.

Ma'lumki, Rim huquqining dastlabki davridagi asosiy tamoyillaridan biri – jinoyat va jazo o'rtasidagi mutanosiblik tamoyili, ya'ni "ko'zga ko'z" qoidasidir. Shu bilan birga, zarar yetkazgan shaxs bilan zarar ko'rgan shaxs o'rtasida yarashuvga erishish imkoni ham mavjud bo'lgan. "O'n ikki jadval qonunlari"da sudgacha bo'lgan vaqt oralig'ida taraflarni yarashirishga urinish zarurligi qayd etilgan. "Ko'zga ko'z" tamoyili yarashuv amalga oshmagan taqdirdagina tatbiq etilgan. "O'n ikki jadval qonunlari"ning VIII jadvalida quyidagicha qoida belgilangan edi: "Agar biror shaxs boshqasiga tan jarohati yetkazsa va u bilan yarashmasa, unga ham xuddi shunday jarohat yetkazilsin"¹⁰.

Keyinchalik huquqbuzarliklar faqatgina shaxs va uning xususiy mulkiga emas, balki jamiyat va davlat manfaatlariga ham zarar yetkazishi sababli Rim huquqida ommaviy delikt (*delictum publicum*) tushunchasi ilgari surilgan. Shu bilan birga, deliktlar ham ikki turga, ya'ni "*delictum privatum*" hamda "*delictum publicum*"ga bo'lingan. Natijada bunday holatlarda yarashuv imkoniyati cheklangan.

Buning mohiyati shundaki, ko'p hollarda jinoyat ishlarini ko'rib chiqish uchun jabrlanuvchining arizasi talab etilmasdan davlatning o'zi tashabbuskor sifatida ishni sudga qadar tekshiruvga olib chiqishi mumkin bo'lgan. Biroq, agar huquqbuzarlik xususiy deliktlarga (*delictum privatum*) qarshi sodir etilgan bo'lsa, faqatgina jabrlanuvchining sudga da'vo bilan murojaatidan so'nggina aybdor shaxsni javobgarlikka tortish imkoniyati vujudga kelgan.

"*Delictum privatum*" (xususiy deliktlar) turkumiga o'g'irlik, haqorat, boshqalarning mol-mulkini

3 Eshmatov Sh. Yarashuv instituti – xalqimizga xos kechirimlilik va insonparvarlikning yorqin namunasi // URL: <http://www.xdp.uz/huquqiy-axborot/27> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.12.2025-y.)

4 Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-yil.

5 To'ychiyeva S. "Mutafakkirlarning ma'rifiy qarashlari". ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research, vol. 2, no. 6, June 2025, pp. 109, [https://inlibrary.uz/index.php/aijmr/article/\(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.12.2025-y.\)](https://inlibrary.uz/index.php/aijmr/article/(Elektron%20manbaga%20murojaat%20qilingan%20sana%2020.12.2025-y.))

6 Churchill, W. S. (1974). Churchill: Speeches 1938–1945. London: Cassell Publishers. – P. 233.

7 Shukurov J.R. O'zbekiston Respublikasida yarashuv institutini qo'llash va uni takomillashtirish istiqbollari. Yu.f.f.dok (PhD) dis. – T., 2025-yil, 16-bet.

8 https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_Rim (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 20.12.2025 y)

9 Суверов С.Е. Примирение правонарушителя с потерпевшим в древнем Риме. elibrary_42445506_34776589.pdf/(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 11.01.2026-y.)

10 Памятники Римского права. Москва, Зерцало, 1997 г.



noqonuniy yo'q qilish yoki shikastlash, qarzдорlar-ga zarar yetkazish kabi huquqbuzarliklar kirgan¹¹.

Qadimgi Rimda yarashuv institutining rivojlani-shiga sud tizimi ham ta'sir ko'rsatgan. Bu tizimda isbotlash uchun dalillarni yig'ish majburiyati to'liq jabrlanuvchi shaxs zimmasiga yuklangan bo'lib, for-mulyar sud jarayonida "bir guvoh – guvoh emas" degan qoida amal qilgan, ya'ni yetarli miqdorda gu-voh bo'lmasa, aybdorlikni isbotlash mushkul bo'l-gan. Shu sababli sud muhokamasi jarayonida gu-vohlarni ta'minlash va dalillar yig'ish mas'uliyati jabrlanuvchiga yuklangan¹². Shuning uchun agar yetarlicha dalil va guvoh topishning imkoni bo'lma-sa, jinoyat sodir etgan shaxs bilan yarashuvga bo-rish oqilona yechim sifatida ko'rilgan.

Yarashuv sud jarayoni davomida ham amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ushbu kelishuv transak-siya (transactio) deb atalgan. Bunday kelishuv aso-san dalillar yetishmaganda va sud jarayoni cho'zilib ketganda qo'llanilgan¹³. Bunday vaziyatda jabrla-nuvchi talab qilgan tovon pulining ma'lum qismini olish imkoniga ega bo'lgan. Ko'p hollarda ayblov za-rur miqdordagi pul kompensatsiyasi to'langandan so'ng bekor qilingan. Masalan, Rim fuqarosi Verres jabrlanuvchiga 300 ming sestersiy to'lab, sud ta'qi-bidan qutulib qolgan¹⁴.

Shunday qilib, Qadimgi Rim huquq tizimida odat huquqi normalari amal qilgan bo'lib, ular jinoyat so-dir etgan shaxs va jabrlanuvchi o'rtasida yarashuv-ga erishish uchun huquqiy sharoit yaratgan.

Qonunlarning yuzaga kelishi va shakllanishi haqi-da gapirilganda "Hammurapi qonunlari"ga e'tibor qaratmaslik mushkuldir. J.R.Shukurovning ta'biri bi-lan aytganda, qadimgi Bobilda "Hammurapi qonun-lari" asosida zararni qoplashni tartibga soluvchi qo-idalarni yarashuv institutining dastlabki namunasi sifatida ko'rish mumkin¹⁵.

Darhaqiqat, "Hammurapi qonunlari"da "yara-shuv" degan so'zning o'zi qo'llanilmagan bo'lsa-da, tovon to'lash va zararni qoplash orqali aybdorning

jazodan ozod bo'lishi – yarashuvning ilk huquqiy ko'rinishi hisoblanadi. Misol uchun, 209 – 214-mod-dalarida jabrlanuvchi tovon orqali rozi bo'lsa, jino-iy jazo berilmasligi, 250 – 252-moddalarida za-rar tovon bilan qoplanga, aybdor ozod bo'lishi va 266-moddasida isbot bo'lmasa, shaxs oqlanishi qayd etib o'tilgan¹⁶.

Qadimgi Xitoyning miloddan avvalgi yozma man-balarini tahlil qiladigan bo'lsak, manbalarda "yara-shuv" atamasi zamonaviy ma'noda qonun moddasi sifatida uchramaydi. Biroq, "Zhōu Lǐ" (Chjou maro-simlari), "Lǐ Jì" (Marosimlar kitobi), "Lúnyǔ" (Konfut-siy suhbatlari), "Shū Jīng" (Tarix kitobi) kabi klas-sik asarlarda hamda "Qin bamboo slips"(Qin davri qonun taxtachalari)da yengil jinoyatlar va nizolarni jazo qo'llamasdan, adovatni bartaraf etish, tovon to'lash va kelishuv orqali hal qilish ustuvor tamoyil sifatida ifodalangan. Bu manbalar yengil va o'rta jinoyatlarda kechirim va kompensatsiya amaliyoti mavjud bo'lganini tasdiqlaydi.

Misol uchun, miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid "Zhōu Lǐ" (Chjou marosimlari)ning mahalliy amaldorlar vazifalari bayon qilingan "Diguan Situ" bo'limida "Asosiy qadriyat – kelishuvdir; nizolarni tingla, ammo jazoni ustuvor qilma"¹⁷ degan qoida mavjud bo'lsa, miloddan avvalgi XI – V asrlarga oid "Shū Jīng" (Tarix kitobi)ning "Lyu jazolari" bo-bida "Jazolarning eng oliy maqsadi – jazosizlikka erishishdir"¹⁸, deb qayd etilgan.

Konfutsiy ta'limotida sudlashuv – jamiyatdagi buzilish belgisi hisoblangan. Ushbu ta'limotda ta'-kidlanishicha "Agar odamlar qonun bilan boshqa-rilsa, ular jazodan qochishga urinadi. Agar odam-lar axloq bilan boshqarilsa, ular uyat hissiga ega bo'ladi"¹⁹. Shu nuqtayi nazardan Qadimgi Xitoyda nizolarning katta qismi qishloq oqsoqollari, urug' boshliqlari, mahalliy amaldorlar tomonidan hal qi-lingan²⁰.

Qadimgi Hindistonda esa yengil va o'rta og'irlik-dagi huquqbuzarliklar davlatga qarshi jinoyat sifa-

11 Новицкий И.Б. Римское право. М., 1994 г. – С. 219-220 с.

12 Омельченко О.А. Основы римского права. СПб., 1993 г. – С. 76-77.

13 Суверов Е.В. Римское право. Барнаул, 2009 г. – С. 107.

14 Гиро П. Быт и нравы древних римлян. Смоленск, 2001 г. – С. 454-455.

15 J.R.Shukurov O'zbekiston Respublikasida yarashuv institutini qo'llash va uni takomillashtirish istiqbollari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – T., 2025-yil, 16-bet.

16 The Code of Hammurabi, translated by L. W. King/ <https://avalon.law.yale.edu/ancient/>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.01.2026-y.)

17 Li Xueqin (李学勤), Zhouli yu gudai falü (周礼与古代法律), Beijing, 1998.

18 Legge, James. The Shoo King. Oxford, 1865.

19 <https://antilogicalism.com/wp-content/>(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.01.2026 y)

20 Philip C. C. Huang. Civil Justice in China: Representation and Practice. Stanford University Press,1996.



tida emas, balki jamoaviy va axloqiy muvozanatni buzuvchi holat sifatida baholangan. Shu sababli bunday ishlar yarashuv, tovon va kechirish orqali hal qilingan. Bu amaliyot dxarma ta'limoti, panchayati instituti hamda Manusmriti va Arthashastra kabi normativ matnlarda o'z aksini topgan.

Qadimgi Hindiston huquq tizimi dxarma (धर्म) – axloqiy-huquqiy majburiyat, adharma – jamiyat muvozanatini buzish va jamoaviy adolat va ijtimoiy muvozanatni tiklash tamoyillariga asoslangan. Tomonlar o'rtasidagi nizoni ko'rib chiqish va hozirda mavjud bo'lgani kabi ularni yarashtirish masalasi-ni qishloq yoki mahalliy jamoaning oqsoqollar kengashi panchayat hal qilgan. Unda tomonlar eshitilgan, aybdor xatosini tan olgan, tovon belgilangan va jabrlanuvchi rozi bo'lgan taqdirda nizo yakunlangan va jazo qo'llanilmagan²¹.

Miloddan avvalgi II asr – milodiy II asrga taalluqli Manusmriti (Manu Smṛti) qonunlarida jarima (दण्ड, daṇḍa), tovon, zararni qoplash orqali adolatni tiklash nazarda tutilgan²². Bundan agar jinoyat sodir etgan shaxs zararni qoplasa yoki tovon to'lasa o'rtadagi nizo hozirgi yarashuv kabi yakunlangan degan xulosaga kelish mumkin.

Ajablanarlisi, qadimgi Hindiston huquqida "prāyaścitta", ya'ni gunohni qoplash, tavba qilish instituti mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, jabrlanuvchidan uzr so'rash, tovon to'lash, jamoa oldida aybini tan olish kabilarda jazo yengillashtirilgan yoki ayrim hollarda umuman qo'llanilmagan²³.

Biz yuqorida yarashuv institutining yuzaga kelishi va shakllanishiga oid eng qadimiy ildizlar haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Endilikda ushbu institutning hozirgi O'zbekiston hududida vujudga kelishi va shakllanishini tadqiq etishga o'tsak.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi Markaziy Osiyo

hududida davlatchilik qariyb uch ming yillikka borib taqaladi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, jinoyat va jazo tizimi mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan qadimgi davlatlarda davlatchilik yuzaga kelganidan boshlab to eramizning VII-VIII asriga qadar odat huquqi hamda zardushtiylik dinining asosiy manbasi bo'lgan "Avesto" asosida²⁴, VIII asrdan boshlab XIX asrning so'nggiga qadar esa odat normalari bilan birgalikda shariat normalari bilan ham tartibga solingan²⁵.

"Avesto" zardushtiylik dinining asosiy manbasidir. Ushbu diniy ta'limotda rostlik va haqiqat uchta ma'naviy-huquqiy tayanchga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu kalom (so'z), ezgu amal (ish)²⁶. Jinoyatlar esadinga, shaxsga, hayvonotga, mulkka, axloqqa va tabiatga qarshi jinoyatlar kabi turlarga bo'lingan²⁷.

"Avesto"ning 4 dona kitobi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ularning orasida 22 bobdan iborat "Vandidod"²⁸ (ayrim manbalarda "Videvdat"²⁹) kitobi turli sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solgan qonun normalari (nizom)dan iboratdir. "Vandidod" fargardlarga bo'lingan hamda unda boshqa huquq sohalari singari jinoyatlar, ularning turlari ("ochiripta", "avauyrayshta", "aridush" va "pishavantu") va ularga beriladigan jazolar tartibga solingan³⁰.

Biroq, O'zbekistonda yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining retrospektiv tahlilini amalga oshirgan olim D.Y. Payziyevning fikricha, "Vandidod"da qanday harakatlar jinoyat sanalishi va sanalmasligi, qanday ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarga jazo berilmasligi hamda qaysi gunohlar afv etilishi mumkinligi belgilangan bo'lsa-da, aybdorning jabrlangan shaxs bilan yarashuviga oid normalar tartibga solinmagan³¹.

Shunday bo'lsa-da, "Vandidod"da huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishda tovon to'lash va pok-

21 Historical Analysis of Panchayat Justice in India, Journal of Emerging Technologies and Innovative Research, 2019.

22 The Laws of Manu, transl. G. Bühler, Oxford, 1886.

23 Kane, P. V. History of Dharmaśāstra, Vol. IV, Poona, 1953.

24 Turayeva D.R. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofazasi: genezisi va rivojlanish tarixi / Siyosatshunoslik, Huquq va xalqaro munosabatlar jurnali / Vol. 2 No. 1 (2023) / [https://sciencebox.uz/\(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.01.2026-y.\)](https://sciencebox.uz/(Elektron%20manbaga%20murojaat%20qilingan%20sana%2015.01.2026-y.))

25 Rajabov B. Ish yurituvni soddalashtirish jarayonlarining rivojlanish tarixi / Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2023) / 304-b/ <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 15.01.2026-y.)

26 Turg'unov M.T. "Avesto"da kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga va odob-axloqqa qarshi jinoyatlarning ifodalanishi/Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Actual Problems of Humanities and Social Sciences Volume 4 | Issue 5 | 2024/ 292-b/ [https://scienceproblems.uz/\(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.01.2026-y.\)](https://scienceproblems.uz/(Elektron%20manbaga%20murojaat%20qilingan%20sana%2024.01.2026-y.))

27 Рахмонов Р.И. «Авеста» – великий историко-правовой источник // Проблемы современной науки и образования. – М., 2013 г. – № 2 (16) – С.133.

28 "Avesto"ning o'zbek tilidagi tarjimasida «Vandidod». Qarang: Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqad Mahkam tarjimai. – T., 2001-yil, 106-bet.

29 Рахмонов Р.И. «Авеста» – великий историко-правовой источник // Проблемы современной науки и образования. – Москва, 2013 г. – № 2 (16). – С. 133.

30 Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqad Mahkam tarjimai. – T.: «Sharq», 2001-yil, 118 -bet.

31 Payziyev D.Y. Yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirish. Yu.f.f.dok (PhD) dis. – T., 2021-yil, 38-bet.



lanish institutlari nazarda tutilgan³². Ushbu mexanizmlar jazolashdan ko'ra ijtimoiy muvozanatni tiklashga qaratilgan bo'lib, zamonaviy yarashuv institutining ilk ko'rinishlari sifatida baholanishi mumkin³³.

Ushbu tarixiy manba mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'sha davrda taraflarni kelishtiruvchi sudlov faoliyati quyidagi jihatlar bilan tavsiflangan:

a) guruh munosabatlari tashkiliy jihatdan tartibga solinmagan;

b) o'zaro munosabatlarda vujudga keladigan nizolarni hal qilish uchun sudlov yurituviga ehtiyoj bo'lgan;

v) tajribali va nufuzga ega shaxs (oqsoqol, sardor) yoki jamoa (oqsoqollar kengashi, yig'ilish) yarashtirish vazifasini amalga oshirgan;

g) yarashuvning asosiy maqsadi nizoni hal qilish bo'lgan va uning qarori, ko'pincha, aybdorni jazolashni nazarda tutgan³⁴.

Bizning fikrimizcha, qadimgi zardushtiylik manbayi bo'lgan "Avesto"ning "Vendidod" kitobida zamonaviy yarashuv institutiga xos bo'lgan ayrim elementlar – zararni qoplash, aybni tan olish va jazoni yengillashtirish mexanizmlari mavjud bo'lgan. Biroq, mazkur institut mustaqil protsessual shakl sifatida emas, balki axloqiy-diniy tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo'lgan.

Keyinchalik hozirgi sarhadlarimizda Turk xoqonligi hukm surgan bo'lib, ushbu davrdagi huquq manbalariga oid ma'lumotlar juda kam uchraydi. Lekin o'sha vaqtda hukmronlik qilgan turkiy xalqlar ichida qaysi dinga e'tiqod qilishiga qarab, zardushtiylik va buddaviylik dinlarining muqaddas kitoblari, odat huquqlari, xoqon va jabg'ularning buyruq, farmon va boshqa hujjatlari bo'lganligi, ular asosida turli huquqiy munosabatlar tartibga solinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi.

Turk xoqonligi davrida huquqiy munosabatlarni tartibga solishning asosiy manbayi sifatida To'ra xizmat qilgan bo'lib, u yozilmagan, ammo jamiyat tomonidan umumiy qabul qilingan va davlat hokimiyati tomonidan ham tan olingan huquq tizimi sifatida amal qilgan. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha,

mazkur tizimda nizolarni hal qilish jazo qo'llashdan ko'ra ijtimoiy muvozanatni tiklash, jamoaviy barqarorlikni saqlash va taraflarni murosaga keltirishga qaratilgan³⁵.

To'ra Orxun-Enasoy yozuvlari, "Devonu lug'otit turk" va "Qutadg'u bilig" asarlarida keltirib o'tilgan. Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur "Qutadg'u bilig" asarida "To'ra – adolat, bilim va hikmatdir. U oqilona boshqaruvdir. To'ra davlatni boshqarishda hech qachon shaxsiy manfaatlarga asoslanmaydi. U insonlarga yaxlit qarab, dunyoga quyosh va oy kabi nur sochadi. Shuning uchun uning nuri hammaga teng tushadi. U barchani teng ko'radi... Hukmdor bo'lish yaxshi, ammo To'ra undan ham yaxshiroqdir. Eng yaxshi hukmdor – xalqni adolat va insonparvarlik asosida boshqaradigan hukmdordir. Bunday tuzumda hatto bo'ri bilan qo'y ham birga yashay oladi"³⁶, deb ta'kidlagan bo'lsa, Mahmud Qoshg'ariy o'zining mashhur "Devonu lug'otit turk" asarida shunday yozadi: "Agar zo'ravonlik eshikdan kirsas, To'ra derazadan chiqib ketadi. Davlat qulashi mumkin, ammo To'ra saqlanib qoladi"³⁷.

"Qutadg'u bilig"da bayon etilgan adolat, tenglik va insonparvarlik tamoyillari ham nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynagan. Yusuf Xos Hojib ta'kidlaganidek, "Hamma mening ko'zimda teng"³⁸dir. Bu esa yarashuv jarayonida taraflarning teng huquqli ishtirokini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

O'sha davrdagi huquq tizimining o'ziga xos muhim jihati – bu javobgarlikning differentsiatsiyalangan shaklidir. Ayrim hollarda jinoyat uchun shaxs emas, balki butun urug' javobgar bo'lgan (collective liability). Bu esa nizoni individual jazo orqali emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tiklash orqali hal qilishga qaratilganini ko'rsatadi. Buni biz quyidagi tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Kangyuy (Qang'li) hukmron sulolasining bir tarmog'i bo'lgan Kan kuchli davlat bo'lgan. Unga o'z atrofidagi sakkiz mulk bo'ysunib, Samarqand sug'dida mayda mulklar (davlatlar) konfederatsiyasi mavjud bo'lgan. Shu davrda Samarqandda "Turk qonunnomasi" amalda

32 Darmesteter J. The Zend-Avesta. Part I: The Vendidad // Sacred Books of the East. Vol. 4. Oxford: Oxford University Press, 1880.

33 Boyce M. A History of Zoroastrianism. Vol. 1. Leiden: Brill, 1975.; Johnstone G. Restorative Justice: Ideas, Values, Debates. Cullompton: Willan Publishing, 2002.

34 Воскобитова Л.А. Защита прав и интересов организаций и граждан: уголовно-правовой, уголовно процессуальный и криминологический аспект.: Монография. – М., 2019 г. – С. 144. // <https://znanium.com/catalog/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 26.01.2026-y.)

35 Türk Milli Kültürü Kafesoğlu İ. Türk Milli Kültürü. İstanbul: Ötüken Yayınları, 1984.

36 Yusuf Has Hacıp. Kutadgu Bilig. Trans. R.R. Arat. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1956.

37 Mahmud al-Kashgari. Dīwān Lughāt al-Turk. Trans. Besim Atalay. Ankara, 1939–1943.

38 Yusuf Has Hacıp. Kutadgu Bilig. Trans. R.R. Arat. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1956.



bo'lib, u ibodatxonada saqlangan. Jazo berish vaqtida qonunnoma qo'lga olinib, shunga asosan jazo tayinlangan. Og'ir jinoyatlar uchun butun urug', yengilrog'i uchun esa jinoyatchining o'zi qatl etilgan. O'g'irlik uchun oyog'i qirqib tashlangan³⁹.

Bezorilik oqibatida tana a'zolariga shikast yetkazishga mulkiy jazo – zararni to'latish (qoplash) jazosi berilgan. Bunda keltirilgan zararining darajasi e'tiborga olingan, ya'ni bezorilik orqasida biror kishining ko'ziga jarohat yetkazilsa, jabrlanuvchiga qizini erga berishi, qizi bo'lmasa, uylanishi uchun zarur mulkni taqdim etishi lozim edi. A'zolarining bi-rortasini ishdan chiqarsa, bu zarar ishga yaroqli ot bilan qoplangan. Ot yoki boshqa ashyolarni o'g'irlaganlik uchun o'g'irlangan ashyo qiymatining o'n barobarini undirib olish bilan cheklanilgan⁴⁰.

Garchi Turk xoqonligi davrida yarashuv instituti mustaqil protsessual shaklda mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, uning asosiy mazmuniy elementlari – kompensatsiya, kelishuv va ijtimoiy tiklanish amalda qo'llangan va zamonaviy yarashuv institutining tarixiy ildizlaridan biri hisoblanadi.

Keyinchalik VIII asrda Movarounnahr deb nomlangan hozirgi Markaziy Osiyo hududlari Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arablar tomonidan istilo qilingach, ushbu hududlarda Chor Rossiyasi tomonidan XIX asrning oxirida amalga oshirilgan sud-huquq tizimidagi islohotlarga qadar barcha ijtimoiy munosabatlar shariat normalari orqali tartibga solingan.

Islom dinining jamiyatdagi barcha sohalarga kirib kelishi eski ijtimoiy-huquqiy odat, an'analarning siqib chiqarilishi va musulmon huquqiga asoslangan qadriyatlarining joriy etilishiga olib keldi. O'zbekiston hududida deyarli o'n uch asr davomida faoliyat ko'rsatgan qozilik va biy sudlari shariatga asoslangan holda xalq odatlari va an'analarga ta-

yanib qarorlar qabul qilgan⁴¹.

Shariat normalarida yarashuv instituti shariat normalari asosida tartibga solingan musulmon huquqida jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishda nihoyatda muhim o'rin egallagan⁴².

Bu davrda jinoyatlar toifalarga ajratilgan holda quyidagicha uchga bo'lingan: *birinchisi*, aniq jazo (sanksiya) – hadd bilan jazolanadigan jinoyatlar, *ikkinchisi*, qon bahosi qoidalari asosida jazo beriladigan jinoyatlar va *uchinchisi*, ta'zir bilan jazolanadigan jinoyatlar⁴³.

Ushbu jinoyatlarning ikkinchi toifasida bugungi kunda amaldagi jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lgan yarashuv institutidagi qoidalarga o'xshash qoidalar amal qilgan bo'lib, bunda aybdordan qasos olinishi, aybdorning diya (xun) to'lashi yoki aybdorni afv qilish masalasi jabrlanuvchi yoki uning vorislari tomonidan hal qilingan⁴⁴. Ya'ni jabr ko'rgan taraf jinoyat sodir etgan shaxsni tovon to'lagani uchun kechirib, da'vosidan voz kechishi va u bilan yarashishi tufayli qozi (sud)dan aybdorni jazodan ozod qilishni talab etishga haqli bo'lgan⁴⁵.

Shu bilan birga, shariat normalarida yarashuv masalarini sulh instituti ham tartibga solgan bo'lib, jinoyatlar bo'yicha kelishilgan sulh diya bilan bog'liq holda tuzilgan⁴⁶. Shu bilan birga, qisas (qasos) va ta'zir (ixtiyoriy jazo)⁴⁷ ham mavjud bo'lgan. Islomda qasddan zarar yetkazilganda qasos olish imkonini beruvchi "qisos" tushunchasi e'tirof etilib, yarashuv qat'iy jazoga muqobil sifatida qasos olish va o'ch olish holatining oldini olish mexanizmi bo'lib xizmat qilgan. Islomiy "tavba" tushunchasi esa yarashuv jarayonining ajralmas qismidir. Huquqbuzarlar qilmishlari uchun chin dildan tavba qilib, jabrlanuvchidan kechirim so'rashga va solih hayot kechirish majburiyatini ko'rsatishga da'vat etiladi⁴⁸.

39 Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. II том. – С. 271-280. / .

40 Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. – T., 2003-yil, 232-bet.

41 Омрали Ж.О. Судебная власть в системе разделения властей в Узбекистане // Вестник КазНПУ. – Алматы, 2010/www.articlekz.com/(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 27.01.2026-y.)

42 Saxaddinov S.M. Sud muhokamasida jinoyat protsessual yarashuvni takomillashtirish muammolari: dis. ... yurid. fan. nom. – T.: IIV akademiyasi, 2005-yil, 22-bet.

43 Сюкияйнен Л.Р., Лихачев В.А. Мусульманское право. (Структура и основные институты). М., «Наука». 1984 г. – С. 78.

44 Ubaydulloh ibn Ma'sud. Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). – T.: Cho'lpon, 1994-yil, 284-bet.

45 Rustambayev M.X. va boshq. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. II tom. Umumiy qism. Jazo to'g'risida ta'limot. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik // To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2018-yil, 157-bet.

46 Qarang: Ubaydulloh ibn Ma'sud. Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh). – T.: Cho'lpon, 1994-yil, 284-285-betlar; Хидоя: комментарии мусульманского права/ отв.ред., проф. д.ю.н. А.Х.Саидов. – Т.: Ўзбекистон, 1994 г. – С. 480.

47 Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Kifoya. 3-juz. "Diya kitobi" - T.: "Hilol nashri", 2022-yil, 542-bet.

48 J.R.Shukurov O'zbekiston Respublikasida yarashuv institutini qo'llash va uni takomillashtirish istiqbollari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi. – T., 2025-yil, 23-bet.



Biz yuqorida sanab o'tgan hozirgi vaqtdagi yarashuv institutining o'sha vaqtdagi ko'rinishlarini ifodalovchi tushunchalarni Burxoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida alohida boblarda toifalarga ajratilgan holda bayon etilganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, "Hidoya" asarining to'rtinchi juzida "sulh" masalasi alohida bobda bayon qilinib yoritib berilgan. Asarning uchinchi juzida esa undiriladigan tovon haqi jazo sifatida qo'llanilgandan so'ng, aybdor uch yil mobaynida to'lashi lozimligi belgilangan. Islom qonunchiligiga ko'ra, aybdor sodir etgan jinoyati oqibatida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlari uchun tovon to'lashi lozim bo'lib, bu esa unga berilgan jazo sifatida qaralgan. Agarda jabrlanuvchi yarashuvga rozi bo'lmasa, unda jinoyatni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qasos olish huquqi mavjud bo'lgan. Yarashuvga rozi bo'lsa, to'kilgan qon uchun 6 turdagi xunni to'lash tartibi amalda bo'lib, 6 yoshdan oshganlar 100 tuya yoki 200 ho'kiz, 1000 qo'y yoki 1000 misqol oltin yoki 1000 (kumush) dirham pul to'lash talab etilgan. Sodir etilgan jinoyat bo'yicha ish yuritish jabrlanuvchining og'zaki arizasi asosida boshlanib, ishni ko'rib chiqayotgan qozi jabrlanuvchining ishni ko'rib chiqish jarayonida bevosita ishtirok etishini talab qilgan⁴⁹.

Zotan, "sulh" so'zi lug'atda oradagi nizodan keyin "yarashish", "kelishish" degan ma'noni anglatadi. Shar'iy istilohda esa sulh – nizoni ko'taradigan shartnoma. Sulhning shariatga kiritilishi oyat va hadislar asosida bo'lgan. Sulh iqrar, sukut va inkor ila to'g'ri bo'ladi. Sulh o'zi nizoni ko'tarish uchun tuziladi. Sulh tuzilganda badalning noaniq qolishi esa yana yangitdan nizo chiqishiga sabab bo'ladi⁵⁰.

Nazarimizda, shariat normalari hozirgi yarashuv institutining qadimiy ko'rinishi bo'lib, mohiyatan zamonaviy yarashuv institutiga nisbatan mukammalroq jihatlarga ega. Mazkur normalar nafaqat yarashuv institutining, balki hozirgi kundagi zamonaviy huquq sohasining ham tarixiy ildizi hisoblanadi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Amalga oshirilgan tarixiy-huquqiy tahlil shuni

ko'rsatadiki, yarashuv instituti insoniyat tamadunining ajralmas qismi bo'lib, u davlat hokimiyati to'liq shakllanmagan davrlardayoq odat normalari zaminida yuzaga kela boshlagan.

Ilk sivilizatsiyalar tajribasi nuqtayi nazaridan qargalganda, Qadimgi Rimda "O'n ikki jadval qonunlari" dagi yarashuvga chaqiriq va transaksiya (transactio) tushunchasi, Bobilda "Hammurapi qonunlari" dagi tovon to'lash va zararni qoplash mexanizmlari, Qadimgi Xitoyda konfutsiycha adolat tamoyiliga asoslangan jamoaviy yarashuv amaliyoti, Hindistonda esa dxarma ta'limoti, panchayati instituti va "prāyashchitta", ya'ni tavba va kechirim tizimi yarashuv institutining ilk namunalari sifatida namoyon bo'lgan. Hozirgi O'zbekiston hududida esa davlatchilik yuzaga kelgan davrdan boshlab yarashuv elementlari turli shakllarda mavjud bo'lgan. "Avesto"ning "Vandidod" kitobida tovon to'lash va poklanish orqali ijtimoiy muvozanatni tiklash; Turk xoqonligi davridagi "To'ra huquqi"da kompensatsiya va jamoaviy javobgarlik mexanizmlari; shariat normalarida qasos, diya va sulh institutlari – bularning barchasi zamonaviy yarashuv institutining tarixiy-huquqiy ildizlari hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan barcha tarixiy davrlarda yarashuv mustaqil protsessual institut sifatida rasmiylashmagan bo'lsa-da, uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy elementlar – zararni qoplash, aybni tan olish, jabrlanuvchi roziligi va jazoni yengillashtirish kabilar amalda qo'llanilib kelingan. Bu esa yarashuv institutining zamonaviy shakli tarixiy merosga emas, balki tarixiy meros zamonaviy shaklga asos bo'lganligini isbotlaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, yarashuv institutining bugungi kundagi protsessual shakli – ming yillik tarixiy tajriba, turli madaniyatlar va huquq tizimlarining sintezi mahsulidir. Mazkur institutni yanada takomillashtirishda xalqimizning boy tarixiy-huquqiy merosini e'tiborga olish ilmiy jihatdan asosli va amaliy ahamiyatga molik bo'ladi.

#

49 Abdurasulova Q.R., To'laganova G.Z. Yarashuvchilik institutida advokatning ishtiroki // Yarashuvchilik institutini takomillashtirish: nazariya va amaliyot. (Davra suhbatlari).-T.: TDYI, 2005-yil, 19-bet.

50 Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Kifoya. 3-juz. "Sulh kitobi" - T.: "Hilol nashri", 2022-yil, 524–527-betlar.



Farxod TEMIROV,
Bosh prokuratura boshqarma prokurori,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI QONUNCHILIKNING TARIXIY-HUQUQIY TAHLILI

ANNOTATSIIYA. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va saqlash sohasidagi qonunchilikning shakllanishi, evolyutsiyasi va bugungi holati tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kundagi shaharsozlik va madaniy meros qonunchiligidagi kolliziylar, restavratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar ochib berilgan bo'lib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar (YUNESKO talablari) asosida yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье с историко-правовой точки зрения анализируются формирование, эволюция и современное состояние законодательства в сфере охраны объектов материального культурного наследия в Республике Узбекистан. Выявлены существующие коллизии в градостроительном и земельном законодательстве, а также пробелы в правовом регулировании процессов реставрации. Разработаны предложения по совершенствованию национального законодательства на основе международных стандартов (требований ЮНЕСКО).

ABSTRACT. This scientific article analyzes the formation, evolution, and current state of legislation in the field of protection of tangible cultural heritage objects in the Republic of Uzbekistan from a historical and legal perspective. The article identifies existing conflicts in urban planning and cultural heritage legislation, as well as gaps in the legal regulation of restoration processes. Scientifically grounded proposals have been developed to improve national legislation based on international standards (UNESCO requirements).

Kalit so'zlar: moddiy madaniy meros, tarixiy-huquqiy tahlil, qonunchilik evolyutsiyasi, YUNESKO, muhofaza tegralari, restavratsiya, Madaniy me'ros kodeksi, shaharsozlik kolliziyasi.

Ключевые слова: материальное культурное наследие, историко-правовой анализ, эволюция законодательства, ЮНЕСКО, охраняемые зоны, реставрация, Кодекс о культурном наследии, правовая коллизия.

Key words: tangible cultural heritage, historical and legal analysis, evolution of legislation, UNESCO, protection zones, restoration, Cultural Heritage Code, legal conflict.

Insoniyat tarixining turli davrlariga oid betakror moddiy madaniy meros obyektlari har bir davlatning milliy iftixori, o'tmishi va kelajagini bog'lab turuvchi muhim ma'naviy-ruhiy ko'pri, shuningdek, bebaho iqtisodiy va turistik resurs hisoblanadi. Bunday obyektlar shunchaki qadimiy me'morchilik namunalari yoki toshdan tiklangan arxeologik topilmalar emas, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, diniy-falsafiy dunyoqarashi, ilm-fani, san'ati va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining jonli ifodasidir.

Madaniy merosni asrab-avaylash millatning o'zligini anglashida, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi globalashuv va ommaviy madaniyat shiddat bilan kirib kelayotgan bir sharoitda, aynan tarixiy meros millatning o'ziga xosligini saqlab qoluvchi immunitet vazifasini o'taydi.

O'zbekiston hududi asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining markazi sifatida Sharq va G'arbni bog'lovchi, turli madaniyatlar va qadimiy sivilizatsiyalar (Zardushtiylik, Kushon podsholigi, Islom uyg'onish

davri, Temuriylar renessansi) tutashgan chorraha bo'lib kelgan.

Bugungi kunda respublika hududida 8 mingdan ortiq moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan.

Ularning salmoqli qismi Samarqandning Registon va Shohi zinda majmualari, Buxoroning eski shahar qismi, Xivaning Ichan qal'asi, Termizning buddaviylik yodgorliklari va Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarda joylashgan bo'lib, insoniyatning noyob mulki sifatida Umumjahon madaniy merosi ro'yxatidan mustahkam o'rin egallagan¹.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, demografik o'zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari va qurilish ko'lamining misli ko'rilmagan darajada ortishi moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish masalasini har qachongidan ham dolzarb va murakkab qilib qo'ymoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida davlat tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni muhofaza qilishi



qat'iy belgilab qo'yilgan². Ushbu norma davlatning bu boradagi kafolatini eng yuqori yuridik kuchga ega hujjat bilan mustahkamlaydi hamda barcha fuqarolar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tadbirkorlik subyektlari uchun majburiydir.

Biroq, tan olish kerakki, so'nggi yillarda kuzatila-yotgan ayrim salbiy tendensiyalar soha mutaxassislarini jiddiy tashvishga solmoqda.

Tarixiy yodgorliklarga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazilishi, muhofaza zonalarida noqonuniy tijorat qurilishlarining (mehmonxonalar, restoranlar, savdo markazlari) ko'payishi yoki yodgorliklarning asl qiyofasini buzuvchi, zamonaviy qurilish mollari (sement, gipsokarton, plastik romlar va h.k.) yordamida qilingan malakasiz restavratsiya va ta'mirlash ishlari buning yaqqol dalilidir.

Bunday muammolar qonunchilik bazasini, ijro mexanizmlarini, shuningdek, qonunchilik tarixini chuqur va tanqidiy tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Har qanday huquqiy institutni o'rganish uning tarixiy ildizlarini tahlil qilishdan boshlanadi.

O'zbekistonda moddiy madaniy merosni muhofaza qilish qonunchiligidagi rivojlanish tarixi va huquqiy tabiatini konseptual jihatdan uchta yirik tarixiy bosqich doirasida ko'rib chiqish mumkin. Ushbu davrlashtirish siyosiy tuzumlar, davlatning mafkuraviy yondashuvlari va huquqiy tizimdagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Birinchi bosqich sifatida mustaqillikkacha bo'lgan sho'rolar davrini (XX asr) keltirishimiz mumkin. Ushbu davrda madaniy meros obyektlariga bo'lgan munosabat sof mafkuraviy, sinfiy va radikal ateistik xarakterga ega bo'lgan.

1920 – 1930-yillardagi “jangari dahriylik” va dinga qarshi kurash siyosati oqibatida milliy me'morchiligimizning betakror namunalari bo'lgan minglab nodir masjidlar, qadimiy madrasalar, maqbaralar va karvonsaroylar buzib tashlangan yoki maqsadsiz ravishda xo'jalik omborxonalari, qamoqxonalar, klublar va zavodlarga aylantirilgan.

Tarixiy vaqf mulklari davlat foydasiga musodara qilingan, obidalarining aksariyati qarovsizlikdan xarobaga aylangan.

Sho'rolar hukumati dastlab madaniy merosga eskilik sarqiti va “ezuvchi sinflarning boyligi” sifa-

tida qaragan.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng turizmni rivojlantirish va xorijiy valyuta jalb qilish maqsadidagina ayrim yirik yodgorliklarni (masalan, Samarqand va Buxorodagi ayrim obidalarni) ta'mirlash boshlangan.

1976-yilda Sovet Ittifoqi miqyosida “Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi qonun³ qabul qilindi. Ushbu hujjat sohani tartibga soluvchi ilk yirik yuridik akt bo'lsa-da, amalda u juda deklarativ xususiyatga ega edi.

Olim R.Xakimovning ta'kidlashicha, bu davr qonunchiligidagi asosiy xususiyati va eng katta kamchiligi shundaki, madaniy meros obyektlarining haqiqiy egasi va vorisi bo'lgan xalq, mahalliy jamoatchilik muhofaza qilish jarayonidan butunlay chetlatilgan. Barcha mulkchilik huquqi va qaror qabul qilish vakolati mutlaq monopol davlat apparati va partiya rahbariyati qo'lida mujassam bo'lgan⁴.

Ikkinchi bosqich sifatida milliy tiklanish va huquqiy poydevorning yaratilishi (1991 – 2017-yillar) davrini keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi tarixiy va madaniy merosga munosabat ham tubdan o'zgardi. Tarixiy xotirani tiklash, milliy o'zlikni anglash, buyuk ajdodlar (Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy va boshqalar) nomini oqlash va sobiq tuzum davridagi adolatsizliklarni bartaraf etish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ilk kunlardan oq qadimiy qadamjolar, masjid va madrasalar xalqqa, diniy idoralarga qaytarildi.

Tashqi siyosat va madaniy diplomatiya yo'nalishidagi muhim qadam sifatida 1993-yilda mustaqil O'zbekiston YUNESKOning 1972-yilda Parijda imzolangan Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi⁵.

Bu orqali O'zbekiston o'z hududidagi merosni saqlash bo'yicha nafaqat milliy, balki xalqaro majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oldi. Ushbu konvensiya doirasida respublikamizning eng nodir obidalari ketma-ket YUNESKO ro'yxatiga kiritila boshladi.

2 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023-yil // <https://lex.uz/docs/6445145>.

3 Закон “Об охране и использовании памятников истории и культуры” Ведомости верховного совета СССР, 1976 г. ст.628 // https://faolex.fao.org/docs/pdf/rus42174.pdf?utm_source

4 Xakimov R. “O'zbekistonda madaniy merosni huquqiy muhofaza qilish muammolari va ularning yechimlari”. “Huquq va burch” jurnali, 2022-yil, 8-son, 45-bet.

5 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1995-y., № 12, 272-modda. https://nrm.uz/contentf?doc=148651_o%E2%80%9898zbeki%20respublikasi_oliy_majlisining_22_12_1995_y_182-i-son_1972_yilda_imzolangan_umumjahon_madaniy_va_tabiiy_merosni_muhofaza_qilish_to%E2%80%9898g%E2%80%9898risidagi_konvenciyani_ratifikaciya_qilish_haqidagi_qarori&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana.



Milliy qonunchilikdagi eng asosiy va fundamental burilish – 2001-yil 30-avgustda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to’g’risida”gi 269-II-sonli O’zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi bo’ldi⁶. Ushbu qonun orqali mamlakatimiz huquq tizimiga mutlaqo yangi huquqiy institutlar va tushunchalar kiritib keldi.

1. Obyektlarni ularning tarixiy, arxeologik va madaniy qimmatiga ko’ra mahalliy, respublika va umumjahon ahamiyatiga molik toifalarga ajratish tartibi belgilandi.

2. Moddiy madaniy meros obyektlarining Davlat kadastrini yuritishning huquqiy asoslari yaratildi. Har bir obyektga pasport berish va ularning hisobini olib borish tizimi yo’lga qo’yildi.

3. Tarixiy obidalar atrofida himoya zonalarini (muhofaza tegralarini), qurilish va xo’jalik ishlarini tartibga solish hamda landshaft zonalarini belgilash mexanizmi ishlab chiqildi. Bu normalar tarixiy obidalarining nafaqat o’zini, balki uni o’rab turgan tarixiy muhitni ham saqlab qolishga xizmat qilishi lozim edi.

Ushbu davrda qabul qilingan qonunlar asosan yo’nalish beruvchi xususiyatga ega bo’lib, ularning ijrosini ta’minlovchi aniq mexanizmlar va jazo choralari yetarli darajada ishlab chiqilmagan edi. Moliyalashtirishning yetishmasligi sababli ko’plab chekka hududlardagi obyektlar qarovsiz qolayotgan edi.

Uchinchi bosqich sifatida yangi O’zbekistondagi institutsional islohotlar davrini (2017-yildan hozirgi vaqtgacha) ta’kidlashimiz mumkin.

Yangi O’zbekiston sharoitida boshlangan keng ko’lamli islohotlar madaniy meros sohasini ham chetlab o’tmadi. Turizmning davlat iqtisodiyotining strategik tarmog’i sifatida e’tirof etilishi sohaga bo’lgan e’tiborni keskin oshirdi. Biroq, turistlar oqimining ko’payishi va shaharlardagi biznes manfaatlari madaniy meros obyektlari xavfsizligiga yangi tahdidlarni keltirib chiqardi.

Bu davrda davlat siyosati nafaqat obyektlarni saqlash, balki ularni faol raqamlashtirish, ilmiy asoslangan holda restavratsiya qilish va eng muhimi – sohada qat’iy davlat nazoratini o’rnatishga qaratildi.

Institutsional jihatdan eng muhim qadam O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalari-da davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 6199-sonli far-

moni hamda Vazirlar Mahkamasining 649-sonli qarori asosida O’zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining tashkil etilishi bo’ldi. Ilgari Madaniyat vazirligi huzuridagi kichik bir boshqarma yoki departament sifatida faoliyat yuritgan tizim o’rniga alohida vakolatlarga, hududiy boshqarmalarga va katta budjetga ega bo’lgan agentlik yaratildi. Ushbu agentlik tarqoq holdagi vakolatlarni o’zida birlashtirib, sohada yagona davlat siyosatini olib boruvchi bosh mahkamaga aylandi.

Huquqiy nazorat nuqtayi nazaridan eng muhim o’zgarishlardan biri – jinoiy va ma’muriy javobgarlikning keskin kuchaytirilishidir. Ilgari mavjud bo’lgan arzimlar jarimalar millionlab dollar foyda ko’ruvchi o’zboshimcha quruvchilarni yoki investorlarni to’xtata olmaganligi sababli qonunchilikka jiddiy o’zgartirishlar kiritildi.

Xususan, O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-fevraldagi 754-sonli qonuniga asosan Jinoyat kodeksining 132-moddasi (Moddiy madaniy meros obyektlarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish) sanksiyalari qayta ko’rib chiqildi va keskin og’irlashtirildi.

Endilikda bunday og’ir qilmishlar, ayniqsa, ular g’arazli niyatlarda yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilsa, 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosiga sabab bo’ladi.

Shuningdek, jinoyatchiga nisbatan yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni bir necha barobar (hatto o’n barobargacha) miqdorda undirish amaliyoti joriy etildi⁷. Bu qadam qadimiy binolarni buzib, o’rniga ko’p qavatli uy qurmoqchi bo’lganlarga nisbatan davlatning jiddiy va murosasiz ogohlantirishi bo’ldi.

Madaniy meros muhofazasini takomillashtirishda Italiya va Fransiya kabi boy tarixiy merosga ega Yevropa davlatlarining tajribasi juda muhimdir.

Masalan, Italiyada *Madaniy meros va landshaftlar kodeksi* mavjud bo’lib, unda har bir toshning taqdiri davlat va mahalliy munitsipalitetlar hamkorligida hal qilinadi. Har qanday qurilishdan oldin nafaqat yuzaki, balki chuqur georadarli arxeologik tekshiruvlar majburiydir.

Fransiyada esa *Meros kodeksi* amal qilib, tarixiy binolarni sotib olgan xususiy mulkdorlarga soliq imtiyozlari beriladi, ammo binoning fasadini (tashqi qiyofasini) va interyerini ruxsatsiz o’zgartirish ham javobgarlikka tortiladi.

Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish qonunchiligining keng qamrovli ta-

6 Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son. <https://www.lex.uz/acts/25461>.

7 O’zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-fevraldagi 754-sonli qonuniga asosan JKning 132-moddasi uchinchi qism bilan to’ldirilgan – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 16.02.2022-y., 03/22/754/0134-son. <https://www.lex.uz/acts/5859901>.



rixiy-huquqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bu borada shaklan yetarlicha huquqiy poydevor yaratilgan bo'lsa-da, amaldagi ijro mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

Qonun normalarini hayotga so'zsiz tatbiq etish, mavjud huquqiy ziddiyatlarni bartaraf qilish borasida quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Birinchidan, *O'zbekiston Respublikasining Madaniy meros to'g'risidagi kodeksini qabul qilish*. Bugungi kunda madaniy meros muhofazasi bitta asosiy qonun, Fuqarolik, Shaharsozlik va Yer kodekslarining ayrim moddalari hamda ellikka yaqin turli darajadagi qonunosti hujjati (Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, idoraviy nizomlar va yo'riqnomalar) bilan tartibga solinadi. Hujjatlarning bunchalik ko'pligi, tarqoqligi va ba'zan bir-biriga zidligi (kolliziyalar) byurokratiyani va huquqni qo'llashda tafovutlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli barcha sohaviy normalarini unifikatsiya qilib, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan yuridik kuchga ega bo'lgan yaxlit O'zbekiston Respublikasining Madaniy meros to'g'risidagi kodeksini qabul qilish zarur. Ushbu kodeksda obyektlarni xatlovdan o'tkazish, xususiylashtirish tartiblari, muhofaza zonalarining aniq metrajleri, restavratsiya qoidalari va javobgarlik masalalari kodifikatsiyalangan tarzda jamlanishi shart.

Ikkinchidan, *geoaxborot tizimlarida raqamli nazorat va 3D integratsiyasini joriy etish*. Inson omili va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning eng samarali yo'li bu raqamlashtirishdir. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi va Shaharsozlik kodeksiga barcha madaniy meros obyektlarining "raqamli egizaklarini" (dronlar va lazerli skanerlash orqali yaratilgan aniq koordinatali 3D modellarini) davlat geoaxborot va milliy kadastr tizimlariga majburiy integ-

ratsiya qilish bo'yicha norma kiritish lozim.

Bu orqali tarixiy zonalarida yoki ularning muhofaza tegrallarida mahalliy hokimliklar tomonidan (elektron auksionlar orqali) o'zboshimchalik bilan yer ajratish yoki tadbirkorlarga qurilishga ruxsat berish jarayonlari boshlanganda, elektron tizim avtomatik ravishda "qizil chiroq" yoqadi va qaror loyihasini taqiqlaydi (blok qiladi). Bu yer ajratishdagi qonun buzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tarixiy obidalar va ularning muhofaza zonalarida atrofidagi har qanday yirik qurilish, infratuzilma loyihalari (masalan, ko'priklar qurish, yo'llarni kengaytirish) yoki restavratsiya ishlari yuzasidan majburiy tartibda *mahalliy aholi va mustaqil mutaxassislar ishtirokida jamoatchilik eshituvlarini* o'tkazish tizimini qonunchilikda qat'iy mustahkamlash zarur. Xalq – madaniy merosning asl egasi sifatida qarorlar qabul qilish jarayonida shaffof tarzda ishtirok etishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston zaminidagi moddiy madaniy meros faqatgina o'tmishning jim yodgorligi emas, balki kelajak avlodlarga bekamu ko'st, o'zgartirishlarsiz yetkazilishi shart bo'lgan muqaddas omonatdir.

Qonunchilik evolyutsiyasi shuni ko'rsatmoqda, davlat himoyasi yaxshilanmoqda, ammo iqtisodiy bosimlar ham shunga yarasha ortmoqda. Milliy qonunchilikni yuqoridagi ilmiy va amaliy takliflar asosida takomillashtirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish va eng muhimi – jamiyatda madaniy merosga nisbatan yuksak mas'uliyat hissinini tarbiyalash bu omonatni munosib saqlashga xizmat qiladi. Bizning tariximiz sotiladigan yoki buzib yangidan quriladigan buyum emas, u millatning bebaho pasportidir.



SUD HUJJATLARI VA BOSHQA ORGANLAR HUJJATLARI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Sud qarorlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishning muhim sharti ekani asoslab berilgan. Ijro ishi yuritish sohasida prokuror nazoratining predmeti, chegaralari hamda huquqiy mexanizmlari yoritilib, davlat ijrochilari faoliyati ustidan nazoratning fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi o'rni ochib berilgan. Shu bilan birga, Germaniya va O'zbekiston prokuratura tizimlarining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida mamlakatimizda prokuror nazoratining inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan institutsional xususiyatlari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi ustidan ta'sirchan prokuror nazorati inson huquq va erkinliklarini, shuningdek, qonuniy manfaatlarini ta'minlashning muhim huquqiy kafolatlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется значение прокурорского надзора за исполнением судебных актов и актов иных органов в обеспечении прав человека и законных интересов. Обосновывается, что своевременное и полное исполнение судебных решений является важнейшим условием реализации прав и свобод человека. Раскрываются предмет, пределы и правовые механизмы прокурорского надзора в сфере исполнительного производства, а также его роль в защите прав граждан посредством контроля за деятельностью государственных исполнителей. Наряду с этим на основе сравнительно-правового анализа моделей прокуратуры Германии и Республики Узбекистан выявлены институциональные особенности прокурорского надзора в Узбекистане, ориентированные на обеспечение прав человека. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективный прокурорский надзор за исполнением судебных актов и актов иных органов является одной из важных правовых гарантий обеспечения прав, свобод и законных интересов человека.

ABSTRACT. This article examines the significance of prosecutorial supervision over the enforcement of court decisions and acts of other authorities in ensuring human rights and legitimate interests. It substantiates that the timely and full execution of judicial decisions constitutes an essential prerequisite for the effective realization of human rights and freedoms. The article explores the subject matter, limits, and legal mechanisms of prosecutorial supervision in enforcement proceedings and highlights the role of oversight over the activities of state bailiffs in protecting citizens' rights. In addition, a comparative legal analysis of the prosecutorial models of Germany and the Republic of Uzbekistan is conducted, revealing the institutional features of prosecutorial supervision in Uzbekistan aimed at safeguarding human rights. The study concludes that effective prosecutorial supervision over the enforcement of court decisions and acts of other authorities serves as one of the key legal guarantees for ensuring human rights, freedoms, and legitimate interests.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, prokuror nazorati, sud hujjatlari ijrosi, ijro ishi yuritish, davlat ijrochilari, qonun ustuvorligi, huquqlarni himoya qilish.

Ключевые слова: права человека, прокурорский надзор, исполнение судебных решений, исполнительное производство, государственные исполнители, законность, защита прав.

Key words: human rights, prosecutorial supervision, enforcement of court decisions, enforcement proceedings, state bailiffs, rule of law, protection of rights.

Huquqiy davlat barpo etish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada Konstitutsiyamizning 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi¹ belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy yondashuv mamlakat rahbari tomonidan ham izchil qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiya qabul qilinganining 31-yilligi munosa-

bati bilan yo'llagan bayram tabrigida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda inson huquqlari bo'yi-cha milliy institutlarning ahamiyatiga alohida to'xtalib, quyidagi fikrni bildirgan edi: "Konstitutsiyamizda aniq va qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz bo'lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday xatti-harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir"².

Mazkur qoida davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim-

1 <https://lex.uz/uz/docs/6445145>

2 <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoyev-konstitutsiya-kuni-munosabati-bilan-uzbekiston-xalqiga-bayram-tabrigi-yulladi>



ligini anglatadi.

Inson huquqlari jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan eng muhim ma'naviy va huquqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar har bir tarixiy davrda turlicha mazmun kasb etgan bo'lsa-da, ushbu munosabatlarning asosiy obyekti hamisha inson va uning qadr-qimmati bo'lib kelgan. Bu masalaga dunyo sivilizatsiyasi tarixida Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Jon Lokk, Sharl Lui Monteske kabi mutafakkirlar o'z asarlarida alohida e'tibor qaratgan holda, inson huquqlarini ta'minlashning turli falsafiy va huquqiy asoslarini ilgari surganlar.

Ilmiy manbalarda inson huquqlarining mazmuni avvalo, inson qadrlarining daxlsizligi va barchaning qonun oldida tengligi tamoyillari bilan bog'lab izohlanadi. Bu g'oyalar sharq mutafakkirlari merosida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Alisher Navoiy insonni borliqning eng oliy maqsadi sifatida talqin qilib, dunyo yaratilishining asl mohiyati inson manfaatlariga xizmat qilishdan iborat ekanini o'zining "Hayratul-abror" dostonida quyidagi satrlar orqali yoritib bergan:

*Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g'araz inson edi³.*

Mazkur falsafiy qarashlar bugungi kunda inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi zamonaviy huquqiy tizimlar uchun muhim ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar avvalo, qabul qilinayotgan qaror va qonun hujjatlarining amaldagi ijrosini ta'minlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida shakllangan parlament va ijro hokimiyati organlari faoliyatida natijadorlikka erishish, qabul qilingan qarorlarning hayotga to'liq tatbiq etilishi ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Chunki, har qanday huquqiy hujjatning qiymati uning ijrosi bilan belgilanadi, ijrosiz qonun esa fuqarolarning huquq va manfaatlarini real himoya qila olmaydi.

Aynan shu ma'noda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi inson huquqlarini ta'minlashning amaliy kafolati hisoblanadi. Ijro jarayonida qonuniylikka rioya etilishi, davlat ijrochilari faoliyatining samaradorligi va mazkur sohada prokuror nazoratining ta'sirchanligi fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois ijro mexanizmini takomillashtirish, ijro intizomini kuchaytirish va inson huquqla-

riga daxldor har bir hujjatning so'zsiz bajarilishini ta'minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Qonunlar ijrosini ta'minlash jarayonida prokuror nazorati va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning o'zaro hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishi, ijro intizomini buzish holatlariga nisbatan huquqiy ta'sir choralarining qo'llanilishi hamda buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan aniq mexanizmlarning ishlashi inson huquqlarini real ta'minlash imkonini beradi. Ana shu mexanizmlar samarali ishlagan taqdirdagina qonun normalari hayotiy mazmun kasb etib, davlatning insonparvar siyosati amalda o'z ifodasini topadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari qabul qilinishi bilan fuqarolarning huquqlari avtomatik tarzda tiklanmaydi. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining amaliy ijrosi inson huquqlarini real ta'minlashning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Aynan ijro jarayonida sustkashlik, qonun talablariga rioya etmaslik yoki vakolatlarni suiiste'mol qilish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Shunga ko'ra, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati inson huquqlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globalashuv va xalqaro huquqiy hamkorlikning faollashuvi sharoitida prokuror nazorati hamda ijro ishi yuritishni tashkil etish sohasida xorijiy tajribani tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu zarurat avvalo, turli davlatlarda huquqni muhofaza qilish tizimining qanday shakllangani, prokuratura organlarining davlat hokimiyati tizimidagi o'rni hamda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonidagi ishtiroki darajasini o'rganish bilan bog'liqdir. Zero, har bir mamlakatda ushbu institutlar milliy huquqiy an'analar va siyosiy tizim xususiyatlariga muvofiq ravishda rivojlangan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, dunyo mamlakatlarida prokuratura organlarining tashkil etilishi va vakolatlari yagona huquqiy model asosida emas, balki turli yondashuvlar asosida shakllangan. Ayrim davlatlarda prokuratura sud hokimiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda faoliyat yuritisa, boshqa mamlakatlarda u mustaqil nazorat instituti sifatida qonunlar ijrosi ustidan keng vakolatlarga ega. Shu jihatdan, sud hokimiyatining davlat boshqaruvi tizimida tutgan o'rniga qarab, prokuratura organlarining funksiyalari hamda sud

3 [https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20\(nazm\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf)



qarorlarini ijro etuvchi organlar faoliyatida sezilarli farqlar mavjud.

Xususan, Germaniya Federativ Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining huquqiy maqomi hamda sud qarorlarini ijro etish jarayonidagi ishtiroki o'rtasida prinsipial farqlar mavjud. Germaniyaning "Sud-huquq tizimi to'g'risida"gi qonuni 147-moddasiga⁴ muvofiq prokuratura ma'muriy jihatdan ijro etuvchi hokimiyat Adliya vazirligiga bo'ysunishi bilan xarakterlanadi. Bu holat prokuratura faoliyatining asosan jinoiy ta'qib va sudlarda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash funksiyasiga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Shu sababli Germaniya modelida prokuratura sud qarorlarini ijro etish jarayonida bevosita nazorat vakolatlariga ega emas, ijro ishlari alohida ijro etuvchi tuzilmalar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida esa prokuratura organlari mustaqil davlat instituti sifatida faoliyat yuritadi va qonunlar ijrosi ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish vakolatiga ega. Ayniqsa, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijrosi sohasida prokuratura davlat ijrochilari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu nazorat ijro intizomini ta'minlash, qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklashga qaratilgan.

Germaniya modelida prokurorlar sud hokimiyati bilan institutsional jihatdan bog'liq bo'lgan holda faoliyat yuritadi, O'zbekistonda prokuratura qonun ustuvorligini ta'minlovchi alohida nazorat organi sifatida shakllangan. Bu farq sud qarorlarini ijro etish jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Germaniyada ijro masalalari asosan sudlar va maxsus ijro organlari vakolatiga kiritilgan bo'lsa, O'zbekistonda ijro jarayoni ustidan prokuror nazoratiga inson huquqlarini ta'minlashning muhim kafolati sifatida qaraladi.

Shu tariqa, Germaniya modelida prokuraturaning ijro ishi yuritish sohasidagi ishtiroki cheklangan va bilvosita xarakterga ega bo'lsa, O'zbekiston modelida prokuratura faol ishtiroki bilan ajralib turadi. Bu holat O'zbekistonda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijrosini inson huquqlarini ta'minlash bilan uzviy bog'lab qarash tendensiyasi ustuvor ekanini ko'rsatadi hamda prokuraturaning ushbu sohadagi roli institutsional jihatdan kengroq ekani bilan ajralib turadi.

Sud hujjatlarining ijrosi adolatni tiklashning yakuniy bosqichidir. Ijro etilmagan sud hujjati yoki

boshqa organlar hujjatlari huquqiy kuchga ega bo'lsa-da, inson huquqlarini amalda ta'minlamaydi. Alimlar undirish, ish haqini undirish, uy-joy masalalari bo'yicha qarorlarning kech ijro etilishi fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini jiddiy buzadi.

O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni sud qarorlarini majburiy ijro etish mexanizmini belgilab beradi. Biroq, qonun normalarining amalda bajarilishi samarali nazoratsiz to'liq ta'minlanmaydi.

Shu ma'noda prokuror nazorati ijro intizomini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi davlat ijrochilariga keng majburlov vakolatlarini berilgan. Mazkur vakolatlar mulkiy huquqlar, mehnat huquqlari va shaxsiy daxlsizlik bilan bevosita bog'liq. Agar ushbu vakolatlar qonunga zid qo'llanilsa, inson huquqlarining jiddiy buzilishiga olib keladi.

Amaliyotda mol-mulkni asossiz xatlash, ijro harakatlarini kechiktirish, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmaslik holatlari uchraydi. Bunday holatlar fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.

Shu sababli davlat ijrochilari faoliyati ustidan samarali prokuror nazorati obyektiv zarurat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, prokuratura organlari O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi⁵. Bu nazorat davlat ijrochilari faoliyatiga ham taalluqli.

Prokuror nazoratining mohiyati va maqsadi avvalo, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Qonunbuzarlik holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda buzilgan huquqlarni tiklash prokuror nazoratining asosiy vazifalari hisoblanib, mazkur faoliyat inson qadr-qimmatini himoya qilishning amaliy kafolati sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijrosi sohasida prokuror nazorati fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini real ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Prokuror nazoratining predmeti Konstitutsiya va

4 Нимеллер М. Уголовное судопроизводство и роль прокуратуры в Германии // Советская юстиция. 1994 г. № 10. – С. 29

5 <https://www.lex.uz/acts/106197>



qonun hujjatlariga rioya etilishini qamrab olgan holda, ijro ishi yuritish sohasida inson huquqlariga bevosita daxldor bo'lgan munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Sud qarorlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilmasligi fuqarolarning mulk huquqi, mehnat huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi hamda sud himoyasiga bo'lgan huquqini amaliy jihatdan cheklab qo'yadi. Shu bois davlat ijrochilari tomonidan majburlov choralarining qonuniy va mutanosib qo'llanilishi ustidan prokuror nazoratiga inson huquqlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolati sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, prokuror nazorati inson huquqlarini ta'minlashda huquqiy mutanosiblik tamoyiliga tayanadi. Prokuratura organlari davlat ijrochilari-ning tezkor yoki tashkiliy faoliyatiga aralashmasdan, faqat qonunbuzarlik holatlari mavjud bo'lgan taqdirdagina ta'sir choralarini qo'llaydi. Bu yondashuv inson huquqlarini himoya qilish bilan bir vaqtda davlat organlari vakolatlarining muvozanatli amalga oshirilishini ta'minlaydi hamda davlat hokimiyati tizimida vakolatlar taqsimoti prinsipiga rioya etilishiga xizmat qiladi.

Huquqni qo'llash amaliyoti prokuror aralashuvi fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklashda muhim huquqiy mexanizmlardan biri ekanini ko'rsatmoqda. Prokuror tomoni-

dan qo'llaniladigan ta'sir choralari, jumladan, protest kiritish, taqdimnoma berish va sudlarga da'vo arizalari bilan murojaat qilish ijro jarayonida yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf etish hamda inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Mazkur holat prokuror nazoratining mohiyati davlat manfaatlarini ta'minlash bilan cheklanmasdan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati inson huquq va erkinliklarini amaliy ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Sud qarorlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishi fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishning ajralmas sharti bo'lgani sababli mazkur sohada qonuniylikni ta'minlash ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan prokuror nazorati institutini yanada takomillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda ijro intizomini kuchaytirish qonun ustuvorligini ta'minlashga, shuningdek, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

#



TA'LIM OLISH HUQUQINI TA'MINLASHDA MASOFAVIY TA'LIMNING ME'YORIY-HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada masofaviy ta'limning me'yoriy-huquqiy va metodologik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida J.Piaje va L.Vigotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyalari hamda D.Jonassenning konstruktivizm nazariyasining masofaviy o'qitish tizimidagi o'rni yoritib berilgan. Muallif masofaviy ta'limni tashkil etishning xalqaro amaliyotda mavjud bo'lgan beshta asosiy modelini (konsorsium, shartnomaviy, avtonom, an'anaviy va virtual universitet) qiyosiy o'rganib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

Maqolada, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga o'tish jarayonlari, mavjud muammolar va erishilgan yutuqlar tahlil qilingan. Asosiy e'tibor masofaviy ta'limning konstitutsiyaviy "ta'lim olish huquqi"ni ta'minlashdagi roli, inklyuzivligi hamda ushbu tizimni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish zaruratiga qaratilgan. Yakunda O'zbekistonda masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish va huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida "virtual universitet" tashkil etish taklifi ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы нормативно-правовые и методологические основы дистанционного образования. В ходе исследования освещена роль теорий когнитивного развития Ж.Пиаже и Л.Виготского, а также теории конструктивизма Д.Джонассена в системе дистанционного обучения. Автор провёл сравнительное изучение пяти основных моделей организации дистанционного образования, существующих в международной практике (консорциум, договорная, автономная, традиционная и виртуальный университет), и раскрыл их особенности.

В статье также проанализированы процессы перехода к дистанционному образованию в государствах Центральной Азии в период пандемии COVID-19, существующие проблемы и достигнутые результаты. Основное внимание уделено роли дистанционного образования в обеспечении конституционного «права на образование», его инклюзивности, а также необходимости совершенствования правовой базы, регулирующей данную систему. В заключение выдвинуто предложение о создании «виртуального университета» в целях повышения эффективности дистанционного образования в Узбекистане и его правового укрепления.

ABSTRACT. This article provides a scientific and theoretical analysis of the legal-regulatory and methodological foundations of distance education. The study highlights the role of the cognitive development theories of J.Piaget and L.Vygotsky, as well as D.Jonassen's theory of constructivism, in the distance learning system. The author comparatively examines five main models of organizing distance education existing in international practice (consortium, contractual, autonomous, traditional and virtual university) and reveals their specific features.

The article also analyzes the processes of transition to distance education in Central Asian countries during the COVID-19 pandemic, the existing problems and the achieved results. Particular attention is paid to the role of distance education in ensuring the constitutional "right to education", its inclusiveness, and the need to improve the legal framework regulating this system. In conclusion, a proposal is put forward to establish a "virtual university" in order to increase the effectiveness of distance education in Uzbekistan and strengthen its legal basis.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, ta'lim metodologiyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi, konstruktivizm, me'yoriy-huquqiy asoslar, ta'lim olish huquqi, "virtual universitet", ta'lim modellari, raqamli texnologiyalar, sinxron va asinxron o'qitish, Markaziy Osiyo ta'lim tizimi.

Ключевые слова: дистанционное образование, методология образования, теория когнитивного развития, конструктивизм, нормативно-правовые основы, право на образование, «виртуальный университет», модели образования, цифровые технологии, синхронное и асинхронное обучение, система образования Центральной Азии.

Key words: distance education, educational methodology, cognitive development theory, constructivism, legal and regulatory framework, right to education, "virtual university", education models, digital technologies, synchronous and asynchronous learning, Central Asian education system.

Masofaviy ta'limning nazariy-huquqiy asoslari, modellari va yondashuvlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki, axborot texnologiyalari va internetning jadal rivojlanishi an'anaviy ta'lim tizimini transformatsiya qilib, global miqyosda bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masofaviy ta'lim metodologiyasini ilmiy tahlil qilish orqali o'qitish samaradorligini

oshirish hamda jarayonni amaldagi qonunchilikka moslashtirish, pirovardida esa ta'limda ijtimoiy adolat va huquqiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Y.Hakimova¹, T.Zaychenko va boshqa olimlarning ta'kidlashicha, metodologik asoslar – bu o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, samarali usullarni tanlash va talabalarning bilim olishiga ko'maklashuvchi fun-

¹ Hakimova Y. (2022). Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni joriy qilish bosqichlari. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 1139–1142. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2552>



damental qoidalaridir. Ushbu asoslar nafaqat o'qitish va baholash tizimini tartibga soladi, balki ta'limga raqamli texnologiyalarni (veb-saytlar, videokonferensiyalar, interaktiv dasturlar) integratsiya qilish hamda huquqiy me'yorlarga rioya etishni ham kafolatlaydi.

Fikrimizcha, masofaviy ta'limning metodologik asosi masofaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, yetkazib berish va baholash uchun qo'llaniladigan tamoyillar, strategiyalar va metodlar majmuasidir. U texnologiyadan foydalanish, o'qitishni loyihalash va baholashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda o'rganishni osonlashtirish uchun munozaralar, vebinarlar va virtual sinflar kabi onlayn vositalardan foydalaniladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan masofaviy ta'limni tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani, undagi muammolarni to'liq tushunish va tahlil qilish uchun delphi metodi, panel muhokamasi, funksional usul, doktrinal usul, strukturaviy usul, kontekstual usul, tarixiy usul va sotsiologik so'rov usullarini qo'llash mumkin, bu metodlar huquqiy tahlil orqali masofaviy ta'limning huquqiy va amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

XX asrda Jan Piaje² va Lev Vigotskiy³ kabi yevropalik olimlar masofaviy ta'lim dasturlarini loyihalashda foydalanilgan kognitiv rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqdilar. Masofaviy ta'limga alohida to'xtalmagan bo'lsa-da, ularning ta'lim va rivojlanish haqidagi g'oyalari talabalar uchun samarali va qiziqarli ta'lim tajribasini yaratish uchun masofaviy ta'limda keng qo'llaniladi.

Bizningcha, kognitiv rivojlanish nazariyasi masofaviy ta'lim metodologiyasining muhim qismlaridan biridir. Ushbu nazariya talabalar o'rganishlarini va ularning ehtiyojlarini qondirish uchun yo'riqnomalar loyihalashning eng yaxshi usullarini tushunish uchun asos yaratadi. Nazariya talabalarining vaqt o'tishi bilan bilimlarni egallashi va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi kognitiv rivojlanishning turli bosqichlarida talabalar uchun mos bo'lgan masofaviy ta'lim kurslarini loyihalash uchun ham ishlatiladi. Misol uchun, kichik kursdagi talabalar uchun darslar aniq tushunchalar va amaliy mashg'ulotlarga, katta kursdagi talaba-

lar uchun esa mavhum tushunchalarga va murakkabroq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Shuningdek, kognitiv rivojlanish nazariyasi masofaviy ta'limda texnologiyadan foydalanish haqida ma'lumot beradi. Texnologiya talabalarga ularning kognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi interfaol va qiziqarli ta'lim tajribasini taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin.

Nazarimizda, masofaviy ta'limda kognitiv rivojlanish nazariyasini qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv maqsadlariga erishishga yordam berishlari mumkin. Bu talabalarga tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ham akademik, ham kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Masofaviy ta'limda kognitiv rivojlanish nazariyasini qo'llash orqali o'qituvchilar talabalarga o'zlarining ta'lim maqsadlariga va tanlagan sohalarida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

XXI asrda Stiven Heppel⁴ va Devid Jonassen⁵ kabi yevropalik olimlar masofaviy ta'lim muhitini loyihalashda foydalanilgan o'rganish nazariyalarini ishlab chiqdilar.

Devid Jonassen konstruktivizm nazariyasi va ta'lim texnologiyalari sohasida hozirgi yetakchi hisoblanadi. Konstruktivizm – bilimlarni qurishda talabaning faol roli muhimligini ta'kidlaydigan o'rganish nazariyasi.

Konstruktivizm – talabalar axborotni passiv qabul qilib olmasdan, bilimni o'zlari faol shakllantirishini ta'kidlaydigan nazariya. Insonlar hayot kechirar va bu tajribalar ustida mulohaza yuritir ekan, ular o'z tasavvurlarini yaratadilar va yangi ma'lumotlarni o'zlarining oldingi bilimlariga (sxemalariga) kiritadilar⁶.

U bilim oddiygina professor-o'qituvchidan talabaga uzatilmaydi, balki talabaning o'z tajribasi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabati orqali shakllanadi degan g'oyaga asoslanadi. Konstruktivizmdan talabalarining bir-biri va professor-o'qituvchi bilan o'zaro munosabatda bo'lishiga imkon beruvchi faoliyatni yaratishda ham foydalanish mumkin, bu esa jamoa va hamkorlik tuyg'usini shakllantirishga

2 Jan Piaje. Nazariyasi va kognitiv rivojlanish bosqichlari. Saul MakLeod tomonidan, Simply Psychology, yangilangan, 2018. <https://simplypsychology.org/piaget.html>

3 Van der Veer R. va Valsiner J. (1991). Vigotskiyni tushunish. Sintez uchun qidiruv. Oksford: Bazil Blekvell. <https://scholarlypublications.universiteitleiden.nl/handle/1887/10170>

4 Professor Stiven Heppel (Buyuk Britaniya). www.creativeinnovationglobal.com.au 2021-07-08. U Buyuk Britaniyaning Ta'lim va ko'nikmalar departamenti (DfES) tomonidan "texnologiya va ta'lim sohasidagi so'nggi yillardagi eng nufuzli akademik" va Microsoft tomonidan "Yevropaning onlayn ta'lim bo'yicha yetakchi eksperti" sifatida ta'riflangan.

5 Jonassen D. (2010). Ta'lim psixologiyasi va ta'lim texnologiyalari // <http://web.missouri.edu/jonassend/index.html>. Devid Jonassen konstruktivizm nazariyasi va ta'lim texnologiyalari sohasida hozirgi etakchi hisoblanadi.

6 University at Buffalo (UB). Office of Curriculum, Assessment and Teaching Transformation. Constructivism [https://www.buffalo.edu/catt/develop/theory/constructivism.html#:~:text=Constructivism%20is%20the%20theory%20that,%20existing%20knowledge%20\(schemas\)](https://www.buffalo.edu/catt/develop/theory/constructivism.html#:~:text=Constructivism%20is%20the%20theory%20that,%20existing%20knowledge%20(schemas)).



yordam beradi. Konstruktivizm har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, o'z tezligida va o'ziga xos tarzda o'rganish imkonini beruvchi o'quv faoliyatini yaratishda qo'llaniladi.

Tahlilimizga ko'ra, kognitiv rivojlanish nazariyasi ham, konstruktivistik nazariya ham samarali masofaviy ta'lim tajribasini loyihalash uchun muhim asos bo'lsa-da, kognitiv rivojlanish nazariyasi ko'proq talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, konstruktivizm nazariyasi esa bilimlarni egallashda talabaning faol rolini ta'kidlaydi.

Yevropalik zamonaviy huquqshunos olimlar (Yens Schovsbo⁷, Yorg Fedtke⁸, Tomas Horen⁹, Tomas Drayer¹⁰, Kristian Vendexorst¹¹, Yurgen Basedov¹², Kristian Joyerges¹³) masofaviy ta'lim metodologiyasini qo'llab-quvvatlab, unga talabalarning keng doirasiga huquqiy ta'lim berish uchun qimmatli vosita sifatida qaraydilar. Ularning ta'kidlashicha, masofaviy ta'lim yuridik ta'limni yanada moslashuvchan va tejankor yo'l bilan ta'minlab, talabalarga dunyoning istalgan nuqtasidan darslarda qatnashish imkonini beradi. Bu olimlar geografik yoki moliyaviy cheklovlar tufayli an'anaviy darslarga qatnasha olmaydiganlar uchun huquqiy ta'lim olish imkoniyatini oshirishda masofaviy ta'lim imkoniyatlarini ijobiy baholashadi.

Nazarimizda, masofaviy ta'limning uslubiy asoslarini ta'lim olish huquqi tamoyillari bilan uyg'unlashtirib, ta'lim muassasalari shaxslarga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jamoalarining ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish imkonini beradigan inklyuziv, qulay va yuqori sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishi mumkin.

Osiyolik huquqshunos olimlar masofaviy ta'lim haqida turli fikrlar bildirgan. Ba'zilar masofaviy ta'lim chekka hududlardagi talabalar uchun foydali bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, chunki bu ularga o'z mintaqalarida mavjud bo'lmagan ta'lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi. Boshqalar esa yuzma-yuz muloqotning yo'qligi va akademik korupsiya borligini aytib, masofaviy ta'lim sifati yuzasidan xavotir bildirishadi. Ayrimlari ekstremistik

mafkuralarni tarqatish uchun masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyatlaridan xavotirda. Ba'zilar talabalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash uchun masofaviy ta'limni yanada qattiqroq tartibga solish kerakligini ta'kidlaydilar¹⁴.

Amerikalik olimlar masofaviy ta'limni ta'limning hayotiy va samarali shakli deb bilishadi. Ular ta'limni osonlashtirish uchun texnologiyadan foydalanish muhimligini tan oladilar va masofaviy ta'lim uchun kuchli metodologik asos zarurligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, amerikalik olimlar muvaffaqiyatli natijalarni ta'minlash uchun talabalar hamda o'qituvchilarga yordam va yo'l-yo'riq ko'rsatish muhimligini e'tirof etishadi¹⁵.

Tadqiqotlarimizga ko'ra, uzoq joydagi va kam ta'minlangan aholi uchun ta'lim olish imkoniyatini, masofaviy ta'lim platformalari sifati, yaxlitligi va undan noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq muammolarni hal qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hukumat, ta'lim muassasalari, texnologiya provayderlari va jamiyatning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Adolat, sifat va axloqiy jihatlar ustunlik berib, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va o'rganish tajribasining yaxlitligi hamda samaradorligini himoya qilishda foydalanish mumkin.

Xalqaro me'yoriy hujjatlar ta'lim huquqini shaxsning muhim ijtimoiy huquqi sifatida belgilaydi va sifatli ta'lim olishni kafolatlaydi. Masofaviy ta'limni rivojlantirish huquqiy asoslarining yanada aniqroq misoli sifatida 2007-yil Ashxobodda qabul qilingan MDH davlatlarida masofaviy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini keltirish mumkin. Ushbu qaror bilan tasdiqlangan MDH davlatlarida masofaviy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi 2001-yil 29-noyabrda qabul qilingan MDH davlatlari yagona (umumiy) ta'lim fazosini shakllantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha davlatlararo dasturga muvofiq ravishda, shuningdek, 1997-yil 17-yanvarda imzolangan MDH davlatlarining yagona (umumiy) ta'lim fazosini shakllantirish bo'yicha hamkorlik to'g'ri-

7 Schovsbo, Jens, ed. Intellectual Property Rights in Times of Crisis. Edward Elgar Publishing, 2024.

8 Doktor Yorg Fedtke Gamburg universiteti huquq professori // <https://law.tulane.edu>.

9 Doktor Tomas Xoren Myunster universiteti huquq professori // <https://www.itm.nrw/en/organisation/prof-dr-thomas-hoeren>.

10 Doktor Tomas Drayer Kyoln universiteti huquq professori // <https://www.miplt.de/llm-ip/faculty/dreier/>.

11 Doktor Kristian Vendexorst Vena universiteti huquq professori. <https://id.univie.ac.at/en/team/univ-prof-dr-christiane-wendehorst-llm>.

12 Doktor Yurgen Basedov Frayburg universiteti huquq professori // <https://www.mpipriv.de/1075943/juergen-basedow>

13 Doktor Kristian Joerges Bremen universiteti huquq professori // <https://www.uni-bremen.de/jura/fachbereich-6-rechtswissenschaft/fachbereich/personen/prof-dr-christian-joerges>.

14 Insung Jung (International Christian University, Japan), Tat Meng Wong (Wawasan Open University, Malaysia), Chen Li (Beijing Normal University, China), Sanjaa Baigaltugs (Mongolia University of Science and Technology), Tian Belawati (Universitas Terbuka, Indonesia). Quality Assurance in Asian Distance Education: Diverse Approaches and Common Culture. <https://www.irrodl.org/index.php/irrodl/article/view/991>.

15 Burns, Mary. Distance Education for Teacher Training: Modes, Models and Methods. Retrieved 10 September 2012.



sidagi bitim asosida ishlab chiqilgan. Konsepsiya masofaviy ta'limni pedagogik hamda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi vaqt va makonda muvofiqlashtirilgan o'zaro aloqalar jarayoni sifatida belgilaydi. MDHga a'zo davlatlarda masofaviy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ta'limning zamonaviy talablarga mos kelishi va unga kirish imkoniyatini kengaytirish uchun huquqiy, texnologiyaviy va tashkiliy asoslar yaratishga qaratilgan muhim hujjatdir. Bu konsepsiya davlatlar o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish va yagona ta'lim fazosini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega¹⁶.

COVID-19 pandemiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlarida masofaviy ta'lim joriy etilishini tezlashtirdi¹⁷. Mintaqa mamlakatlarining masofaviy ta'limga tayyorgarligi turli darajada edi, ayrim davlatlar raqamli texnologiyalar va infratuzilmaga boshqalarga qaraganda ko'proq sarmoya kiritishiga to'g'ri keldi. YUNESKOning Olmaotadagi vakolatxonasi-ning 2021-yildagi "Markaziy Osiyoda oliy ta'lim" bayonotiga ko'ra¹⁸, O'zbekiston va Qozog'iston ta'lim sohasiga katta sarmoya kiritib, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, raqamli texnologiyalarni joriy etish va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirdi. Boshqa tomondan, Qirg'iziston va Tojikistonda masofaviy ta'lim uchun cheklangan resurslar va infratuzilma mavjud bo'lib, bu ularning COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limga o'tishga moslashishini qiyinlashtirdi.

I.Rustambekovning fikricha, raqamli texnologiyalar davrida har bir ta'lim tashkiloti nafaqat axborot texnologiyalari sohasini, balki universitet faoliyatining barcha yo'nalishini qamrab oladigan strategik yondashuvga rioya qilishi zarur¹⁹.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida masofaviy ta'lim metodologiyasi muassasa va dasturga qarab farqlanadi. Yevropa ta'lim jamg'armasida (European Training Foundation, ETF) 2020-yil 26-noyabr kuni bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyoda masofaviy va onlayn ta'limni o'rganish: ta'limda nimalar so-

dir bo'lyapti?" mavzusidagi veb-konferensiyada ham Markaziy Osiyoda masofaviy va onlayn ta'limning hozirgi holati tahlil qilingan²⁰. Ishtirokchilar ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik va sheriklik muhimligini, shuningdek, masofaviy va onlayn ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun texnologiya va infratuzilmaga sarmoya kiritish zarurligini ta'kidladilar.

X.Muhamedovning fikricha, bugungi kunda muayyan bir kursni uzoqdan o'rgangan kishi hayotda ko'proq yutuqlarga erishmoqda. Uning bir necha yildan beri universitetda o'qiyotgan odamga qaraganda bilimlarni hayotga tatbiq etish imkoniyati ko'proq. Shu sababli masofadan o'qitish imkoniyatlarini, uning ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganish ko'pchilikni qiziqtirmoqda. To'g'ri-da, jamiyat tobora rivojlanib boradi, taraqqiyot hech qachon to'xtab turmaydi. Doimo yangicha fikrlaydigan va innovatsiyalarga intiladigan yosh avlod tug'ilaveradi. Bu avlod hamisha zamonaviy va inson hayotini osonlashtiradigan yangi-yangi g'oyalar va moslashuvlarga ehtiyoj sezib boraveradi. Bunday jarayon barcha sohalarda, shu jumladan, ta'lim sohasida ham yuz beradi. Mamlakatimizda pandemiya sharoitida qisqa fursatlarda ta'lim tizimi masofaviy o'qitishga o'tkazildi. Natijada boshlang'ich, umumiy o'rta va oliy ta'lim bosqichlarida masofaviy o'qitish jarayonlari tizimli ravishda va izchillik bilan yo'lga qo'yilib, o'quv jarayonlaridagi uzilishlarning oldi olindi. Biroq, O'zbekistonda masofadan o'qitish yangilik hisoblanadi. Shunga qaramay, u ko'plarni o'ziga jalb qildi²¹.

Fikrimizcha, masofaviy ta'limning amaliy tajribasi talabalar uchun kengroq imkoniyatlar yaratgan bo'lsa-da, X.Muhamedov keltirgan masofadan ta'lim olganlarning bilimni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati an'anaviy ta'lim olganlarnikidan yuqori degan xulosa alohida tadqiqotlar bilan tasdiqlanmaguncha ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishi lozim, deb hisoblaymiz. Chunki, bunday natija ko'p jihatdan talabaning shaxsiy intizomiga, o'quv resurslariga kirish imkoniyatiga va tanlangan soha xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimiz bo'yicha min-

16 Sh.Xo'jayev Koronavirus pandemiyasi sharoitida masofaviy ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilmiy-amaliy jurnal. 2020-yil, maxsus son 43-bet // <https://library-tsul.uz/ru/yuridik-fanlar-axborotnomasi-maxsus-son-2020>

17 Coronavirus Tests Central Asian Countries' Readiness for Distance Education. This article was prepared as part of the Giving Voice, Driving Change – from the Borderland to the Steppes Project. <https://cabar.asia/en/coronavirus-tests-central-asian-countries-readiness-for-distance-education>

18 Policy brief: higher education in Central Asia. UNESCO Office in Almaty .ATA-2021/PI/2.5 pages <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377911>

19 Rustambekov I. Sohoni raqamlashtirish shaffoflikni ta'minlab, byurokratiyaning oldini oladi // "Yangi O'zbekiston". – 2022-yil 17-fevral 35-son.

20 Exploring Distance and Online Learning in Central Asia: What is happening with learning? – Session 2 <https://www.etf.europa.eu/en/news-and-events/events/exploring-distance-and-online-learning-central-asia-what-happening-0>

21 X.Muhamedov Masofaviy yuridik ta'lim va uning istiqbollari. Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilmiy-amaliy jurnal. 2020-yil, maxsus son 12-bet. <https://library-tsul.uz/ru/yuridik-fanlar-axborotnomasi-maxsus-son-2020/>



taqada masofaviy ta'lim metodologiyasida qo'llaniladigan umumiy yondashuvlar va texnologiyalar mavjud.

Birinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ko'plab universitetlar masofaviy ta'lim darslarini o'tkazish uchun onlayn ta'limni boshqarish tizimlaridan foydalanadi. Ushbu tizimlar o'qituvchilarga kurs materiallari, topshiriqlar va baholashlarni yuklash, talabalarga esa ushbu materiallarga kirish va o'z ishlarini topshirish uchun platformani taqdim etadi.

Ikkinchidan, mintqa mamlakatlaridagi masofaviy ta'lim dasturlari sinxron ta'limdan foydalanishi mumkin, bunda talabalar va o'qituvchilar real vaqt rejimida videokonferensiya yoki chat orqali o'zaro aloqada bo'lishadi yoki asinxron ta'limdan foydalanishi mumkin, bunda talabalar kurs materiallariga o'zlariga qulay vaqtda kirib, topshiriqlarni bajaradi.

Uchinchidan, mazkur mamlakatlardagi ba'zi masofaviy ta'lim dasturlari aralash ta'lim yondashuvidan foydalanadi, bunda onlayn ta'lim yuzma-yuz o'qitish bilan uyg'unlashadi. Ushbu yondashuv talabalariga o'qituvchilar va tengdoshlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lgan holda onlayn o'qitishning moslashuvchanligidan foydalanish imkonini beradi.

To'rtinchidan, mobil qurilmalar va internetga kirish imkoniyati ortib borayotgani sababli Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ba'zi masofaviy ta'lim dasturlari mobil ta'lim yondashuvlaridan foydalanmoqda. Bu talabalarga kurs materiallariga kirish va topshiriqlarni mobil qurilmalarida bajarish imkonini beradi, bu esa ko'proq moslashuvchanlik va qulaylikni ta'minlaydi.

Beshinchidan, mintqa mamlakatlaridagi ko'plab universitetlar akkreditatsiya va sifatni ta'minlash jarayonlari orqali masofaviy ta'lim dasturlari sifatini ta'minlash ustida ishlamoqda. Bunga kurs materiallarining dolzarb, o'qituvchilarning malakali va tajribali bo'lishini hamda talabalarining qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash kiradi.

Tadqiqot jarayonida masofaviy ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar darsini qanday metodlarda o'tishi yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda "Siz tahsil olayotgan OTMda masofaviy ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar darsni qanday usullar yordamida o'tadi (bir necha javobni tanlash mumkin)?" savoliga respondentlarning 1695 nafari (66 %) o'qituvchilar real vaqt (onlayn) rejimida dars o'tadi, deb javob berishgan. 902 nafar (35 %)

talaba professor-o'qituvchilar darsni muhokama shaklida o'tishini ma'lum qilgan. Bundan ko'rindiki, professor-o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini asosan sinxron shaklda o'tmoqda.

Masofaviy ta'lim dasturlari muvaffaqiyati uchun masofaviy ta'lim metodologiyasi va modullarining samarali aloqasi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar dars davomida o'quv maqsadlari, kutilgan natijalar, kurs materiallari, fikr-mulohazalar va sifatni ta'minlash jarayonlarini aniq va izchil ravishda yetkazishi kerak.

Masofaviy ta'lim tizimlaridagi farqlar bir necha modellarda namoyon bo'ladi: konsorsium modeli (bir necha oliy ta'lim muassasasi umumiy texnologiyalardan foydalanadi), shartnomaviy model (resurslarni birlashtirgan oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlarini yaratadi), avtonom model (maxsus yaratilgan oliy ta'lim muassasalari masofaviy ta'lim beradi), an'anaviy model (masofaviy ta'lim bo'limlari mavjud bo'lgan an'anaviy oliy ta'lim muassasalari) va "virtual universitet" modeli (faqat virtual tarmoq orqali ta'lim beriladi).

Mavjud masofaviy ta'lim tizimlaridagi farqlar ularni amalga oshirishda joriy etilgan tashkiliy tuzilmalarning turli modellari bilan o'rganiladi.

Birinchi model oliy ta'lim muassasalarining konsorsiumlarga yoki o'quv muassasalari uyushmalariga birlashishi bilan tavsiflanadi. O'qitish har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'z ta'lim dasturlarida, biroq hamma uchun umumiy bo'lgan texnologiyada amalga oshiriladi. Ta'lim to'g'risidagi hujjatlar (diplomlar, sertifikatlar, ma'lumotnomalar va b.) oliy ta'lim muassasasining o'zi tomonidan beriladi. Ushbu modelning asosiy xususiyati shundaki, konsorsium o'quv dasturlarini taklif qilmaydi va ishlab chiqarmaydi, daraja va sertifikatlarni bermaydi. Bunday konsorsiumlarga misol sifatida Kaliforniya virtual universiteti²², Ochiq ta'lim bo'yicha agentlik²³ (Avstraliya) va boshqalarni keltirish mumkin.

Ikkinchi model masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim xizmatlarini birgalikda taqdim etish uchun oliy ta'lim muassasasi resurslarini birlashtirishga asoslangan shartnomaviy yoki brokerlik tashkilotlari misolida namoyon bo'ladi. Ushbu model o'z ta'lim dasturlarini (kurslarini) yaratishni, diplomlar va sertifikatlarni berish huquqiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Shartnomaviy birlashmalarga misol sifatida bugungi kunda 50 dan ortiq universitetni birlashtiruvchi Milliy texnologik universitetni (AQSH)²⁴ keltirish mumkin.

22 The California Virtual University. <https://www.asccc.org/content/california-virtual-university>

23 eLearning Development Services. <https://learnstudios.com.au/services/>

24 Marilyn Elaine Mays "The Historical Development and Future of The National Technological University", Dissertation, University of North Texas, August 1988, p. 28.



Uchinchi model faqat masofaviy ta'lim texnologiyasi orqali ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash uchun maxsus yaratilgan avtonom oliy ta'lim muassasalari misolida namoyon bo'ladi. Deyarli barcha mamlakatlarda ushbu sohada umume'tirof etilgan yetakchi oliy ta'lim muassasasi mavjudligi tabiiydir. Bularga Buyuk Britaniyadagi Ochiq universitet, Germaniyadagi Xagen sirtqi universiteti, Ispaniyadagi Masofadan o'qitish milliy universiteti, Fransiyadagi Masofaviy o'qitish milliy markazi misol bo'la oladi.

To'rtinchi model tarkibida masofaviy o'qitish bo'yicha ixtisoslashgan markaz (bo'lim, fakultet) mavjud an'anaviy oliy ta'lim muassasalari misolida namoyon bo'ladi. Ushbu tarkibiy bo'linma talabalarga masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim dasturining alohida fanlarini o'rganishni taklif etuvchi oliy o'quv yurtlari tarkibiga kiritilgan. Pensilvaniya universiteti masofaviy o'qitish markazi (AQSH) ushbu yondashuvga misol bo'ladi.

Beshinchi model masofaga qaramay zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda birgalikda ish yurituvchi ma'muriyat, o'qituvchilar, o'quv kursini ishlab chiquvchilar va ta'lim oluvchilar hamkorligiga asoslangan virtual tarmoq oliy ta'lim muassasalari yoki boshqacha aytganda, ochiq yoki "virtual universitet"lar misolida namoyon bo'ladi. "Virtual universitet"da o'quv binolari, kampuslar, majlis zallari mavjud emas, ammo diplom beradi, ilmiy darajalarni tayinlaydi. Niderlandiya Ochiq universiteti, Kataloniya Ochiq universiteti (Ispaniya) virtual universitetlarga misol bo'lishi mumkin.

Bizning nazarimizda, masofaviy ta'lim modellari aralashtirish, masofaviy va kunduzgi ta'limni birlashtirib, individual yondashuvni va virtual resurslardan foydalanishni ta'minlash ta'lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. O'zbekistonda "virtual universitet" ochish taklifi barcha mintaqalardan talabalar uchun yuqori sifatli ta'lim imkoniyatlarini taqdim etadigan, innovatsion texnologiyalar yordamida onlayn darslar, seminarlar va baholash tizimlarini tashkil etadigan yagona platforma asosida ta'lim muassasasini yaratishni nazarda tutadi. Bu loyiha konstitutsiyaviy huquq jihatidan ta'lim olish huquqini ta'minlash va barcha fuqarolarga ta'limga teng kirish imkoniyatini yara-

tishni, ma'muriy huquq jihatidan esa davlat ta'lim siyosatining samarali amalga oshirilishi va masofaviy ta'limning barcha normativ-huquqiy talablariga muvofiqligini ta'minlashni ko'zda tutadi.

X.Muhamedovning fikricha, masofadan o'qitish natijalari an'anaviy ta'lim natijalaridan kam yoki undan ustun emas. Masofaviy ta'limda o'quvchi o'quv materiallarining aksariyatini mustaqil ravishda o'rganadi. Bu esa o'quvchi va talabalarning dastur doirasida belgilangan har bir mavzuni chuqur va atroflicha o'zlashtirishi va tushunib olishiga sharoit yaratadi. Bilimni amaliyotda, ish joyida darhol qo'llash imkoniyati ularni mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish uni yanada qiziqarli va jonli qiladi, talabalarning ta'lim jarayoniga safarbarligi kuchayadi. Ularning ilm olishga qiziqish va intilishlari ortadi²⁵.

Rasmiy va xalqaro tashkilotlar talabalarga moslashuvchan va qulay ta'lim berishda masofaviy ta'lim modullarining muhimligini tan oladi. YUNESKoning masofaviy ta'lim bo'yicha hisobotida masofaviy ta'lim modullarini turli talabalar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlarda yashovchilar ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanadi²⁶. Jahon banki esa masofaviy ta'lim bo'yicha hisobotda masofaviy ta'lim modullari ko'pincha talabalarning ta'lim olishiga to'siqinlik qiladigan masofa, vaqt va xarajatlar to'siqlarini yengishga yordam berishi mumkinligini keltirib o'tadi²⁷.

Bizningcha, masofaviy ta'limning metodologik asoslarini huquqiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu ta'lim turi ta'lim olish huquqini ta'minlash va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Ammo samarali amalga oshirilishi uchun masofaviy ta'limning huquqiy me'yorlari va normativ talablarga mos kelishi, shuningdek, ta'lim standartlarini belgilash va ularni bajarish uchun to'liq qonuniy asos yaratish zarur. Masofaviy ta'limning metodologik asoslari konstitutsiyaviy huquq jihatidan ta'lim olish huquqini ta'minlash va barcha fuqarolarga teng kirish imkoniyatini yaratish, ma'muriy huquq jihatidan esa davlat tomonidan belgilangan normativ-huquqiy talablar va standartlarga muvofiqligini ta'minlab, ta'lim siyosatini samarali amalga oshiradi.

#

25 X.Muhamedov Masofaviy yuridik ta'lim va uning istiqbollari. Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilmiy-amaliy jurnal. 2020-yil, maxsus son 12-bet. <https://library-tsul.uz/ru/yuridik-fanlar-axborotnomasi-maxsus-son-2020/>

26 McIntosh, Christopher, and Zeynep Varoglu. "Perspectives on distance education: lifelong learning and distance higher education." (2005). <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000141218>

27 <https://documents.worldbank.org/en/publication/documentsreports/documentdetail/964121585254860581/remote-learning-distance-education-and-online-learning-during-the-covid19-pandemic-a-resource-list-by-the-world-banks-edtech-team>



Komil ALIXODJAYEV,
Farg'ona viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING MAQSADI, VAZIFALARI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi, vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Maqolada muallif aholi bandligini ta'minlashning nazariy va huquqiy asoslari, hozirgi davrda ushbu yo'nalishda qonuniyligni ta'minlashning ahamiyati, mazkur sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda prokuror nazoratining maqsadi, vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadi. Prokuror nazoratining mazkur yo'nalishi prokuror nazorati fani doirasida olimlar tomonidan umumiy asoslarda o'rganilgan bo'lsa-da, aynan alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Muallif ayrim o'rinlarda bir qator olimlar bilan ilmiy munozaraga kirishib, tadqiqot mavzusining bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются цели, задачи и особенности прокурорского надзора за исполнением законодательных актов, направленных на обеспечение занятости населения. В статье автор рассматривает теоретические и правовые основы обеспечения занятости населения, важность обеспечения законности в обеспечении занятости населения в современную эпоху, цели, задачи и особенности прокурорского надзора в условиях современных масштабных системных реформ. Хотя данное направление прокурорского надзора изучалось учеными на общих основаниях в рамках сфере прокурорского надзора, в качестве самостоятельной исследовательской темы она не изучалась. В некоторых моментах автор вступает в научную полемику с рядом учёных.

ABSTRACT. This article describes the purpose, tasks and specific features of prosecutorial supervision over the implementation of legislative acts aimed at ensuring employment of the population. In the article, the author discusses the theoretical and legal foundation of ensuring employment of the population, the importance of ensuring legality in this area in the modern era, the purpose, tasks and specific features of prosecutorial supervision in the context of large-scale systemic reforms being implemented in this area. Although this area of prosecutorial oversight has been studied by scholars in the general context of prosecutorial oversight, it has not been explored as an independent research topic. In some instances, the author engages in scholarly debat with several researchers. The author expresses his views on the current significance and relevance of the research topic.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, bandlik, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati, maqsad va vazifalar.

Ключевые слова: прокурорский надзор, занятость населения, прокурорского надзора за исполнением законодательства направленного на обеспечение занятости населения, цели и задачи.

Key words: prosecutorial supervision, employment of the population, prosecutorial supervision of the implementation of legislation aimed at ensuring employment of the population.

Hammamizga ma'lumki, mamlakatimizda prokuratura organlarining qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi bilan birga jamiyatda huquq va erkinliklar himoyachisi sifatidagi faoliyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlandi¹.

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi ijtimoiy adolat, umuminsoniy hamjihatlik va o'zaro mas'uliyat-

ning qonun bilan mustahkamlangan tamoyillari asosida ijtimoiy taraqqiyotga erishishdir. Ijtimoiy davlat aholining zaif qatlamlariga yordam berishga va adolat tamoyili asosida iqtisodiy foyda taqsimotiga ta'sir ko'rsatishga, har bir insonning munosib yashashini ta'minlashga chaqiriladi².

O'zbekistondagi barqaror iqtisodiy rivojlanish va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda erishgan muvaffaqiyatlari alohida e'tiborga loyiq. Ayniqsa, mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari – aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasining ortishi borasida amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar

1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>.

2 Устаменко И.В. Прокурорский надзор за соблюдением социальных прав и свобод человек и гражданина в Российской Федерации. Дисс... канд. наук. – С.34.



natijasidir³.

Aholi bandligini samarali ta'minlashning ahamiyati xususida ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida qayd etishgan. Jumladan, aholi bandligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan D.V.Zyablikovning fikricha, samarali bandlikni ta'minlash chuqurroq ilmiy o'rganish va tushunishni talab qiladi⁴.

N.A.Volginning "Mehnat bozori va aholi daromadlari" darsligida qayd etilishicha, ijtimoiy yo'naltilgan bozor iqtisodiyotida samarali bandlik munosib daromad, sog'liq va jamiyatning har bir a'zo-sining ijtimoiy unumdorlikni oshirish asosida va kasbiy rivojlanishni ta'minlaydigan bandlik sifatida belgilanadi⁵.

D.V.Zyablikovning fikricha, samarali bandlik tushunchasi barcha iqtisodiyotlar uchun umumiydir. Iqtisodiyotda samarali bandlik shakllanadi yoki iqtisodiy tizim qulaydi⁶.

O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni 5-moddasida aholi bandligi sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan. Unga ko'ra, ushbu sohadagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;

aholi bandligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

shaffoflik va ochiqlik;

ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o'tishda ko'maklashish;

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta'minlash;

kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta'minlash sharoitlaridagi, mehnatga haq to'lashdagi, xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;

majburiy mehnatni taqiqlash, ya'ni biron-bir jazo qo'llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni taqiqlash⁷.

Aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan nazorat prokuror nazoratining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda uning ahamiyati davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Prokuror nazoratining yo'nalishlari haqida huquqshunos olimlar tomonidan bir-biriga o'xshash ilmiy qarash va fikrlar bildirilgan. Jumladan, Y.R.Ergashevning fikricha, yo'nalish "prokuratura faoliyatining ma'lum predmeti va usuli, vazifalari, vakolatlari va huquqiy vositalari bilan tavsiflangan sohasi" sifatida qaraladi⁸.

Y.Y.Vinokurov esa "Yo'nalish deganda, huquqiy munosabatlarning ma'lum bir sohasida muayyan qonun yoki qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish", deb ta'riflaydi⁹.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

ish o'rinlari tashkil etilishini rag'batlantirish va aholi bandligiga ko'maklashish, shu jumladan ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko'maklashish;

ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralari ko'rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko'maklashish;

yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta'minlash bo'yicha choralarni amalga oshirish;

aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq to'lash mexanizmlarini ta'komillashtirish;

aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

3 Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati. Uslubiy qo'llanma // Yu.f.f.d. (PhD) A.B.Komilov va boshqa mualliflar jamoasi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi, 2021-yil, 28-bet.

4 Зябликов Д.В. Теоретические аспекты эффективной занятости населения // Электронный журнал Исследовано в России, 2004 г. – С. 3-4. // <http://zhurnal.ape.relarn.ru/articles/2004/>.

5 Рынок труда и доходы населения: Учеб. пособие/Под ред. Н.А. Волгина. – М.: Информационно-издат. дом «Филин», 1999 г. – С. 32.

6 Зябликов Д.В. Теоретические аспекты эффективной занятости населения // Электронный журнал Исследовано в России, 2004 г. – С. 5-6. // <http://zhurnal.ape.relarn.ru/articles/2004/>.

7 <https://lex.uz/docs/5055690>

8 Эргашев Е.Р. Прокурорский надзор в Российской Федерации: учеб. для бакалавров. М.: Юрайт, 2012 г. – С. 22.

9 Прокурорский надзор: курс лекций и практикум. 7-э изд., перераб. И доп. / под ред. Ю.Е.Винокуров. М., 2006 г. – С. 148-150.



ishga joylashtirish jarayonlariga ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko'maklashish, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash¹⁰.

Ushbu masalada olim V.G.Bessarabovning fikriga to'liq qo'shilish mumkin. Uning aytishicha, qonunlar ijrosini amalga oshirishda prokuror nazoratining vazifalarini doimiy qilib belgilab qo'yib bo'lmaydi, ular davlat va jamiyatda sodir bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida o'zgarib turadi¹¹.

Bundan tashqari, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 29-maqсадida hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish belgilangan.

Yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda hamda ushbu yondashuvni asos qilib aytish mumkinki, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati prokuratura faoliyatining alohida yo'nalishi hisoblanadi.

Sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining maqsadi va vazifalari haqida so'z yurit-sak, bu borada huquqshunos olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilganligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda F.X.Sheregovaning prokuror nazoratining maqsadi va vazifalari ahamiyati haqida bildirgan fikriga to'la qo'shildamiz. Uning nuqtayi nazaricha, prokuror nazoratining maqsad va vazifalari tushunchasi mazmunini to'g'ri tushunish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mohiyatan prokuratura organlarining nazorat fa-

oliyatini tashkil etish darajasini oldindan belgilab beradi¹².

S.I.Ojegov "Vazifa – ijroni, ruxsatni talab qiladi" degan bo'lsa¹³, Y.Y.Vinokurov "Prokuror nazorati vazifalari prokuratura maqomi, uning davlatdagi o'rne va roli bilan belgilanadi", deb aytadi¹⁴.

Shuningdek, B.V.Korobeynikov "Prokuror nazoratining vazifalari maqsadlaridan ko'ra aniqroq, nazorat vazifalari ko'proq (maqsadlarga nisbatan) va bir-biridan farq qiladi" degan fikrni bildiradi¹⁵.

N.N.Karpov "prokuraturaning vazifalari faqat qonun bilan belgilanishi mumkin"¹⁶ligini aytgan bo'lsa, V.P.Ryabsev "Prokuratura funksiyasini qonun bilan belgilangan mustaqil faoliyat turi sifatida tushunish kerak, qaysiki prokuratura organlari vazifalarida ifoda etiladigan, ushbu vazifalarni hal etishga qaratilgan va yuklatilgan vakolatlar hamda huquqiy vositalardan foydalanishni talab etadigan ijtimoiy maqsadi bilan belgilanadi"¹⁷ degan fikrni bayon qiladi.

D.Y.Parshuninning ta'kidlashicha: "Umuman olganda prokuratura organlarining funksiyalari uning ijtimoiy ahamiyatli mohiyatini va uning faoliyatining mazmunini belgilaydi, uning amalga oshirilishi huquqni qo'llash faoliyatining turli sohalarida davlat nazoratining asosiy funksiyasini prokuratura organlariga xos qonunchilik bilan belgilangan tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshirish bilan bog'liq"¹⁸.

O.M.Madaliyev prokuratura idoralarining birlamchi vazifalari qonunning yagonaligini ta'minlash, buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash va qonun buzilishini bartaraf etish choralarini ko'rishdir, deb ta'kidlaydi¹⁹.

Professor Y.Vinokurovning fikricha, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining vazifalari quyidagilardan iborat:

– qonun buzilishlari to'g'risida xabarlar kelib tushganda prokuror aralashuvining lozimligi;

10 O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonuni 6-moddasi // <https://lex.uz/docs/5055690>

11 Бессарабов В.Г. Прокурорский надзор. М.: 2006 г. – С.189-190.

12 Шерегова Ф.Х. Прокурорский надзор за исполнением законодательства о правах граждан на медицинскую помощь. Дисс... канд. наук. М. 2009 г. – С. 62.

13 Ожегов С.И. Словар русского языка. М.: Рус. яз., 1986 г. – С.175.

14 Прокурорский надзор: Учебник для бакалавров / Под. общ. ред. Ю.Е.Винокуров. М.: Юрайт, 2013 г. – С.19.

15 Коробейников Б.В. Прокурорский надзор: Курс лекций, практикум / ИПК РК ГПРФ. – М.: Экзамен, 2000 г. – С.17-18.

16 Карпов Н.Н. Хорошая теория – залог успешной практики // Законность. 2008 г. №7. – С.12-15.

17 Рябцев В.П. Функции и направления деятельности органов прокуратуры // Прокурорский надзор: учебник для вузов/ Под ред. А.Я.Сухарева. М., 2004 г. – С. 64.

18 Паршунин Д.Ю. Юридическая характеристика основных функций прокуратуры Российской Федерации. Закон и право. №1, 2020 г. – С 142.

19 Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. – Toshent, TDYI. 2009-yil, 53-bet.



– qonun buzilishlarining oldini olishda qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati amalga oshirilishida ularga berilgan barcha imkoniyatlardan samarali va kengroq foydalanish;

– huquqbuzarliklar sodir etilganida javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini yanada faol amalga oshirish²⁰.

Aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlarining bajarilishi ustidan prokuror nazoratining vazifalari O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalari bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining mohiyati maqsad va vazifalarida to'liq namoyon bo'ladi. Zero, prokuror nazoratini amalga oshirishning asosi qonunchilikda nazarda tutilgan maqsadlarni belgilash, kutilayotgan natijalarga erishish va aniq vazifalarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni 2-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylilni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuror amaliyotida faoliyat yuritib, prokuror faoliyatini samarali tashkil qilish uchun aniq belgilangan va maqsadga yo'naltirilgan vazifalar zarurligiga amin bo'lmoqdamiz.

Fikrimizcha, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati zamonaviy sharoitda amalga oshirilayotgan keng islohotlar ijobiy natijasining samarali kafolati hisoblanadi. Chunki, prokuratura organlari o'zlari-ga berilgan vakolatlarni amalga oshirib, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha dasturlarning amalga oshirilishi va aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ajratilgan budjet (subsidiya, ssuda, grant va boshqa) va imtiyozli kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qiladi.

Shu o'rinda ushbu tadqiqot mavzusining ahamiyati haqida so'z yuritgan I.S.Viktorovning fikriga qo'shilamiz. Unga ko'ra, ijtimoiy sohada prokuror

nazorati jamiyatdagi kriminogen ijtimoiy omillarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etib, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga va fuqarolarning ijtimoiy huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish bunday omillarning ta'sirini yumshatishga yordam beradi, moliyaviy ta'minot va barqaror daromad manbasiga ega bo'lmasligi bilan bog'liq omillarni bartaraf etishga yordam beradi²¹.

S.I.Ojegov maqsadni intilayotgan yoki bajarilishi kerak bo'lgan narsa deb tushunish zarurligini bildirgan²² bo'lsa, A.V.Shibina haqli ravishda qayd etganidek, har bir sohada prokuror nazoratining maqsadi yakuniy natija sifatida belgilanadi²³.

Yuqorida qayd etilgan huquqshunos olimlarning fikriga qo'shilgan holda, xulosa sifatida aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati quyidagi ikkita asosiy maqsadni ko'zlaydi, deb aytish mumkin.

Birinchidan, prokuror nazoratini amalga oshirish jarayonida aholi bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga oid dasturlar ijrosi to'laqonli amalga oshirilishi, bu yo'nalishda ajratilgan budjet mablag'lari va imtiyozli kreditlarning maqsadli sarflanishida qonun ustuvorligiga erishish orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlatning manfaatlari himoya qilinadi.

Ikkinchidan, prokuror nazorat tadbirlarida aholi bandligini ta'minlash sohasida qonun buzilishi holatlariga nisbatan profilaktik ta'sir o'tkazish, ularni sodir etishning dastlabki bosqichlaridayoq aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'riladi.

O'z navbatida, yuqoridagi nazorati predmetlari, xususan, davlat hokimiyati organlari, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishga mas'ul idoralar, tijorat va notijorat tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan ushbu yo'nalishda qonunlarning ijro etilishini nazorat qilish quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- aholi bandligini ta'minlash, ishsiz shaxslarni bo'sh ish o'rinlariga joylashtirishga ko'maklashish;
- aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlash;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini yanada oshirish;

20 Винокуров Ю.Е. Прокурорский надзор. М.: 2007 г. – С.119-120.

21 Викторов И.С. Социально-экономическое развитие России: позитивные и негативные последствия этого процесса / Актуальные проблемы совершенствования прокурорского надзора в социально-экономической сфере: Сборник научных трудов / М. НИИ проблем укрепления законности и правопорядка при генпрокуратуре РФ. 2005 г. – С. 4-5.

22 Ожегов С.И. Словар русского языка / Под ред. Н.Ю.Шведовой. М., 1987 г. – С. 873.

23 Шибина А.В. Прокурорский надзор за соблюдением прав граждан на охрану здоровья. Дис.... канд. юрид. наук.. М., 2018 г. – С. 61.



- aholini tadbirkorlikka keng jalb qilishni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratishga amaliy yordam berish;

- aholini kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishga jalb qilish;

- hududiy investitsiya loyihalari muddatida ishga tushurilishi orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi va ularga ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirilishi;

- fuqarolarga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan xizmatlarni ko'rsatishga doir faoliyatning amalga oshirilishi;

- aholi tomorqasi va dehqon xo'jaligi yer maydonlaridan samarali foydalanilishini ta'minlash;

- aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va o'zini o'zi band qilishi uchun ajratilgan subsidiya, ssuda va grantlar mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun prokuror nazoratini amalga oshiruvchi prokuratura organ-

lari quyidagi vazifalarni bajarishlari zarur:

- aholi bandligini ta'minlash sohasida qonun buzilishi holati sodir etilayotganligi yoki fuqarolarning huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazilayotganligi aniqlanganda, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga qonun buzilishini zudlik bilan bartaraf etish to'g'risida talabnoma kiritish;

- kuzatuvlar, qonuniylik ahvoli tahlili, statistik axborotlarni va boshqa ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash, qonunlar ijrosini tizimli ravishda o'rganish orqali prokuror nazorati tadbirlarini amalga oshirish.

Bayon etilgan holatlar o'z navbatida, sohada prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari bilan birga, tadqiqot mavzusining bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi, shuningdek, ushbu sohada prokuror nazoratining nazariy asoslarini yanada takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

.....

.....





Mo'minjon JALILOV,
Namangan viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH NAZARIYASI VA QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ilmiy qarashlar, korrupsiyaga qarshi kurashishni huquqiy tartibga solishga oid xalqaro va milliy standartlar, ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyati, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi xususida fikr yuritilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются научные взгляды на противодействие коррупции, международные национальные стандарты правового регулирования противодействия коррупции, их значение в противодействии коррупции, а также опыт ведущих зарубежных стран в противодействии коррупции.

ABSTRACT. The article examines scientific views on combating corruption, International and national standards of legal regulation of combating corruption, the importance in combating corruption, as well as the experience of leading foreign countries in combating corruption.

Kalit so'zlar: korrupsiya, tadrijiy rivojlanish, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: коррупция, постепенного развития, международные стандарты.

Key words: corruption, gradual development, international standards.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va strategiyasi belgilandi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi islohotlarning dastlabki muhim qadami bo'lib, uni amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu qonun hujjatlari o'z navbatida mazkur salbiy illatga qarshi kurashishning samarali omili bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi¹.

Aniqki, korrupsiyaning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi qonunlarning qadri va ta'sirini pasaytiradi, fuqarolarning davlat va huquqiy institutlarga bo'lgan ishonchini so'ndirib, jamiyatda ijtimoiy adolatsizlik tuyg'usini kuchaytiradi. Bu esa umu-

miy boyliklarning muayyan guruhlar manfaatiga qayta taqsimlanishiga olib keladi va jamiyat a'zolari ongida "ikkilamchi standartlar" yoki kognitiv dissonans shakllanishiga sabab bo'ladi.

Siyosiy munosabatlar doirasida korrupsiya fuqarolarning davlat boshqaruvi organlariga, ayniqsa, hokimiyat tizimiga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Bunday sharoitda davlat amaldorlari o'z vazifalarini fuqarolar manfaati uchun emas, balki ma'lum ijtimoiy guruhlar va tabaqalar shaxsiy manfaatlarini ta'minlash uchun yo'naltiradi. Bu esa jamiyatdagi tabiiy ijtimoiy tizimlarning buzilishiga va turli ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Korrupsiyaga oid g'oyalarni ishlab chiqishda bir necha davrlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi korrupsiya muammosini shakllantirish va amalga oshirish hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi sifatida tavsiflanishi kerak. Bu davr 19-asrning oxirigacha davom etdi. U eng qadimgi sivilizatsiyalar davridan kelib chiqqan bo'lib, unda korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan turli xil faoliyatlarga qarshi birinchi urinishlar bo'lgan.

Korrupsiyaning yana bir jiddiy xavfi – uning chuqurlashuvi va kengayish tendensiyasida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda korrupsiya o'z ifodalarida turfa ko'rinish va yuqori darajadagi tashkil etilganlik bilan tavsiflanadi. Masalan, lobbichilik, pora berish va olish, davlat lavozimlarini o'z manfaati yo'li-

1 Korrupsiya: uning tarixiy ildizlari, korrupsiyaga qarshi kurash usullari // https://xorazm.adliya.uz/xorazm/uz/publikatsii/korupciya/?ELEMENT_ID=24678





da suiiste'mol qilish, jinoiy guruhlar bilan aloqalar, moliyaviy oyoqosti qilish, hokimiyatni faqat uchinchi shaxslarning shaxsiy manfaati uchun qo'llash kabi holatlar tobora ko'payib bormoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashning nazariy asoslari ushbu illatning sabablari, ko'rinish shakllari va oqibatlarini chuqur o'rganish, shuningdek, unga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi zamonaviy davlat boshqaruvi, huquqiy islohotlar va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha: "Korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir"². Dunyo bankining zamonaviy dunyoda davlatning o'rniga bag'ishlangan hisobotida "Korrupsiya – bu shaxsiy manfaat yo'lida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir"³, deb ifodalangan.

Tan olish lozimki, korrupsiya qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy xarakterdagi ko'p jihatlar bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy voqelikni namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 3-moddasiga ko'ra: "Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi"⁴. Qonundagi korrupsiyaga berilgan mazkur ta'rif ancha mukammal bo'lib, uning asl tabiatini ochib berishga xizmat qiladi.

F.Turaxodjayev esa korrupsiyani "Insonni qiyin ahvolga tushiradigan, ruhan ezadigan holatlar ichida eng og'iri adolatsizlik hisoblanadi, deyish mumkin. Uning bir ildizi korrupsiya bilan bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'z mansab yoki o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishida ifodalangani", deb tavsiflaydi.

Darhaqiqat, korrupsiya adolatsizlikning eng yuqori cho'qqisidir. Chunki, korrupsiya jinoyatlari

sodir etilganda fuqarolar uchun belgilangan huquqlar, imtiyozlar va kafolatlar bir xilda qo'llanilmaydi. Fuqarolarning qonuniy huquqlari poymol qilinadi. Masalan, biror turdagi avtomobilni sotib olish yoki bolalarni bog'chaga joylashtirish uchun bir necha yillar davomida navbatda turgan insonning o'rniga qaysidir mansabdor shaxsga pora berish orqali umuman navbat nimaligini bilmagan shaxsning ishi bitib ketishi o'ta adolatsizlik hisoblanadi. Shu jihatdan F.Turaxodjayevning korrupsiya haqidagi fikrlari ayni haqiqat hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi zamonaviy davlat boshqaruvi, huquqiy islohotlar va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu nazariya mansabdor shaxslarning o'z vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishiga qarshi kurashga qaratilgan huquqiy, institutsional va ma'naviy mexanizmlarni o'rganishni nazarda tutadi. Korrupsiya nazariyasi va genezisini o'rganishda "korrupsiya" tushunchasini ham ilmiy tahlil qilish lozim.

Korrupsiya – bu murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyatini aniq va bir ma'noli tarzda ta'riflash ijtimoiy fanlar uchun hamon murakkab vazifa bo'lib qolmoqda. Uning turli ko'rinishlari, xususiyatlari va ta'sir shakllarini tushunish uchun faqat yakka sohalar emas, balki mehnat fanlari o'rtasidagi hamkorlik (interdisciplinar) metodologiyasi asosida olib boriladigan keng qamrovli tadqiqotlar talab etiladi. Korrupsiya alohida faktlar yoki xatti-harakatlar majmuasi emas, balki butun boshli ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilinishi lozim. Aslida korrupsiya – jamiytdagi resurslar taqsimotini sun'iy ravishda buzuvchi va yanglish yo'nalishga burib yuboruvchi harakatdir. Bunday holatda davlat xizmatchisi yoki mansabdor shaxs fuqarolarning qonuniy huquqlarini ta'minlashga doir masalalarni hal qilishda belgilangan qoidalarni buzadi. Ayniqsa, moddiy boyliklar yoki imtiyozlarni taqsimlash jarayonida korrupsiya o'zining eng kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

M.E.Simonning fikriga ko'ra: "Bugungi global dunyoda davlatlar va xalqlar yagona axborot tarmoqlari, transport va moliyaviy kommunikatsiyalar orqali bir-biriga chambarchas bog'langan. Bu holat korrupsiyaga qarshi kurashda yangi murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Chunki, endi korrupsiya nafaqat milliy, balki global miqyosda ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'r-

2 Yuridik ensiklopediya / Yuridik fanlar doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahririda. –T.: –Sharq, 2001-yil, 656-bet.

3 Отчет Всемирного банка о мировом развитии / под общ.ред.Д.Тушунова: пер. англ.Р.Сухонова. М.: Прайм-Тасс, 1997 г.

4 O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-y., 3/19/542/3177-son.



satmoqda. Natijada korrupsiyaning yangi shakllari – transmilliy va xalqaro korrupsiya shakllana boshladi. Bu esa butun insoniyat uchun katta xavf tug'diradigan murakkab illat sifatida tan olishni talab etadi⁵.

Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariya ilmiy va amaliy jihatdan bir necha bosqichda shakllangan bo'lib, har bir bosqichda muayyan yondashuv va tushunchalar rivojlangan. Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasini o'rganish jarayonida har bir davrda va har bir davlatda korrupsiyaning oldini olishga alohida e'tibor qaratilganligi haqidagi ma'lumotlar qayd etiladi.

Lekin, so'nggi yillarda ayrim olimlar tomonidan qonunchilikdagi ba'zi normalarning mavhumligi ham fuqarolik, jinoyat, ma'muriy va iqtisodiy ishlarni ko'rayotgan sudlar uchun korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi degan fikrlar ilgari suriladi. Ya'ni qonunchilikdagi bunday normalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish va ularni takomillashtirish muhim vazifa hisoblanishi, bunday normalarning mavjudligi sudlarga bitta qonunni turlicha qo'llash hamda ishda ishtirok etuvchi ikkinchi taraf bilan kelishish imkonini berishi mumkinligi ta'kidlanadi⁶.

Darhaqiqat, bunday normalarning mavjudligi korrupsiya holati vujudga kelsa-da, bu holda korrupsiya deb baholash imkoniyatini bermaydi. Eng asosiysi, qonunlarni insonlarning toifasiga qarab turlicha qo'llash imkonini beradi. Shu jihatdan ushbu fikrlarga ham qo'shilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasini takomillashtirishda birinchi o'rin-

da insonning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish eng muhim masala hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, ayrim hollarda korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarga faqatgina intizomiy jazo sifatida ishdan bo'shatishni qo'llash bilan cheklaniladi. Chunki, korxona, tashkilot va muassasalar jinoyat ishi qo'zg'atilishi bilan bog'liq ortiqcha tekshirishlarni xohlamaydi va shu jinoyatni sodir etgan xodimni ishdan bo'shatish bilan muammoni bartaraf etishadi. Lekin, bu xodim boshqa joyga ishga kirib, yana shu illatlarini davom ettirishini nazarda tutsak, albatta, bunday jinoiy harakatni amalga oshirgan har bir inson jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim. O'z o'rnida, korrupsiya harakatlarini amalga oshirgan xodimni faqatgina ishdan bo'shatish bilan cheklangan rahbar jinoyatni yashirganlikda ayblanishi lozim.

Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining "Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish" deb nomlangan 161-moddasiga *"Korrupsiyaga oid xatti-harakatlar sodir qilganligi uchun ishdan bo'shatishda tegishli organlarga bu haqda xabar berib, shu organning qaroriga ko'ra xodimning harakatlarida korrupsiya alomatlari borligi aniqlangandan keyin ish beruvchining tashabbusiga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilindi"* degan 7-band kiritilishi lozim.

Xulosa qilib aytish lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va genezisini o'rganish jarayonida har bir ijobiy amaliyot va nazariyani takomillashtirgan holda O'zbekiston Respublikasining qonunlariga tatbiq etish masalasini ko'rib chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

#

5 M.Aminjonova Korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va huquqiy asoslarining tadrijiy rivojlanishi // O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi axborotnomasi, 2025-yil, 2-son 81-84-betlar.



RASMIY BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'QUVCHILARNING O'QUV YUTUQLARINI DOIMY KUZATISH MEXANIZMLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada rasmiy baholashning nazariy asoslari, ta'lim tizimidagi o'rni hamda o'quvchilarning o'quv yutuqlarini doimiy kuzatish mexanizmlarining pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xalqaro va milliy ta'lim standartlarida baholash tizimining rivojlanish bosqichlari, formativ va summativ baholashning o'ziga xos jihatlari, monitoring tizimlari hamda diagnostik baholash usullarining samaradorligi o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda raqamli monitoring vositalari, kompetensiyaviy yondashuv va o'quv natijalarini muntazam kuzatishning metodik mexanizmlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, baholashning tizimli va shaffof tashkil etilishi ta'lim sifati hamda o'quvchilarning akademik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются теоретические основы формального оценивания, его место в системе образования, а также педагогическое значение механизмов постоянного мониторинга учебных достижений учащихся. В ходе исследования были изучены этапы развития системы оценивания в международных и национальных образовательных стандартах, особенности формативного и суммативного оценивания, системы мониторинга и эффективность методов диагностического оценивания. Кроме того, рассмотрены цифровые средства мониторинга в современном образовании, компетентностный подход и методические механизмы регулярного отслеживания результатов обучения. Результаты исследования показывают, что системная и прозрачная организация оценивания оказывает непосредственное влияние на качество образования и академическое развитие учащихся.

ABSTRACT. This article analyzes the theoretical foundations of formal assessment, its role in the education system, and the pedagogical significance of mechanisms for continuous monitoring of students' academic achievements. The study examines the stages of development of assessment systems in international and national educational standards, the specific features of formative and summative assessment, monitoring systems, and the effectiveness of diagnostic assessment methods. Furthermore, the article highlights digital monitoring tools in modern education, the competency-based approach, and methodological mechanisms for the regular observation of learning outcomes. The results of the study indicate that the systematic and transparent organization of assessment directly affects the quality of education and the academic development of students.

Kalit so'zlar: rasmiy baholash, formativ baholash, summativ baholash, monitoring, o'quv yutuqlari, ta'lim sifati, diagnostik baholash, kompetensiya, pedagogik nazorat, ta'lim standartlari.

Ключевые слова: формальное оценивание, формативное оценивание, суммативное оценивание, мониторинг, учебные достижения, качество образования, диагностическое оценивание, компетенция, педагогический контроль, образовательные стандарты.

Key words: formal assessment, formative assessment, summative assessment, monitoring, academic achievement, quality of education, diagnostic assessment, competency, pedagogical control, educational standards.

Ta'lim tizimida baholash o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalar darajasi aniqlanadi, ta'lim sifatiga baho beriladi hamda pedagogik faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalarda baholashga nafaqat yakuniy natijani aniqlash vositasi, balki ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmi sifatida ham qaraladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro ta'lim tizimlarida baholashning yangi konsepsiyalari shakllandi. Benjamin Blumning taksonomiyasi, Lev Vigotskiyning rivojlanish nazariyasi va Maykl Skriiven tomonidan ishlab chiqilgan formativ baholash modeli ta'lim monitoringi metodologiyasining ilmiy asoslarini yaratdi. Bugungi kunda OECD, YUNESKO va "World Bank" kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan

o'quvchilarning o'quv yutuqlarini muntazam kuzatish tizimlari ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda davlat ta'lim standartlarida o'quvchilar bilimni adolatli va shaffof baholashning ustuvor vazifalari belgilangan¹. So'nggi yillarda elektron kundalik tizimlari, reyting asosidagi baholash va kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali monitoring mexanizmlarining samaradorligi oshirilmoqda.

Rasmiy baholash tizimi ta'lim jarayonining obektivligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini ham aniqlash imkonini beradi. Shu sababli baholashning naza-

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2020-yil, 12–18-betlar.



riy asoslarini chuqur o'rganish va doimiy monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi².

Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xalqaro tashkilotlarning baholash tizimiga oid hisobotlari, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosiy manba sifatida tanlandi.

PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqotlari doirasidagi ma'lumotlar ham o'quv yutuqlarini monitoring qilish mexanizmlarini baholashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi³.

Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilayotgan baholash mezonlari, reyting tizimi va elektron monitoring platformalari faoliyati ham tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv baholash tizimining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks ravishda o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari rasmiy baholashning ta'lim sifatini oshirishdagi muhim o'rnini ko'rsatdi. Xususan, formativ baholash usullaridan muntazam foydalanilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning akademik natijalari yuqoriroq ekanligi aniqlangan⁴. OECD ma'lumotlariga ko'ra, doimiy monitoring tizimi joriy etilgan maktablarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi ko'rsatkichlari o'rtacha 15–20 foizga yuqori bo'lgan.

Formativ baholash o'quv jarayonida tezkor teskari aloqa mexanizmini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning xatolarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi⁵. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, muntazam diagnostik nazorat o'quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Summativ baholash esa o'quvchilarning ma'lum davr yakunidagi bilim darajasini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Yakuniy baholash natijalari davlat ta'lim standartlariga moslikni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, faqat summativ baholashga asoslangan tizimlar o'quvchilarning individual rivojlanish dinamikasini to'liq aks ettira olmasligi aniqlangan⁶.

Elektron monitoring tizimlari ham baholash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalar orqali o'quvchilarning kundalik faoliyati, topshiriqlarni bajarish darajasi va akademik ko'rsatkichlari real vaqt rejimida kuzatilmoqda. YUNESKO hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan davlatlarda ta'lim sifati ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilangan⁷.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan baholash tizimlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammo yechish va kommunikativ kompetensiyalarini aniqlashda samarali ekanligi aniqlandi. Zamonaviy baholash mezonlari faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikmalarni ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir.

Rasmiy baholash tizimi ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy pedagogik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogikada baholash faqat nazorat vositasi emas, balki ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanishini aniqlash hamda pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiluvchi murakkab tizim sifatida talqin etiladi⁸. Shu jihatdan qaralganda, rasmiy baholashning nazariy asoslarini o'rganish ta'lim sifatini boshqarishning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Baholash nazariyasining shakllanishi tarixiy jihatdan bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlabki ta'lim tizimlarida baholashning asosiy vazifasi o'quvchilar bilimini tekshirish va saralashdan iborat bo'lgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ta'lim tizimida standartlashtirilgan testlarning paydo bo'lishi baholash jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga zamin yaratdi. Ayniqsa, Edvard Tornado tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik o'lchov nazariyasi baholashning statistik va psixometrik asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi⁹. Keyinchalik Benjamin Blum tomonidan taklif etilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi o'quv natijalarini kognitiv, affektiv va psixomotor sohalar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratdi.

XX asrning ikkinchi yarmida Maykl Skriven tomonidan formativ va summativ baholash tushun-

2 Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978 yr. – 84–91-p.

3 OECD. Education at a Glance 2023. Paris, 2023 yr. – 56–98-p.

4 Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 1998 yr. – 7–74-p.

5 Brookhart S.M. How to Give Effective Feedback to Your Students. ASCD, 2017 yr. – 25–63-p.

6 Harlen W. Assessment for Learning and Assessment of Learning. Cambridge Journal of Education, 2005 yr. – 213–223-p.

7 UNESCO Institute for Statistics. Global Education Monitoring Report. Paris, 2022 yr. – 94–132-p.

8 Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 1956 yr. – 201–207-p.

9 Nitko A.J., Brookhart S.M. Educational Assessment of Students. Pearson Education, 2014 yr. – 45–78-p.



chalarining ilmiy muomalaga kiritilishi pedagogik baholash nazariyasida tub burilish yasadi¹⁰. Summativ baholashga o'quv jarayonining yakuniy natijalarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, formativ baholash o'quv faoliyatini rivojlantirish va takomillash tirish vositasi sifatida qaraladi. Zamonaviy tadqiqotlar aynan formativ baholash o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi¹¹.

Pol Blek va Dilan Uiliam tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda formativ baholash qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning natijalari an'anaviy baholash tizimiga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlangan. Tadqiqotchilar tezkor teskari aloqa, o'quv maqsadlarini aniq belgilash va o'quvchini o'z-o'zini baholash jarayoniga jalb etish akademik samaradorlikni oshirishini ilmiy asoslagan. Ayniqsa, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda formativ baholashning samaradorligi yuqori ekanligi qayd etilgan¹².

Baholashning nazariy asoslarida konstruktivistik yondashuv alohida o'rin tutadi. Lev Vigotskiy va Jan Piaje nazariyalariga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni faol ravishda shakllantiradi¹³. Shu sababli zamonaviy baholash tizimlari o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va reflektiv qobiliyatlarini aniqlashga qaratilishi kerak. Bu esa baholash mezonlarini faqat reproduktiv bilimlar bilan cheklab qo'ymaslik zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi baholash tizimlari xalqaro ta'lim standartlarining muhim tarkibiy qismiga aylangan. OECD tomonidan amalga oshirilayotgan PISA tadqiqotlari o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatini ham baholaydi. Mazkur tadqiqotlar natijalari ko'plab davlatlarda ta'lim siyosatini isloh qilish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

PISA natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan Finlandiya, Singapur va Kanada kabi davlatlarda baholash tizimi ko'proq formativ monitoringga asoslangan. Ushbu davlatlarda o'quvchilarni muntazam kuzatish, individual rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va diagnostik baholash mexanizmlariga katta e'tibor

qaratiladi. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini erta aniqlash hamda ta'limdagi muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi¹⁴.

Doimiy monitoring tizimlari ta'lim sifatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Monitoring orqali o'quvchilarning o'quv faoliyati, davomat ko'rsatkichlari, topshiriqlarni bajarish sifati va kompetensiyalari muntazam nazorat qilinadi. Monitoring tizimining asosiy vazifasi o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish va pedagogik qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etishdan iboratdir.

Zamonaviy monitoring mexanizmlarida raqamli texnologiyalar alohida o'rin egallaydi. Elektron kundalik, "Learning Management System" (LMS), masofaviy ta'lim platformalari va "Learning Analytics" tizimlari o'quvchilarning faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini bermoqda. YUNESKO hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli monitoring tizimlari joriy etilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar davomati va o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan.

"Learning Analytics" texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, o'quvchining platformaga kirish faolligi, topshiriqlarni bajarish tezligi va test natijalari asosida uning o'zlashtirish darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bu esa differensial ta'limni tashkil etish uchun muhim asos yaratadi.

Baholashning samaradorligi ko'p jihatdan baholash mezonlarining aniqligi va shaffofligiga bog'liqdir. Agar baholash mezonlari oldindan aniq belgilansa, o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni tushunadi va faoliyatini shu mezonlarga muvofiq tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaffof baholash tizimi o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi hamda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Biroq, baholash tizimida ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, baholashning subyektivligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, og'zaki baholash yoki ijodiy topshiriqlarni tekshirishda o'qituvchining shaxsiy qarashlari natijaga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy pedagogikada rubrikalar, aniq mezonlar va standartlashtirilgan

10 Scriven M. The Methodology of Evaluation. Chicago: Rand McNally, 1967 yr. – 39–83-p.

11 Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 1998 yr. – 7–74-p.

12 Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning. Assessment in Education, 1998 yr. – 7–74-p.

13 Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press, 1978 yr. – 84–91-p.

14 OECD. PISA 2022 Results: Learning During and After the Pandemic. Paris, 2023 yr. – 112–145-p.



indikatorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Test tizimiga ortiqcha tayanish ham baholashning muhim muammolaridan biridir. Standart testlar bilim darajasini tezkor aniqlash imkonini bersa-da, ular o'quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli xalqaro tajribada portfolio, loyiha ishlari, prezentatsiyalar va reflektiv yozuvlardan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Diagnostic baholashning rivojlanishi ham zamonaviy pedagogikada muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Diagnostic baholash o'quvchilarning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dastlabki diagnostic nazorat orqali o'quvchilarning keyingi o'zlashtirish darajasini prognoz qilish mumkin¹⁵.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham baholash mexanizmlarini modernizatsiya qilish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi baholash tizimida yangi metodologik asoslarni shakllantirdi.

Elektron ta'lim platformalarining joriy etilishi monitoring tizimining samaradorligini oshirdi. Elektron jurnal va kundalik tizimlari orqali ota-onalar, pedagoglar va ta'lim muassasalari rahbariyati o'quvchilarning akademik natijalarini muntazam kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ta'lim jarayo-

ning ochiqqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Pedagoglarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim masalalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baholash metodologiyasini chuqur bilgan o'qituvchilar o'quvchilarning rivojlanishini samaraliroq boshqara oladi. Shu sababli pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida baholash nazariyasi hamda zamonaviy monitoring texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Shuningdek, inkluziv ta'lim sharoitida baholash tizimini moslashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun differensial baholash mezonlarini ishlab chiqish ta'limdagi tenglik va adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribada adaptiv baholash tizimlari aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, rasmiy baholash va doimiy monitoring mexanizmlari ta'lim sifatini boshqarishning strategik vositasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida baholashning shaffof, obyektiv va ilmiy asoslangan tashkil etilishi o'quvchilarning akademik rivojlanishi, pedagogik samaradorlik hamda ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli baholash tizimini takomillashtirish, innovatsion monitoring texnologiyalarini joriy etish va pedagoglarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish kelgusidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

#

15 Shepard L.A. The Role of Assessment in a Learning Culture. Educational Researcher, 2000 yr. – 4–14-p.



Sherzod OLIMOV,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi

MEHNAT INSPEKSIYASINING MEHNAT NAZORATI SOHASIDA HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINING BIR XILLIGINI TA'MINLASHDA MA'MURIY TARTIB-TAOMILLARNI UNIFIKATSIYALASHNING O'RNI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada mehnat nazorati sohasida ma'muriy tartib-taomillarni unifikatsiya qilishning huquqiy va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilingan bo'lib, unda mehnat inspektorlari faoliyatida subyektiv yondashuvlarni kamaytirish, korrupsiyaviy xavflarning oldini olish hamda huquqni qo'llash amaliyotida yagona standartlarni joriy etish zarurati asoslantiriladi. Shuningdek, ma'muriy ish yuritishni raqamlashtirish orqali yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan, inspeksiya hujjatlarining bayon etish shakli, tuzilishi va rasmiylashtirish usullarining bir xilligi hamda yagonaligini ta'minlash masalasi alohida dolzarb yo'nalish sifatida yoritilib, bu huquqni qo'llash amaliyotida standartlashgan tizimni shakllantirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

АННОТАЦИЯ. В данной тезисной работе проводится комплексный анализ правовых и практических аспектов унификации административных процедур в сфере трудового надзора. Обосновывается необходимость снижения субъективного подхода в деятельности государственных инспекторов труда, предотвращения коррупционных рисков, а также внедрения единых стандартов правоприменительной практики. Кроме того, разработаны практические предложения по формированию единого подхода посредством цифровизации административного делопроизводства, при этом особое внимание уделяется унификации формы, структуры и порядка оформления инспекционных документов как важного направления, способствующего формированию стандартизированной системы правоприменения.

ABSTRACT. This thesis provides a comprehensive analysis of the legal and practical aspects of standardizing administrative procedures in the field of labor supervision. It substantiates the need to reduce subjective approaches in the activities of labor inspectors, prevent corruption risks, and introduce unified standards in law enforcement practice. Furthermore, practical proposals are developed to establish a unified approach through the digitalization of administrative proceedings, with particular emphasis on standardizing the form, structure, and documentation procedures of inspection reports as a key direction contributing to the formation of a unified law enforcement system.

Kalit so'zlar: mehnat inspeksiyasi, ma'muriy tartib-taomillar, unifikatsiya, tekshiruv jarayoni, huquqni qo'llash amaliyoti, davlat nazorati, mehnat qonunchiligi, tekshiruvga tayyorgarlik bosqichi, risk tahlili, yozma ko'rsatma, taqdimnoma, ma'muriy ta'sir chorasi, elektron hujjat aylanish tizimi, "edo.iyro.uz", vertikal nazorat, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash.

Ключевые слова: инспекция труда, административные процедуры, унификация, процесс проверки, правоприменительная практика, государственный надзор, трудовое законодательство, этап подготовки проверки, анализ рисков, письменное предписание, представление, меры административного воздействия, электронный документооборот, "edo.iyro.uz", вертикальный контроль, прозрачность, противодействие коррупции.

Key words: labor inspection, administrative procedures, standardization, inspection process, law enforcement practice, state supervision, labor legislation, inspection preparation stage, risk analysis, written order, submission, administrative enforcement measures, electronic document management system, "edo.iyro.uz", vertical control, transparency, anti-corruption.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Davlat mehnat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 535–536-moddalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 706-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to'g'risida nizom"ga muvofiq, ish beruvchilar tomonidan mehnat to'g'risidagi qonunchilik, aholi bandligi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash, mehnatni muhofaza qilish qoidalari hamda mehnat standartlari talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiradi.

Davlat mehnat inspektorlari yuqorida qayd etil-

gan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan ish beruvchilarni qonunchilikda belgilangan tartibda rejali va rejadon tashqari tekshiruvlardan o'tkazadi.

Inspeksiya o'z faoliyatini bevosita, shuningdek, hududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi.

Mulkchilik shakli va tashkiliy-huquqiy tuzilishidan qat'i nazar, barcha tashkilotlar mansabdor shaxslari, ish beruvchi sifatida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan chet el fuqarolari tomonidan mehnat, aholi bandligi, mehnatni muhofaza qilish, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashga oid qonunchilik hujjatlari, mehnat xavfsizligi va



gigiyanasi, shuningdek, mehnat jarayonida tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan normativ talablar hamda mehnat standartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish mehnat va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratining predmetini tashkil etadi¹.

Tekshiruv tadbirlari o'zining hajmi, mazmuni va davomiyligiga ko'ra ikki turga ajratiladi: qisqa muddatli tekshiruvlar hamda kompleks (keng qamrovli) tekshiruvlar.

Tekshirish prinsipiga muvofiq, ma'muriy organ ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha haqiqiy holatlarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshirishi, zarurat bo'lganda, ma'muriy organ manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar bilan cheklanmasdan qonunchilikda belgilangan tartibda o'z tashabbusi bilan qo'shimcha dalillar yig'ishi lozim².

Rejali tekshiruvlarning asosiy maqsadi – mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini to'g'ri qo'llash hamda ularga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur yondashuv rejali tekshiruvlarning jozalashdan ko'ra ko'proq profilaktik va preventiv xarakterga ega ekanligini anglatadi. Ya'ni mehnat inspeksiyasi tomonidan o'tkaziladigan bunday nazorat tadbirlari huquqbuzarliklarni aniqlash bilangina cheklanmay, balki ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish, huquqiy madandiyatni oshirish hamda mehnat munosabatlari subyektlari o'rtasida qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mehnat inspeksiyasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijalariga muvofiq aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda aybdor shaxslarga nisbatan ma'muriy ta'sir choralari qo'llash amalga oshiriladi, shuningdek, aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish maqsadida yozma ko'rsatmalar beriladi hamda ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan yuqori turuvchi vakolatli organlarga tegishli taqdimnomalar kiritiladi.

Amaliyotda rejali tekshiruvlar asosan budjet tashkilotlarida amalga oshirilib, reja-jadval O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Biroq, tekshiruv obyektlarini tanlab olish hamda rejali tekshiruvlar jadvaliga kiritiladigan tashkilot, muassasa va korxonalarni belgilash jarayoni

da xolislik, shaffoflik va tenglik prinsiplari normativ-huquqiy asosda to'liq va aniq mustahkamlanmagan, mehnat inspeksiyasi tomonidan tekshiruvlarni belgilash va o'tkazish tartibi hamda tekshiruv jarayonining dastlabki bosqichlarini amalga oshirish va ijroga qaratishning ma'muriy tartib-taomillari ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, tekshiruvni amalga oshirishning muhim tarkibiy elementi sifatida tekshiruvga tayyorgarlik bosqichi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq tartibga solinmagan.

Mehnat inspeksiyasi tomonidan tekshiruvlarni tashkil etish va o'tkazish jarayoni yagona ma'muriy tartib-taomillar asosida aniq va izchil tartibga solinishi lozim. Xususan, tekshiruvga tayyorgarlik bosqichida tekshiruv o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida risk tahlili, ehtimoliy huquqbuzarlik holatlariga doir gipoteza hamda tekshiruv zarurligi yuzasidan asoslantirilgan xulosa ishlab chiqilishi va vakolatli rahbariyatga kiritilishi lozim.

Shuningdek, tekshiruvni o'tkazish to'g'risidagi buyruqni ijroga qaratish tartibi, tekshiruv obyekti va predmeti, uning muddati hamda qamrovini belgilash yagona va standartlashtirilgan tartibda amalga oshirilishi zarur.

Tekshiruv yakunlari bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan yozma ko'rsatmalar va taqdimnomalar berish, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ma'muriy ta'sir choralari qo'llash majburiy tartibda amalga oshirilishi lozim. Nazorat tadbirlari natijalari to'g'risida yuqori turuvchi organlarni xabardor qilish, tegishli hujjatlardan nusxalar yuritish hamda ularning arxivlashtirilishi ham yagona tartib asosida yo'lga qo'yilishi zarur.

Bundan tashqari, yuqori turuvchi rahbariyat tomonidan tekshiruv jarayonlari ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, jumladan, ichki monitoring, tanlanma tekshiruvlar hamda qayta nazorat mexanizmlarini joriy etish lozim. Tekshiruv jarayonida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish maqsadida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, shaffoflikni ta'minlash hamda raqamli nazorat vositalaridan foydalanish tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi zarur.

Shuningdek, tekshiruvlarni o'tkazishda mehnat muhofazasi bo'yicha texnik inspektor va huquqiy yo'nalishdagi inspektorlardan iborat, kamida ikki nafar yoki undan ortiq tarkibdagi kollegial (jamoaviy) inspeksiya guruhi ishtirok etishi lozim hisoblanadi.

1 Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi 706-sonli qarori 43-bandi // <https://lex.uz/docs/-7818769>

2 O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi 457-sonli qonuni 18-moddasi.



Mazkur yondashuv tekshiruv natijalarining xolisligi, obyektivligi va kompleks baholanishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda qaror qabul qilish jarayonida biryozlama yondashuvlarning oldini olish imkonini beradi.

Masalan, Yaponiyaning Kobe universiteti professori Ryoko Sakurabaning keltirishiga ko'ra, "jamoaviy inspeksiya" (team inspection) deb ataluvchi yangi yondashuv joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq ilgari inspektorlar yakka tartibda tekshiruv o'tkazgan bo'lsa, 2011-yildan boshlab yirik korxonalarda kamida ikki yoki undan ortiq inspektordan iborat jamoa tomonidan kompleks tekshiruvlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Mazkur yondashuvning joriy etilishi murakkab mehnat sharoitlarining ortib borishi, ish vaqti rejimiga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash zarurati hamda boshqaruv xodimlariga nisbatan qo'llaniladigan istisno va imtiyozlarning qonuniyligini chuqur tahlil qilish ehtiyoji bilan asoslanadi. Jamoaviy inspeksiya usuli tekshiruvlarning xolisligi va obyektivligini oshirishga, shuningdek, inspektorlarning individual subyektiv yondashuvlari ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi³.

Xalqaro mehnat tashkilotining 2021-yil 13–16-dekabr kunlari Jeneva shahrida o'tkazilgan uch tomonlama muhokamalar yakunlari asosida qabul qilingan "Mehnat inspeksiyasining umumiy tamoyillari"ning (Guidelines on general principles of labour inspection) 3.2.1-bandiga muvofiq, mehnat inspeksiyasi tizimi davlat xizmati sifatida o'z faoliyatini shunday tashkil etishi lozimki, u har qanday vaqtda unga qo'yiladigan talab va ehtiyojlarga samarali javob bera olsun. Mazkur hujjatda, shuningdek, eng himoyaga muhtoj ishchi toifalari ko'pincha inspeksiya organlariga shikoyat bilan murojaat qilmasligi inobatga olinishi, shu bois mehnat inspeksiyasi o'z vakolatlari doirasida qonunchilikka rioya etilish darajasi va unga rioya qilinmaslik xavflarini mustaqil baholashi hamda bunday toifadagi xodimlarni himoya qilishga qaratilgan zarur choralarni ko'rishi lozimligi belgilangan. Ushbu yondashuv reaktiv (murojaatga asoslangan) va proaktiv (oldini olishga qaratilgan) nazorat mexanizmlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash zaruratini nazarda tutadi⁴.

Mazkur konseptual yondashuv amaliyotda ayrim

davlatlar tajribasida ham o'z aksini topgan. Xususan, AQSHda Mehnat departamenti tarkibidagi Mehnat xavfsizligi va sog'liqni muhofaza qilish boshqarmasi (Occupational Safety and Health Administration – OSHA) inspeksiya organi tomonidan tekshiruvlar ikki asosiy turga ajratilgan holda amalga oshiriladi: birinchisi – proaktiv (dasturlashtirilgan) tekshiruvlar bo'lib, ular yuqori xavfli ish joylari hamda qonunchilik talablariga tizimli rioya etmayotgan ish beruvchilarga nisbatan o'tkaziladi; ikkinchisi esa – reaktiv (dasturlashtirilmagan) tekshiruvlar bo'lib, ular favqulodda holatlar, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, o'lim holatlari yoki xodimlarning murojaatlari asosida boshlanadi.

Mehnat nazorati sohasida ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini standartlashtirish masalalari nafaqat xorijiy, balki mahalliy huquqshunos olimlar tomonidan tamonidan ham o'rganilgan. Xususan, Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) professori, yuridik fanlar doktori Jo'rabek Nematov o'zining ma'muriy tartib-taomillarni tizimlashtirishga doir ishlari⁵da nazorat organlarining subyektiv ixtiyoriy vakolatlari qat'iy ma'muriy reglamentlar bilan cheklanmasligi korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Shuningdek, mehnat huquqi bo'yicha tadqiqotchilardan Toshkent davlat yuridik universiteti kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent Shuhratjon Ismoilov mehnat qonunchiligi buzilishini barvaqt aniqlashda davlat nazorati mexanizmlarini raqamlashtirish, har bir tekshiruv bosqichining huquqiy oqibatlarini aniq belgilash zaruriyatini ilgari surgan. Bizning fikrimizcha, Yaponiya va AQSH tajribasidagi "jamoaviy inspeksiya" (team inspection) va proaktiv nazorat modellarini milliy huquqiy tizimga integratsiya qilish orqali mahalliy olimlar tomonidan ko'tarilgan subyektivizm va tekshirishlardagi biryozlamalilik muammolarini samarali bartaraf etish mumkin.

Amaliy statistik ma'lumotlarga ko'ra, OSHA tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarning qariyb 60 foizi aynan reaktiv xarakterga ega⁶.

AQSH Mehnat departamenti tarkibidagi OSHA inspeksiya organi faoliyatida dasturlashtirilgan (proaktiv) nazorat 40 foizni tashkil etgani holda, reaktiv nazorat 60 foiz atrofida barqaror saqlanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allik

3 <https://share.google/4nrKolu0Gsw9RWuuM> Effectiveness of Labour law and the role labour inspection in Japan

4 <https://share.google/2RjLh89nC05prJGOq> Guidelines on general principles of labour inspection

5 <https://library.tsul.uz/uz/books/4282>

6 AQSH Mehnat departamentining Xalqaro aloqalar va iqtisodiy tadqiqotlar bo'yicha direktor o'rinbosari Zhao Li, Ispaniya Valensiya konferensiya 2022-yil.



ni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Davlat mehnat inspeksiyasining amaliy tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda tizimda rejadan tashqari va qisqa muddatli (reaktiv) tekshiruvlar salmog'i 75 foizdan yuqorini tashkil etmoqda. Ushbu nomutanosiblik mehnat inspektorlarining asosiy vaqti va resurslari tizimli muammolarni preventiv (oldindan) aniqlashga emas, balki kelib tushgan shikoyatlarni individual tartibda ko'rib chiqishga sarflanayotganidan dalolat beradi. Ma'muriy tartib-taomillarni unifikatsiya qilish va tekshirishgacha bo'lgan tayyorgarlik bosqichida risk tahlili (avtomatlashtirilgan gipoteza) tizimini joriy etish orqali ushbu ko'rsatkichni proaktiv yo'nalishga o'zgartirish, ya'ni profilaktika samaradorligini 45-50 foizga oshirish imkoniyati va zarurati yuzaga keladi.

Mazkur ilmiy ish orqali holatni bartaraf etish maqsadida tekshiruvga tayyorgarlik bosqichini alohida ma'muriy tartib-taomil sifatida quyidagi tartibda belgilash ilgari suriladi.

Xususan, tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi qaror qabul qilish mezonlari, tekshiruv obyekti va predmetini aniqlash, tekshiruv hajmi va muddatini belgilash, shuningdek, ushbu bosqichda rasmiylashtiriladigan hujjatlarning yagona shakllari va rekvizitlari normativ jihatdan mustahkamlanishi lozim. Bu esa tekshiruvlarni tashkil etishda yagona yondashuvni ta'minlash, subyektivlikni kamaytirish hamda nazorat faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rejali va rejadan tashqari tekshiruvlarni belgilashda o'z tashabbusiga hamda Mehnat inspeksiyasiga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlarda mehnat qonunchiligi buzilishi yuzasidan materiallar yoki mehnat qonunchiligi buzilishi faktini isbotlovchi asosli vajlar mavjud bo'lganda davlat mehnat inspektori tomonidan ularni tekshirish uchun asoslar mavjudligi aniqlangach, vakolatli yuqori turuvchi inspeksiya rahbari quyidagi qarorlarni ijro etishi lozim:

- materiallarni vakolatli hududiy inspeksiyaning inspektori tomonidan tegishli ma'muriy hududiy yurisdiksiya (vakolat) bo'yicha ruxsat olish uchun tekshiruv o'tkazish to'g'risida xulosa yuqori turuvchi rahbariyatga kiritiladi (bunda hududiy inspeksiya rahbariga to'g'ridan-to'g'ri qilingan murojaatlar mustasno);
- mehnat qonunchiligi buzilishi holati yuzasidan kompleks (keng qamrovli) tekshiruv o'tkazishni tayinlash haqida xulosa va savolnoma;
- qo'shimcha o'rganish va dastlabki tahliliy hujjatlar zaruriyatiga asosan qisqa muddatli tekshiruvlar tayinlash yuzasidan xulosa.

Tekshiruv protsessida amalga oshiriladigan

ma'muriy harakatlarda tekshirish predmetiga bog'liq bo'lmagan boshqa har qanday faoliyatga aralashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu tartibning birinchi qismida nazarda tutilgan qarorlar mehnat inspeksiya rahbarlari tekshiruv tayinlash uchun asos bo'lgan materiallar kelib tushgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida qabul qilinishi lozim.

Mazkur muddat mehnat inspeksiyasi rahbari tomonidan ko'pi bilan besh ish kuniga uzaytirilishi mumkin.

Tekshiruvni o'tkazish uchun tayinlash to'g'risidagi qarorda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) tekshiruv materialining ro'yxat (identifikatsiya) raqami, qaror qabul qilingan sana va joy;
- 2) qaror qabul qilgan davlat mehnat inspektorining lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;
- 3) tekshiruv o'tkaziladigan ish beruvchining (yoki tashkilotning) nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan manzili, shuningdek, zarur hollarda mas'ul mansabdor shaxsning shaxsi;
- 4) tekshiruvni tayinlash uchun asos bo'lgan holatlar hamda mehnat to'g'risidagi qonunchilik buzilishi alomatlari mavjudligi haqidagi xulosa;
- 5) tekshiruv predmeti va qamrovi, ya'ni qaysi yo'nalishlar bo'yicha (mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish, bandlik, sug'urta va boshqalar) tekshiruv o'tkazilishi;
- 6) tekshiruvni amalga oshiruvchi davlat mehnat inspektori(lar)i tarkibi;
- 7) tekshiruvni o'tkazish shakli (rejali yoki rejadan tashqari), shuningdek, uni o'tkazish muddati;
- 8) zarur hollarda tekshiruv jarayonida boshqa manfaatdor shaxslarning ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 9) tekshiruvni o'tkazish joyi va boshlanish sanasi.

Davlat mehnat inspektori tomonidan tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, tekshiruvda ishtirok etuvchi shaxslarga, xususan, ish beruvchi, uning vakillari, xodim (yoki xodimlar vakili), ariza beruvchi hamda boshqa manfaatdor shaxslarga, agar ular tekshiruvga qadar materiallar bilan tanishtirilmagan bo'lsa, tekshiruvga oid barcha materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyati yaratilishi shart. Bunda tekshiruv obyektiga kiruvchi masalalar va huquqbuzarlik faktini tekshiruvga qadar yashirish imkonini beruvchi holatlar mustasno.

Mazkur shaxslar tekshiruv materiallari bilan tanishish jarayonida o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yozib olish, nusxa ko'chirish hamda belgilangan tartibda izoh va e'tirozlar bildirish huquqi taminlanishi lozim.

Mehnat inspeksiyasi tomonidan tekshiruv



o'tkazish muddatlari, qoida tariqasida, qat'iy belgilanmasligi, ammo murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlariga muvofiq bo'lishi va har bir holatda tekshiruvning xususiyati, hajmi hamda murakkabligidan kelib chiqib aniqlanishi lozim hisoblandi.

Ayrim hollarda, agar tekshiruvni samarali tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida ta'minlash zarurati yuzasidan, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra tekshiruv muddatlari quyidagi muddatlarda belgilanishi nazariy jihatdan to'g'ri hisoblandi.

Bunda tekshiruvni boshlash muddati tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran, qoida tariqasida, o'n ish kuni-dan kechiktirmasdan tekshiruv obyektida amalga oshiriladi.

Tekshiruvni o'tkazish muddati u boshlangan kundan e'tiboran, qoida tariqasida, bir oydan oshmasligi lozim.

Tekshiruvning murakkabligi, ko'p epizodliligi yoki qo'shimcha o'rganish zarurati mavjud bo'lgan hollarda ushbu muddat mehnat inspeksiyasi rahbarining qaroriga asosan ko'pi bilan yana bir oy-gacha uzaytirilishi mumkin, biroq ikki oydan oshmasligi lozim.

Tekshiruvni o'tkazish jarayonining to'xtatib turilgan davri umumiy muddatga kiritilmaydi.

Uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilgan tekshiruv muddatlari inspeksiya boshlig'i tomonidan belgilangan tartibda tiklanishi mumkin.

Soddalashtirilgan tartibda yoki alohida tartibda ko'rib chiqiladigan materiallar bo'yicha tekshiruv muddatlari, qoida tariqasida, o'n besh kundan oshmasligi lozim.

Zarur hollarda mazkur muddat mehnat inspeksiyasi boshlig'ining qaroriga asosan ko'pi bilan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

Tekshiruv jarayonining to'xtatib turilgan davri umumiy muddatga kiritilmaydi.

Dalolatnoma va ma'lumotnomalar inspeksiya faoliyati natijalari bo'yicha tuziladigan rasmiy hujjatlar sifatida yagona talablar asosida rasmiylashtirilishi lozim. Xususan, ushbu hujjatlar, qoida tariqasida, axborot-tahliliy materiallar shaklida tayyorlanib, ularni rasmiylashtirishda zamonaviy matn muharrirlaridan, jumladan, "Microsoft Word" redaktoridan foydalangan holda tayyorlanishi lozim.

Bunda hujjatlar quyidagi texnik-parametrik talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim: matn "Times New Roman" yozuv uslubida, sahifa hosiyalari chap tomondan 1-3 sm, o'ng tomondan 1-2

sm, yuqori va pastki qismdan 1-2 sm etib belgilanadi; matn hajmidan kelib chiqib 11-14 o'lchamdagi shrift qo'llaniladi; birinchi qator xatboshisi 0,50-1,27 sm etib belgilanadi hamda qatorlar oralig'i 1-1,2 intervalda rasmiylashtiriladi⁷.

Mazkur yagona texnik talablarning joriy etilishi inspeksiya hujjatlarining bir xilligini ta'minlash, ularning rasmiylashtirilishida tartib-intizomni kuchaytirish hamda huquqni qo'llash amaliyotida yagona standartlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Barcha xizmat hujjatlarining aylanishi va ular bilan bog'liq ish yuritish jarayonlari elektron hujjat aylanish tizimi – "edo.ijro.uz" orqali amalga oshirilishi lozim. Mazkur tizim orqali hujjatlarni rasmiylashtirish, kelishish, imzolash, ijroga qaratish hamda ularning bajarilishini monitoring qilish yagona tartibda va raqamli muhitda ta'minlanadi.

Shu bilan birga, hujjatlar ijrosi ustidan vertikal nazorat mexanizmi joriy etilishi zarur bo'lib, bunda yuqori turuvchi organlar tomonidan quyi bo'g'inlar faoliyati ustidan tizimli monitoring olib boriladi. Mazkur nazorat tartibi ijro intizomini mustahkamlash, mas'uliyatni oshirish hamda hujjatlar ijrosining o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quyida taklif etilayotgan unifikatsiyalashgan modelning kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlarini keltirib o'tamiz.

Huquqiy samaradorlik. Tekshiruvga tayyorgarlik va uning o'tkazilish bosqichlari normativ jihatdan unifikatsiya qilinishi natijasida mehnat inspektorlarining diskretion vakolatlari doirasi qisqaradi. Bu huquqni qo'llash amaliyotining respublika bo'yicha bir xilligini ta'minlaydi va nazorat jarayonlaridagi subyektiv yondashuv hamda korrupsiyaviy xavflarni minimallashtiradi.

Tashkiliy samaradorlik. Hujjatlar shaklining unifikatsiyalanishi va barcha jarayonlarning "edo.ijro.uz" elektron tizimiga o'tkazilishi natijasida inspeksiya hujjatlarini rasmiylashtirish va yuqori turuvchi organlar bilan kelishish vaqti o'rtacha 35-40 foizga tejaladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik. Proaktiv nazoratga o'tilishi (risk tahlili asosida) eng himoyaga muhtoj ishchi toifalari huquqlarining buzilishini shikoyat tushishidan oldin barvaqt aniqlash va oldini olish imkonini beradi. Jamoaviy inspeksiyaning joriy etilishi esa ish beruvchilar va xodimlar o'rtasidagi mehnat nizolarining xolis hal etilishiga xizmat qiladi.

Ushbu unifikatsiyalashgan tartibni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, buning uchun

7 Yuridik asos sifatida O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2021-yil 20-aprelda O'RQ-682-son tartibi olingan.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 706-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga tegishli qo'shimchalar kiritish yoki alohida *"Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan ma'muriy nazorat tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"*gi ma'muriy reglamentni tasdiqlash zarur hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytganda, tadqiqot natijalari amaldagi tizimda tekshiruvlarni rejalashtirish, tayinlash, o'tkazish va rasmiylashtirish bosqichlari bo'yicha yagona protsessual tartiblarning yetarli darajada belgilanmaganligi huquqni qo'llash amaliyotida turlicha yondashuvlarning yuzaga kelishiga, inspektor diskretsiyasining kengayishiga hamda nazorat samaradorligining pasayishiga sabab bo'layotganini ko'rsatdi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tekshiruvga tayyorgarlik bosqichini norma-

tiv-huquqiy jihatdan mustahkamlash, tekshiruvni tayinlash va o'tkazishning yagona standartlarini joriy etish, protsessual hujjatlarni unifikatsiya qilish hamda ularni yagona elektron axborot tizimi orqali yuritish zarur. Natijada ma'muriy tartib-taomillarni kompleks unifikatsiya qilish va raqamlashtirish mehnat inspeksiyasi faoliyatining huquqiy aniqligi, institutsional barqarorligi va amaliy samaradorligini ta'minlaydi.

Ushbu takliflarning izchil amalga oshirilishi huquqni qo'llash amaliyotida yagona standartlarni qaror toptirish, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, mehnat huquqlarining ishonchli himoyasini kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasida zamonaviy, shaffof va samarali mehnat nazorati tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

#



O'ZBEKISTONDA QIMOR O'YINLARI VA BUKMEKERLIK FAOLIYATIGA NISBATAN TAQIQLOVCHI SIYOSATNING SHAKLLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada O'zbekiston huquqiy tizimida qimor o'yinlari va bukmekerlik faoliyatining taqiqlovchi davri (1959 – 2023-yillar) atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda 1959-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksidan boshlab, mustaqillik yillaridagi qonunchilik hujjatlari, jumladan, PQ-608 va VM-176-sonli qarorlar, shuningdek, Jinoyat kodeksining 278-moddasi bilan belgilangan jinoiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Ushbu davrdan ko'zlangan maqsad qimor o'yinlariga nisbatan davlatning qat'iy salbiy pozitsiyasini milliy mentalitet, axloqiy muhit va jamoat tartibini saqlash zaruratidir. Maqolada shuningdek, raqamli texnologiyalar davrida internet orqali tavsakalga asoslangan o'yinlarni cheklash va voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo'yicha ko'rilgan huquqiy choralar tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье всесторонне проанализирован запретительный период развития азартных игр и букмекерской деятельности в правовой системе Республики Узбекистан (1959–2023 гг.). В исследовании рассмотрена эволюция правового регулирования, начиная с Уголовного кодекса Узбекской ССР 1959 года и заканчивая нормативно-правовыми актами периода независимости, включая постановление Президента № ПП-608 и постановление Кабинета Министров № 176, а также раскрыты особенности уголовной ответственности, предусмотренной статьёй 278 Уголовного кодекса. Показано, что основной целью указанного запретительного периода являлось закрепление строгой отрицательной позиции государства по отношению к азартным играм, обусловленной необходимостью сохранения национального менталитета, нравственной среды общества и обеспечения общественного порядка. Кроме того, в статье проанализированы правовые меры, направленные на ограничение игр, основанных на риске и осуществляемых посредством сети Интернет в условиях развития цифровых технологий, а также на защиту несовершеннолетних.

ABSTRACT. This article provides a comprehensive analysis of the prohibitive period of gambling and bookmaking activities in the legal system of the Republic of Uzbekistan (1959–2023). The study examines the evolution of legal regulation beginning with the 1959 Criminal Code of the Uzbek SSR and continuing through the legislative acts adopted during the years of independence, including Presidential Resolution No. PQ-608 and Resolution of the Cabinet of Ministers No. 176. It also highlights the specific features of criminal liability established under Article 278 of the Criminal Code. The article demonstrates that the main objective of this prohibitive period was to establish a strict negative stance of the state towards gambling, which was determined by the need to preserve the national mentality, maintain the moral environment of society, and ensure public order. In addition, the study analyzes legal measures aimed at restricting risk-based games conducted via the Internet in the context of the development of digital technologies, as well as measures intended to protect minors.

Kalit so'zlar: qimor o'yinlari, taqiqlovchi siyosat, Jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, totalizator, o'yin avtomatlari, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, raqamli huquqbuzarliklar, reklama taqiqi, profilaktika.

Ключевые слова: азартные игры, запретительная политика, Уголовный кодекс, уголовная ответственность, административная ответственность, тотализатор, игровые автоматы, социально-правовые ценности, цифровые правонарушения, запрет на рекламу, профилактика.

Key words: gambling, restrictive policy, Criminal Code, criminal liability, administrative liability, totalizator (bookmaker), slot machines, social and moral values, digital offenses, advertising ban, prevention.

O'zbekiston Respublikasining huquqiy tizimida qimor o'yinlari va bukmekerlik faoliyatining shakllanishi hamda rivojlanishiga nazar tashlansa, uni shartli ravishda ikki asosiy davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr sifatida qimor o'yinlari va bukmekerlik faoliyati qat'iy taqiqlangan bosqichni ko'rsatish mumkin bo'lib, bu davr O'zbekiston SSR-ni 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksidan boshlab 2023-yil 7-aprelga, ya'ni ushbu faoliyatni qonuniylashtirish yo'lidagi dastlabki huquqiy qadam tashlangan davrgacha bo'lgan oraligni qamrab oladi. Ikkinchi davr esa 2023-yil 7-apreldan hozirgi kungacha davom etayotgan, bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tartibga solish hamda ularni qonuniy maydonga olib

chiqish bilan tavsiflanadigan bosqichdir.

Qimor o'yinlariga nisbatan taqiq siyosatining il-dizlari 1959-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga¹ borib taqaladi. Mazkur kodeksning 213-moddasida qimor o'yinlari uchun joylar tashkil qilish va ularni saqlash jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan edi. O'sha davr nuqtayi nazaridan bunday taqiq, avvalo, jamiyatni qimor o'yinlari tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va axloqiy xavflardan himoya qilishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, sovet huquq tizimida ayrim istisnalar ham mavjud bo'lgan. Xususan, ot poygalarida davlat nazorati ostida pul tikish tizimi qonuniylashtirilgan bo'lib, bu holat SSSR Ministrlar Sovetining 1970-yil 12-iyundagi 440-sonli "Ot poy-

1 O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi (1959-yil 21-maydagi O'zSSR qonuni bilan tasdiqlangan). – Toshkent: "Adolat", 1984-yil 248-bet.



galarida totalizatorlar o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qonunchilik bazasini shakllantirish jarayonida ham qimor o'yinlariga nisbatan taqiqlovchi yondashuv saqlab qolindi. 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 278-moddasi asosida qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Shu tariqa, "qimor o'yinlarini tashkil etish" alohida jinoyat tarkibi sifatida milliy huquq tizimida mustahkamlandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston nafaqat sovet huquqiy merosidan o'tgan taqiqlovchi normalarni saqlab qoldi, balki ularni milliy manfaatlar, an'analar hamda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib yanada takomillashtirdi. Bu davrda qonunchilik qimor o'yinlarini shunchaki iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki jamoat tartibi, axloqiy muhit va ijtimoiy barqarorlikka tajovuz qiluvchi salbiy hodisa sifatida talqin qilishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 608-sonli² qarori ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi. Keyinchalik u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-noyabrdagi 231-sonli farmonining 255-bandida o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilgan.

Qimor o'yinlari sohasidagi taqiqlovchi siyosatni yanada aniqroq huquqiy mexanizmlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 176-sonli³ qarori qabul qilindi. Bu qaror Prezidentning 608-sonli qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, qimor o'yinlariga qarshi huquqiy choralarini yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Mazkur qaror bilan 2007-yil 1-sentyabrdan boshlab O'zbekiston hududida qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni, jumladan, totalizatorlar hamda o'yin avtomatlarini tashkil etish va o'tkazish taqiqlandi. Shuningdek, telekommuni-

katsiya tarmoqlari, xususan, internet provayderlari tomonidan bunday faoliyat uchun xizmatlar ko'rsatish man etildi. Bundan tashqari, pul yutug'iga ega bo'lgan o'yin avtomatlarini mamlakat hududiga olib kirish ham taqiqlandi.

Qarorning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, unda qimor o'yinlari bilan bog'liq o'yin anjomlari, o'yin avtomatlari, stavkalar, yutuqlar va ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni olib qo'yish hamda davlat daromadiga o'tkazish tartibi belgilab qo'yildi. Bu holat davlatning mazkur sohadagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga qanchalik jiddiy yondashganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentyabrdagi 109-sonli⁴ qonuni bilan Jinoyat kodeksi-ning 278-moddasi yangi tahrirda bayon etildi va uning nomi "Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish" deb belgilandi. Ushbu normada "tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar" iborasining qo'llanilishi, aslida qimor o'yinlarining turli shakllarini, shu jumladan, bukmekerlik faoliyatini ham qamrab olishga qaratilgan edi. Moddada jinoyatning to'rtta muqobil shakli nazarda tutilib, ular qimor o'yinlarini tashkil etish, o'tkazish, qimorxona tashkil etish va qimorxonani saqlashdan iborat etib belgilandi. Shuningdek, mazkur qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga ham o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, kodeksning 191-moddasi qimor o'yinlari bilan bog'liq huquqbuzarliklarni tizimlashtirishga xizmat qildi. Unga ko'ra, qimor o'yinlarida qonunga xilof ravishda ishtirok etish, takroran sodir etilgan holatlar, voyaga yetmaganlarni jalb qilish, shuningdek, telekommunikatsiya vositalari va axborot texnologiyalari orqali ko'maklashish kabi qilmishlar uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi.

Mazkur qonun bilan kiritilgan o'zgartirishlar qimor o'yinlariga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar bilan bog'liq jinoyatlar soni 2019-yilda 55 tani, 2020-yilda 86 tani, 2021-yilda 103 tani, 2022-yilning dastlabki olti oyida esa 90 tani tashkil etgan. Mutaxassislar fikricha, ushbu jinoyatlarning ortib borishiga qimor o'yin-

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-martdagi "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq noqonuniy faoliyatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 608-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 13-son, 116-modda; 2017-y., 37-son, 982-modda.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi "Qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 176-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 26.04.2024-y., 06/24/68/0302-son.

4 O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentyabrdagi "Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazishni tartibga solish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 109-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2021-y., 03/21/701/0674-son.



larining insonda qaramlikni shakllantirishi, katta miqdordagi pul mablag'larining yo'qotilishiga sabab bo'lishi, ayrim fuqarolarni esa o'z joniga qasd qilish, firibgarlik, budjet mablag'larini talon-toroj qilish kabi og'ir huquqbuzarliklarga undashi omil bo'lgan. Mazkur holat mavjud qonunchilik normalari yanada takomillashtirish, qonunbuzarliklarga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish va fuqarolarni bunday faoliyatning salbiy oqibatlari haqida kengroq xabardor qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrda "Raqqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi 381-sonli⁵ qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorning 5-bandiga ko'ra, agar to'lov tizimlari orqali mablag'larni oluvchi subyekt tomonidan qimor o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish faoliyati yoki kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshirilayotganini ko'rsatuvchi kodlar va identifikatsion belgilar aniqlansa, tijorat banklari tomonidan bank kartalari orqali O'zbekiston hududidan tashqarida joylashgan bunday mablag' qabul qiluvchilarga transchegaraviy pul o'tkazmalarini amalga oshirish taqiqlanadi. Shuningdek, vakolatli organlar murojaati asosida qimor o'yinlarida ishtirok etish va noqonuniy kapital operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi internet resurslarini maxsus reyestrda kiritish orqali ularning tarqatilishi cheklanadigan bo'ldi.

Qimor o'yinlariga oid qonunchilik evolutsiyasini tahlil etishda O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi⁶ qonuni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu qonunning 46-moddasiga ko'ra, qimor o'yinlari va tavakkalchilik elementiga asoslangan boshqa o'yinlarni reklama qilishga taqiq joriy etilgan. Mazkur taqiq telekommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, internet orqali amalga oshiriladigan reklama shakllariga ham tatbiq etiladi. Shu bilan birga, reklama materiallarida voyaga yetmagan shaxslarning tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar hamda lotereyalarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi haqida ogohlantiruvchi axborot bo'lishi zarurligi belgilangan.

2025-yil 1-yanvardan boshlab bukmekerlik faoliyatining qonuniylashtirilganligini hisobga olgan

holda ushbu faoliyatni tartibga solishda xorijiy mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlar tajribasini o'rgangan holda bukmekerlik va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar reklamasida quyidagilarni majburiy etib belgilash taklif etiladi.

Ijtimoiy ogohlantirish. Reklama maydonining (shuningdek, videorolik vaqtining) kamida 20 foizi oq fonda qora harflar bilan yozilgan "Bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar moddiy zarar va psixologik qaramlikka olib kelishi mumkin" degan matndan iborat bo'lishi shart. Bu taklif quyidagi afzalliklarga olib keladi, jumladan, fuqarolarni bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning asl tabiatidan ogoh etishdir. Reklama ko'pincha faqat "oson g'alaba" yoki "yorqin hayot"ni ko'rsatadi. 20 foizlik ogohlantirish matni esa: iste'molchida faqat ijobiy emotsiya emas, balki xavf haqida ham tasavvur uyg'otadi, odam o'yinga pul tikishdan oldin uning salbiy oqibatlari haqidagi fakt bilan to'qnashadi, "moddiy zarar" haqidagi ogohlantirish bevosita insonning iqtisodiy xavfsizligiga daxldor bo'lib, oilaviy budjetning asossiz sarflanishini kamaytiradi, fuqarolarning qarzgaga botish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur qoida tadbirkorlik subyektlari zimmasiga faqat foyda ko'rish emas, balki aholi genofondi va ma'naviy muhitini saqlash majburiyatini yuklaydi. Iste'molchi reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning nafaqat foydali tomonlarini, balki xatarlarini ham bilish huquqiga egadir.

Muvaffaqiyat illyuziyasini taqiqlash. Reklamada bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni mehnatga muqobil boyish yo'li sifatida talqin qilishni taqiqlash jamiyat va huquqiy tartib uchun quyidagi muhim afzalliklarni ta'minlaydi.

1. Bu taqiq jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida "oson boyish" psixologiyasi shakllanishining oldini oladi. Fuqarolarda daromad manbayi sifatida tavakkalchilik emas, balki bilim, mehnat va kasbiy faoliyatga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi.

2. Bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni daromad manbayi sifatida ko'rsatish odamlarni o'zining oxirgi jamg'armalarini tikishga yoki qarz olishga undaydi. Taqiq esa aholining iqtisodiy inqirozga uchrashi, oilaviy ajrimlar va qashshoqlik darajasi ortishining oldini oluvchi muhim filtrdir.

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrda "Raqqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi 381-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.12.2023-y., 07/23/381/0913-son.

6 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi "Reklama to'g'risida"gi 776-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 12.03.2025-y., 03/25/1046/0229-son.



3. Muvaffaqiyat illyuziyasi (illusion of control) insonni o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berishga majbur qiladi. Reklamadagi bunday manipulyatsiyaning cheklanishi qimorga qaramlik kasalligining ommaviy yoyilishini keskin kamaytiradi.

4. Bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni yagona "najot yo'li" deb bilgan shaxslar yutqazgan mablag'larini qoplash uchun firibgarlik, o'g'irlik yoki budjet mablag'larini talon-toraj qilish kabi jinoyatlarga qo'l urishi mumkin. Taqiq bu zanjirning birinchi bo'g'inini uzadi.

Yulduzlar ishtirokini cheklash. Voyaga yetmagan shaxslar o'zlari yoqtirgan sportchi yoki san'atkorni "ideal" deb bilishadi. Agar yulduz bukmekerlik faoliyati va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar targ'ib qilsa, o'smirda bu faoliyat "ijobiy va nufuzli" degan noto'g'ri tushuncha shakllanadi. Taqiq esa bu hissiy bog'liqlikdan foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, mashhur shaxslar auditoriyasi millionlab yoshlardan iborat. Ularning cheklanishi bukmekerlik brendlarining yoshlar submadaniyatiga kirib borishini va qimor o'yinlarining "trend"ga aylanishini to'xtatadi. Bu chora jamoat faollari va yulduzlarni o'z auditoriyasi oldida mas'uliyatli bo'lishga majbur qiladi. Ularning obro'si moddiy manfaat evaziga jamiyatga zarar keltiruvchi illatlarni yoyishga xizmat qilmasligini ta'minlaydi.

"Vaqt va makon" cheklovlarini joriy etish. Bukmekerlik reklamalarini faqat mahalliy vaqt bilan soat 23:00 dan 06:00 gacha ko'rsatishga ruxsat berish (sport telekanallaridagi jonli efirlar bundan mustasno, biroq ularda ham ogohlantirish matni doimiy

turishi shart). Bu cheklov reklamalarni asosiy auditoriya, ayniqsa, bolalar va maktab o'quvchilari televizor qarshisida bo'ladigan vaqtdan (prime-time) uzoqlashtiradi.

Tashqi reklama. Ta'lim, tibbiyot va sport muassalaridan kamida 500 metr masofada bukmekerlik reklamalarini o'rnatishni taqiqlash. Sababi ushbu muassasalarda odamlar gavjum bo'ladi. Maktablar va universitetlar atrofida reklamani taqiqlash yoshlarning ongiga ushbu illatning vizual tarzda kirib borishiga to'siq bo'ladi.

Reklama qonunchiligini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar voyaga yetmagan shaxslarning, shu bilan birgalikda, mamlakatimiz fuqarolari bukmekerlik faoliyatining salbiy oqibatlariga duch kelishining va tavakkalga asoslangan o'yinlarga qaramlikni keltirib chiqarishning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda qimor o'yinlariga nisbatan shakllangan huquqiy munosabatlar tarixiy-madaniy qadriyatlar, jamiyatning axloqiy qarashlari va davlatning ijtimoiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan kompleks tizimni ifoda etadi. Ushbu yondashuvda davlat nafaqat tartibga soluvchi subyekt, balki fuqarolarni, ayniqsa, yoshlar va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni himoya qiluvchi institut sifatida namoyon bo'ladi. Qonuniylashtirishgacha bo'lgan davrda qonunchilikning bosh maqsadi ijtimoiy barqarorlikni saqlash, aholini moliyaviy va ma'naviy xavflardan muhofaza qilish hamda sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashdan iborat bo'ldi.

#



Marjona NOSIROVA,
Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti tayanch doktoranti

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI TUSHUNCHASI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

ANNOTATSIIYA. Maqolada "nodavlat notijorat tashkilot" tushunchasi, xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi va "inson huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilot" tushunchasiga xalqaro va milliy qonunchilik asosida mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida NNTlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati hamda ularning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari ko'rib chiqiladi.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются понятие и особенности «негосударственной некоммерческой организации» в сравнительно-правовом аспекте и разрабатывается авторское определение понятия «негосударственная некоммерческая организация, защищающая права человека» на основе международного и национального законодательства. Также исследуются специфические особенности негосударственных некоммерческих организаций (НКО) и их деятельность в сфере защиты прав человека. В процессе анализа рассматривается значимость НКО в защите прав граждан, а также международные и национальные законодательные акты, которые служат основой для формирования и развития НКО.

ABSTRACT. The article analyzes the concept and characteristics of a 'non-governmental non-profit organization' from a comparative-legal perspective and develops the author's definition of a 'non-governmental non-profit organization protecting human rights' based on international and national legislation. In addition, the unique features of non-governmental non-profit organizations (NGOs) and their activities in the field of human rights protection are analyzed. During the analysis process, the importance of NGOs in protecting citizens' rights, as well as the international and national legal documents that serve as the basis for the formation and development of NGOs, are considered.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilot, inson huquqlarini himoya qiluvchi NNT, xalqaro NNT, BMT, DHRF, inson huquqlari himoyachisi.

Ключевые слова: негосударственная некоммерческая организация, правозащитная ННО, международная ННО, ООН, ДПЧ, правозащитник.

Key words: non-governmental non-profit organization, human rights protection NGO, international NGO, UN, NHRC, human rights defender.

Inson huquq va erkinliklarini kafolatlash har qanday demokratik huquqiy davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti tushunchasining kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak, mustaqillik yillarigacha bo'lgan davrda NNTlar o'rniga jamoat tashkilotlari mavjud bo'lib, ular asosan davlat tizimiga bog'liq bo'lgan. 1990-yillardan boshlab NNTlarning huquqiy asoslari yaratildi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tushuncha dastlab tijorat maqsadlarini ko'zlamaydigan, fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi sifatida jamiyatda ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, ekologik va huquqiy masalalarda faoliyat yurituvchi tashkilotlarni anglatgan. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda demokratik jara-

yonlarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ana shunday tashkilotlar faol ravishda tuzila boshlandi va ularning faoliyati qonun bilan tartibga solindi.

"Nodavlat notijorat tashkilotlari" tushunchasiga xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, V.Botnev¹ va T.D.Matveyeva² kabi tadqiqotchilar nohukumat tashkilotlarni inson huquqlarini ta'minlashda fuqarolik jamiyatining teng huquqli va o'zini o'zi boshqarish prinsipi-ga asoslangan institut sifatida e'tirof etishadi.

L.M.Salamon o'z ilmiy yondashuvida notijorat tashkilot atamasidan foydalanib, unga "Rasmiy ravishda tuzilgan, xususiy, notijorat faoliyat olib boruvchi, o'zini o'zi boshqaradigan va jamoat maqsadlariga xizmat qiladigan ko'ngilli tashkilot"³, deya ta'rif beradi.

1 Ботнев Ю.В. Конституционно-правовое регулирование деятельности неправительственных правозащитных организаций в России: автореф. дисс. М., 2008 г. – С. 4.

2 Матвеева Т.Д. Неправительственные организации в системе защиты конституционных прав и свобод человека: автореф. дисс. М., 1998.

3 Salamon L.M. "In Search of the Nonprofit Sector. I: The Question of Definitions" va "Defining the Nonprofit Sector: A Cross national Analysis". 2006., P.90-114.



X.T.Odilqoriyevning qarashlariga ko'ra, "nodavlat notijorat tashkilotlari siyosiy maqsadlar uchun emas, balki ma'lum guruhlarining madaniy, jismoniy va ma'lakaviy manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi"gan⁴ tashkilotlar hisoblanadi.

D.Xolmanova esa NNT tushunchasiga tor va keng ma'noda ta'rif bergan. Tor ma'noda nodavlat notijorat tashkiloti bu ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasidir. Keng ma'noda ixtiyoriylik asosida, daromad olishni maqsad qilmagan, siyosiy hokimiyatga intilmaydigan, rasman tashkil etiladigan jismoniy (yuridik) shaxslarning o'zaro manfaatlarini yoki boshqalar manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun tuziladigan, davlatga qarashli bo'lgan tashkilotdir⁵.

B.Narimanov esa o'z ilmiy tadqiqotida nodavlat notijorat tashkilotiga O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunida belgilangan ta'rifni keltiradi⁶.

Demak, qonunchiligimizda "Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir"⁷, deb belgilangan.

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, NNTlar fuqarolik jamiyatida ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajaruvchi, davlatdan mustaqil va notijorat xarakterga ega institut ekanligini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, NNTlarning asosiy belgilari sifatida ixtiyoriylik, teng huquqlilik o'z-o'zini boshqarish, tijorat maqsadlarini ko'zlamaslik, qonuniylik kabilarni keltirish mumkin.

Boshqa NNTlar kabi inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar ham o'z faoliyatidagi cheklovlar doirasida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) ular nodavlat hisoblanadi, ya'ni xususiy tashabbus asosida tashkil etiladi, davlat ta'siridan xoli bo'ladi va davlat funksiyalarini bajarmaydi;

2) ular notijorat maqsadga ega bo'lib, tashkilot faoliyati natijasida olingan har qanday daromad uning a'zolari o'rtasida taqsimlanmaydi, balki tashkilotning ustavida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi;

3) ular zo'ravonlikni qo'llamaydi va targ'ib qilmaydi, shuningdek, jinoiy faoliyat bilan aloqalarga kirishmaydi;

4) ular rasmiy shaklda tuzilib, ustavi va o'z tuzilmasi mavjud bo'ladi, odatda (lekin har doim ham emas) qonunchilikka muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi⁸.

Shu o'rinda aytish muhimki, xorijiy olimlarning NNTlarning o'ziga xos xususiyatlari borasidagi g'oyalari turlicha.

Morais Holanda, Hyoeun Kim va Susan Appe kabi olimlar NNTlarning xususiyatlari va tasnifi turlicha bayon etilishi mumkinligi, shuning uchun umumiy modellarni qo'llashda ehtiyot bo'lish kerakligi haqida fikrlar bildiradilar⁹.

Xususan, L.M.Salamon va H.Anheyerning qarashicha, uchinchi sektor tashkiloti rasmiy, xususi, notijorat, o'zini o'zi boshqaruvchi va ixtiyoriy¹⁰ bo'lishi kerak.

Estelle James NNTlar nazariyasida L.Salamon va H.Anheyerning izlanishlaridagi umumiy jihatlar va farqlarini ko'rib chiqib, NNTlar ko'proq iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar bilan bog'liq belgilarga ega ekanligini ta'kidlagan¹¹.

Bir qancha o'zbek olimlarining bu boradagi qarashlari ham o'ziga xos. Xususan, B.B.Rasulovning fikricha: "Nodavlat notijorat tashkilotning asosiy xususiyatlari: vertikal va gorizontaal aloqalarni amalga oshiradi hamda ijtimoiy sheriklik asosida davlat ijtimoiy siyosatini hududlarda amalga oshirishda ko'makchi bo'la oladi"¹².

4 Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. — Toshkent. "Adolat", 2018-yil, 153-bet.

5 D.Xolmanova "O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni". Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent, 2012-yil, 18-bet.

6 B.Narimanov "O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish". Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Toshkent, 2020-yil, 26-bet.

7 O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi 763-I-sonli qonuni.

8 Lindblom, Anna-Karin, Non-governmental organisations in international law, Cambridge University Press, New York, 2005, p.52

9 Holanda, B., Kim, H., & Appe, S. (2023). Virtual issue: Comparative civil society and third sector research in Voluntas. Voluntas: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 34(6), 1122–1133.

10 Salamon, L., & Anheier, H. (1992). In search of the non-profit sector: In search of definitions. Voluntas, 13(2), 125–52.

11 Fowler, A. (1998). Whither the third sector? A response to Estelle James. Voluntas: International Journal of Voluntary and Nonprofit Organizations, 9(3), 201–212.

12 Rasulov B.B. O'zbekistonda davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqqligini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokini rivojlantirish mexanizmlari: avtoref. diss. ...siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD). — Toshkent, 2020-yil, 20-bet.



A.X.Shadmanov fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati insonning barcha fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini, shuningdek, ularning rivojlanishini ta'minlash va himoya qilishning uzviy va muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi¹³ bo'yicha tahlillar olib borgan.

Biroq, B.O.Jumaniyazov ilmiy izlanishlarida mamlakatdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining aksariyat qismi hali o'zlari tayanadigan ijtimoiy qatlamlarni aniqlashtirib olmaganliklari yoki o'zlarini biron-bir ijtimoiy qatlam manfaatlarini ifodalovchi tashkilot darajasiga yetkaza olmaganliklari uchun ham ular faoliyatiga fuqarolarni jalb etish muammolari o'z yechimini topmaganligi, ayniqsa, hali ham aksariyat jamoat birlashmalari hamda nodavlat tashkilotlarning rahbarlari va faollarining eski byurokratik nomenklatura tizimida orttirgan ruhiyati va ish uslublaridagi tajribalari, xuddi davlat organlariga xos rahbarlik kabi faoliyati hamon saqlanib qolayotganligi¹⁴ NNTlar uchun salbiy jihatlar sifatida ko'rsatiladi.

Umuman olganda, nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy muammosi nafaqat huquqiy bazaning yetishmasligida, balki ularning institutsional mustaqilligi va jamoatchilik bilan real aloqasining zaifligidir. Milliy qonunchiligimizda belgilangan ixtiyoriylik, o'zini o'zi boshqarish, oshkorlik kabi prinsiplar amalda mavjud bo'lsa-da, ular amaliyotda to'liq ro'yobga chiqmagan. NNTlar faqat davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi institut emas, balki jamiyatning tashabbuslarini mustaqil ifoda etuvchi subyektga aylanishi lozim.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi NNT tushunchasiga milliy manbalarda aniq ta'rif mavjud emas. Biroq, xorijiy olimlarning tadqiqotlari va ilmiy izlanishlarida inson huquqlarini himoya qiluvchi guruh yoki inson huquqlari tashkiloti tushunchalari qo'llanilgan.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi guruh yoki inson huquqlari tashkiloti – bu inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilot (NNT) bo'lib, u inson huquqlari buzilishlarini aniqlash, monitoring qilish, huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash, tahlil qilish va

jamoatchilikka e'lon qilish orqali ularning xabardorligini oshiradi.

Yuqoridagi ta'rifni ko'proq anglo-sakson huquq tizimiga mos deb aytish mumkin. Chunki, ushbu huquq tizimining asosiy xususiyatlaridan biri sud presedenti hisoblanadi. Bu amaliyot nodavlat notijorat tashkilotlari faolligini kuchaytirib, ularning huquqiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bunday tizimda NNTlar faoliyatiga davlat nazorati nisbatan kamroq bo'ladir. Natijada ayrim hollarda NNTlar davlat organlari faoliyatiga ochiq aralashish orqali muayyan darajada bosim o'tkazishi mumkin. Bu holat roman-german huquq tizimidagi yondashuvdan farq qiladi va ba'zi olimlar tomonidan salbiy holat sifatida baholanadi.

Umuman olganda, bizning mualliflik ta'rifimiz shundan iboratki, *inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi nodavlat notijorat tashkilot* – bu davlatdan mustaqil faoliyat olib boradigan, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy asosda tashkil etilgan, asosiy maqsadi foyda olish bo'lmagan hamda olingan daromadni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlamaydigan, adolat, qonuniylik va demokratiya tamoyillariga rioya qilgan holda insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotdir.

Xalqaro huquqda inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar tushunchasi aynan keltirib o'tilmagan bo'lsa-da, uning o'rniga *"inson huquqlari himoyachilari"* tushunchasi mavjud bo'lib, uning mazmuni NNTlarga mos keladi deyish mumkin.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1998-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari himoyachilari to'g'risida"gi deklaratsiyaning (DHRF) 1-moddasida "Har bir inson, ya'ni alohida shaxs yoki boshqalar bilan birgalikda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish hamda ro'yobga chiqarish uchun harakat qilish huquqiga ega"¹⁵, deb mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni bunday shaxs yoki shaxslar jamoasi inson huquqlari himoyachilari bo'lishi mumkin. Huquqni targ'ib qiluvchi va himoya qiluvchi har qanday shaxs yoki tashkilot, jumladan, NNTlar inson huquqlari himoyachisi hisoblanadi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti

13 Shadmanov A.X. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyati (nazariya va amaliyot masalalari): avtoref. diss. ... Yuridik fanl. f. d. (PhD). – Toshkent, 2024-yil, 13-bet.

14 B.O.Jumaniyazov O'zbekistonda mustaqillik davrida fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi tarixi: avtoref. diss. ... Tarix fanl. d. (PhD). – Nukus, 2022-yil, 24-bet.

15 Декларация о праве и обязанности отдельных лиц, групп и органов общества поощрять и защищать общепризнанные права человека и основные свободы. Принята резолюцией 53/144 Генеральной Ассамблеи ООН от 9 декабря 1998 года [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.un.org>, (дата обращения: 17.02.2026).



(YXHT) hujjatlari hamda Yevropa kengashi qarorlarida ham fuqarolik jamiyati va NNTlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

Shuningdek, inson huquqlari bilan bog'liq bir qancha xalqaro miqyosdagi tashkilotlar mavjud. *Xalqaro inson huquqlari federatsiyasi (International Federation for Human Rights, 1922)*, *Xalqaro amnistiya (Amnesty International, 1961)*, *Inson huquqlari nazorati (Human Rights Watch, 1978)*, *Fuqarolik huquqlari himoyachilari (Civil Rights Defenders, 1982)*, *Global huquqlar (Global Rights, 1978)*, *BMT kuzatuv (UN Watch, 1993)* kabi tashkilotlar shular jumlasidandir.

Yuqorida sanab o'tilgan xalqaro tashkilotlar ayrim vazifalari va maqsadlari bilan bir-biridan biroz farq qilsa-da, ularning umumiy maqsadi inson huquqlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

NNTlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun dastlab xalqaro huquqiy hujjatlar muhim manba hisoblanadi. Shu o'rinda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi¹⁶ (1948) hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt¹⁷ (1966), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt¹⁸ (1966) kabi hujjatlarga ham tayaniladi. Shu bois inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar nafaqat milliy, balki xalqaro huquqiy mezonlarga ham mos ravishda faoliyat yuritishi talab etiladi. NNTlar jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlovchi muhim vosita sifatida fuqarolik jamiyati taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar xalqaro huquqiy normalar asosida ham faoliyat yuritadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilgan bo'lib, shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan prinsiplarni e'tirof etadi. Bu esa davlatning inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlari mavjudligini anglatadi. Bu esa NNTlar uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, huquqiy monitoring va tenglik prinsiplarini ta'minlashda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qiluv-

chi NNTlarning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), Fuqarolik kodeksi (1996), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi (1999), "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi (2004), "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi (1991), "Homiylilik to'g'risida"gi (2007), "Jamoat fondlari to'g'risida"gi (2003), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi (2019) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari bilan, shuningdek, Adliya vazirligi va boshqa idoralar tomonidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlar orqali mustahkamlab qo'yilgan.

Shuningdek, "xalqaro NNT" tushunchasiga qonunchiligimizda aniq ta'rif mavjud. "Xalqaro NNT – faoliyati uning ustaviga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi va bitta yoki undan ko'p xorijiy davlatlar hududida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan NNT"¹⁹.

Demak, milliy qonunchiligimizga asoslangan holda *"Xalqaro notijorat tashkilot – bu davlat tomonidan tuzilmagan, jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tashabbusi asosida ixtiyoriy ravishda tashkil etilgan, foyda olishni asosiy maqsad qilib olmaydigan, o'zini o'zi boshqarish prinsipiga rioya qilgan va ikki yoki undan ortiq davlat hududida inson huquqlari, ijtimoiy, madaniy, ta'lim va boshqa jamoat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan mustaqil fuqarolik jamiyati institutidir"* degan ta'rifni berish mumkin.

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar butun dunyo bo'ylab son-sanoqsiz. Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy saytidagi "NNTlar portali"da (e-ngo.uz) keltirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning filiallari onlayn reyestriga ko'ra, 2024-yilda jami 11 981 ta NNT davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, 2025-yilda esa bu ko'rsatkich 12 mingdan oshgan. Shulardan 10 mingdan ortig'i inson huquqlarini himoya qilish bilan ham shug'ullanadi. Biroq, faqat inson huquqlarini himoya qiluvchi NNTlar soni kamroqni tashkil qilib, 2025-yil holatida O'zbekistonda taxminan 100 ga yaqin tashkilot haqiqiy inson huquqlari yo'nalishida faoliyat yuritgan. Shuningdek, O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasida (O'zNNTMA) ham a'zolar

16 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. – Toshkent: "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, 2023-yil.

17 International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights, 1966. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights | OHCHR

18 International Covenant on Civil and Political Rights | OHCHR International Covenant on Civil and Political Rights, 1966.

19 Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qaroriga 1-ilova) [Elektron manba] // Yuridik shaxslarni vujudga keltirish, qayta tashkil etish va tugatish. – Toshkent, 2014-yil – Kirish tartibi: <https://www.nrm.uz>, (murojaat sanasi: 17.02.2026-yil).



orasida inson huquqlarini himoya qiluvchi 500 dan ortiq NNT mavjud.

Umuman olganda, NNTlarning huquqiy asoslari nafaqat milliy huquq tizimida, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadigan NNTlar tushunchasi va xususiyatlarini o'rganish dolzarbdir. Nega deyilganda, ko'pgina xorijiy mamlakatlarda bu tushuncha NNTlarning ta'siri davlat organlariga sezilarli darajada o'tkazilishiga imkon beradi. Bu esa NNTlarning notijorat maqsaddan chetga

chiqib, faoliyatining siyosiylashuviga olib keladi. Chunki, ko'p davlatlarda NNTlar mustaqil tashkilot sifatida rasmiy tarzda davlat ro'yxatidan o'tmagan holda o'zini alohida institut sifatida baholaydi. Shu sababli NNTlarning inson huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirib, inson huquqlarini himoya qiluvchi NNT tushunchasiga huquqiy ta'rif ishlab chiqilishi kerak. Natijada inson huquqlari sohasida NNTlarning aniq faoliyat doirasi belgilanadi va shu doiradan chetga chiqish holatlari yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga zamin yaratiladi.

.....

.....





Bahodir DAVLATOV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

QOG'OZDA QONUN – HAYOTDA PORAXO'RLIK: KORRUPSIYAGA QARSHI QONUNLARNING AMALDA BAJARILISHI TAHLILI

ANNOTATSIYA. Maqola O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunlarning amalda bajarilishi muammosiga bag'ishlangan. "Law in books" (qog'ozdagi qonun) va "law in action" (hayotdagi qonun) tushunchalari asosida tadqiqot olib borilgan. Qonunchilik tizimi (9 ta asosiy hujjat) va amaliyot ("Transparency International" tashkilotining ma'lumotlari, Bosh prokuratura hisoboti, sud statistikasi) qiyosiy tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi keng qonunchilik bazasi mavjud bo'lsa-da, amaliyotda bu qonunlar to'liq ishlamayapti. Maqolada "qog'ozdagi qonun" bilan "hayotdagi poraxo'rlik" o'rtasidagi tirqishni kamaytirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

АННОТАЦИЯ. Статья посвящена проблеме практической реализации антикоррупционных законов в Узбекистане. Исследование проведено на основе концепций "Law in books" и "Law in action". Проведён сравнительный анализ законодательной базы (9 документов) и практики (данные CPI Transparency International, отчёты Генпрокуратуры, судебная статистика). Результаты показывают, что несмотря на наличие обширной законодательной базы, на практике законы соблюдаются не полностью. В статье представлены практические предложения по сокращению разрыва между законом и реальной коррупцией.

ABSTRACT. This article is dedicated to the issue of the practical implementation of anti-corruption laws in Uzbekistan. The research was conducted based on the concepts of "law in books" and "law in action." A comparative analysis was performed between the legislative framework (9 key documents) and actual practice (Transparency International CPI data, Prosecutor General's reports, and judicial statistics). The results indicate that although an extensive legislative base exists in Uzbekistan, these laws are not being fully implemented in practice. The article provides practical proposals to bridge the gap between "law in books" and "corruption in action."

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, qonunchilik tizimi, amaliyotdagi qonun, CPI, manfaatlar to'qnashuvi, fosh qiluvchilar, "Xalq nazorati" portali, poraxo'rlik, "law in books" va "law in action".

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, законодательная система, закон в действии, CPI, конфликт интересов, осведомители, портал "Xalq nazorati", взяточничество, "law in books", "law in action".

Key words: corruption, anti-corruption, legislative system, law in action, CPI, conflict of interest, whistleblowers, portal "Xalq nazorati", bribery, law in books.

Korrupsiya butun dunyoda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. "Transparency International" tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) bo'yicha O'zbekiston 2024-yilda 180 davlat orasida 121-o'rinni, 2025-yilda esa 124-o'rinni egallab, 31 ball to'plagan¹. Bu ko'rsatkich 2016 – 2023-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lsa-da (21 balldan 33 ballgacha), so'nggi ikki yilda pasayish yoki turg'unlik holati kuzatilmoqda. Ushbu dinamika korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchilik islohotlari bilan amaliy natijalar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligidan dalolat beradi.

O'zbekiston hukumati so'nggi o'n yillikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng qonunchilik bazasini shakllantirdi: 2017-yildagi "Kor-

rupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"²gi qonun², 2024-yildagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"³gi qonun³, shuningdek, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari shular jumlasidandir. Biroq, qonunlarning mavjudligi ularning amalda samarali bajarilishini kafolatlamaydi. Amaliyotda ko'pincha "qog'ozda qonun – hayotda poraxo'rlik" holati kuzatiladi, bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunlarning amalda bajarilishini tahlil qilish hamda "law in books" (qog'ozdagi qonun) bilan "law in action" (hayotdagi qonun) o'rtasidagi tirqishni aniqlashdir. Yechilishi lozim bo'lgan asosiy masala quyidagicha shakllantirildi: qonunchilik bazasi kengayib borayotganiga qaramay nima uchun korrupsiyaga qarshi normalar to'liq amalga oshmayapti va qonun bilan amaliyot

1 Transparency International. Corruption Perceptions Index 2025. — Berlin: Transparency International, 2026. // URL: <https://www.transparency.org>

2 O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli qonuni // Lex.uz. — URL: <https://lex.uz>

3 O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi 931-sonli qonuni // Lex.uz. — URL: <https://lex.uz>





o'rtasidagi farq nimadan iborat?

Qonun bilan amaliyot o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosi huquq sotsiologiyasida uzoq tarixga ega. Ushbu farqlanishni ilk bor konseptual jihatdan asoslagan amerikalik huquqshunos Rosko Paund "law in books" (qonunlarda yozilgan rasmiy normalar) va "law in action" (qonunlarning haqiqiy hayotda qo'llanilishi) tushunchalarini 1910-yilda faniga kiritgan⁴. Keyinchalik Devid Nelken "yashovchi huquq" (living law) konsepsiyasi orqali qonun va ijtimoiy amaliyot o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilgan⁵.

Markaziy Osiyo misolida tadqiqot olib borgan Rustamjon Urinboyev va Mons Svenssonlarning ta'kidlashicha, "postsovet" makonida qonunlar ko'pincha faqat qog'ozda qolib ketadi, amaliyotda esa norasmiy normalar (tanish-bilish, poraxo'rlik, nepotizm) hal qiluvchi rol o'ynaydi⁶. Bu yondashuv O'zbekiston misolida korrupsiyaga qarshi qonunchilikni baholashda nazariy asos vazifasini o'taydi. Amaliy-statistik jihatdan "Transparency International" tashkilotining yillik CPI hisobotlari⁷ xalqaro miqyosda eng keng qo'llaniladigan qiyosiy manba hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy tahliliy nashrlar – "kun.uz"⁸ va xalqaro ekspert nashri "The Diplomat"⁹ O'zbekistondagi islohotlar sur'atini tanqidiy baholovchi materiallar taqdim etadi. Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotda qonunchilik tahlili va amaliyot tahlili ko'pincha alohida-alohida olib boriladi; ularni yagona qiyosiy tizimda birlashtirgan mahalliy tadqiqotlar hali yetarli emas – bu esa ushbu maqolaning ilmiy o'ziga xosligini belgilaydi.

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunchilik tizimi (9 ta asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat: qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari) tizimlashtirildi va uch bosqichli tarixiy davrlashtirish asosida tahlil qilindi:

dastlabki bosqich – tarqoq huquqiy normalar davri (1991–2016-yillar);

ikkinchi bosqich – tizimli qonunchilik asoslari-ning yaratilishi (2017–2020-yillar);

uchinchi bosqich – tizimni tubdan takomillash-tirish va xalqaro standartlarga moslashtirish davri (2021-yildan hozirgi kungacha).

Korrupsiyani tarixiy davrlashtirishdagi ikkinchi bosqich qonunchilik normalarining amaliy natijalari CPI ko'rsatkichlari (2016–2025-yy.), Bosh prokuraturaning korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha hisobotlari¹⁰, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yilgi hisoboti¹¹ hamda tarmoq vazirliklarining manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari bo'yicha ma'lumotlari¹² asosida baholandi. Olingan ma'lumotlar qonunchilik bazasining kengayish dinamikasi bilan solishtirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: qiyosiy-huquqiy tahlil (qonunchilik normalarini davrlar bo'yicha solishtirish), statistik ma'lumotlarni tahlil qilish (CPI ko'rsatkichlari dinamikasini miqdoriy baholash), shuningdek, ikkilamchi manbalar – ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va tahliliy OAV materiallari tahlili.

Qonunchilik tizimining amaliy samaradorligini baholashda xalqaro indekslar, xususan, "Transparency International" tashkiloti tomonidan tayyorlanadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) muhim ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekistonning 2016–2025-yillardagi CPI dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2016–2023-yillarda CPI ko'rsatkichi 21 ball dan 33 ballgacha o'sgan (+12 ball), bu davrda mamlakat reytingi 156-o'ringan 136-o'ringa ko'tarilgan. Biroq, 2024–2025-yillarda ball 31 darajasida barqarorlashgan bo'lib, bu 2023-yilgi 33 ballik ko'rsatkichga nisbatan pasayishni bildiradi. 2025-yilda O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston (40 ball, 96-o'rin) va Qirg'izistondan (35 ball, 110-o'rin) keyin uchinchi o'rinni egallagan, umumjahon reytingida esa 124-o'rinda joylashgan – bu "o'rtacha yuqori darajadagi korrupsiya" mavjudli-

4 Pound R. Law in Books and Law in Action // American Law Review. — 1910 yr. — Vol. 44. — 12 – 30-p.

5 Nelken D. Law in Action or Living Law? Back to the Beginning in Sociology of Law // Legal Studies. — 1984 yr. — Vol. 4, No. 2. — 157–174-p.

6 Urinboyev R., Svensson M. Law, Society, and Corruption: Lessons from the Central Asian Context. — London: Routledge, 2024 yr. — 240-p.

7 Transparency International. Global Corruption Barometer — Uzbekistan. — Berlin: Transparency International, 2024. — URL: <https://www.transparency.org>

8 20. Uzbekistan's Anti-Corruption Progress Stalls as Country Drops in 2025 Global Index // Kun.uz. — 2026, 11-fevral. — URL: <https://kun.uz>

9 21. Uzbekistan's Anti-Corruption Fight: Progress or Crisis? // The Diplomat. — 2024. — URL: <https://thediplomat.com>

10 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022–2024-yillardagi korrupsiyaviy jinoyatlar to'g'risidagi hisoboti. — Toshkent, 2024-yil.

11 O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yilgi hisoboti. — Toshkent, 2025-yil.

12 O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari to'g'risidagi hisoboti. — Toshkent, 2025-yil.



gidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunchilik tizimining uch bosqichli rivojlanish dinamikasi aniqlandi. Birinchi bosqichda (1991–2016-yy.) korrupsiyaga oid masalalar asosan Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi doirasida, tarqoq tarzda tartibga solingan. Ikkinchi bosqichda (2017–2020-yy.) 2017-yil 3-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun (O'RQ-419) qabul qilinishi tizimli asoslarining yaratilishida burilish nuqtasi bo'ldi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5729-sonli farmoni ushbu tizimni institutsional jihatdan mustahkamladi¹³. Uchinchi bosqichda (2021-yildan hozirgi kungacha) 2021–2025-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya, 2024-yildagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun (O'RQ-931) hamda 2025-yildagi bir qator yangi hujjatlar (PF-71, PQ-147, PQ-288, PF-270) qabul qilindi.

Yil	Ball (0–100)	Jahondagi o'ri (180 davlat orasida)
2016	21	156-o'rin
2017	22	157-o'rin
2018	23	158-o'rin
2019	25	153-o'rin
2020	26	146-o'rin
2021	28	144-o'rin
2022	31	140-o'rin
2023	33	136-o'rin
2024	31	121-o'rin
2025	31	124-o'rin

Manba: "Transparency International" CPI 2016–2025-yillar hisobotlari

Amaldagi institutsional tizim quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi – sohadagi asosiy vakolatli organ bo'lib, 2025-yildan boshlab uning profilaktika yo'nalishi kuchaytirildi;

2) Prezident rahbarligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi – koordinatsion organ;

3) ichki antikorrupsiya nazorati (komplayens) bo'linmalari, ularning shtat me'yorlari 2025-yil 21-apreldagi 147-sonli Prezident qarori bilan belgilangan (150 tagacha shtat birligi bo'lgan tashkilotlarda – 1 xodim, 150-400 birlikda – 2 xodimli bo'lim, 400 va undan ortiqda – 4 xodimli bo'lim), "due dilligence", ya'ni "Sirli mijoz" instituti – nisbatan yangi, hozirda rivojlanish bosqichidagi mexanizm bo'lib, davlat xizmatlari ko'rsatuvchi organlarda korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi¹⁴.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi qonunchilik bazasining sifat va miqdor jihatidan kengayishi o'z-o'zidan amaliy samaradorlikni ta'minlamaydi. Nazarimizda, 2022–2023-yillardagi CPI o'sishi asosan institutsional islohotlarning dastlabki, "ko'zga tashlanuvchi" bosqichi (yangi organlar tashkil etilishi, qonunlar qabul qilinishi) bilan bog'liq bo'lgan, 2024–2025-yillardagi turg'unlik esa ushbu islohotlarning amaliyotga chuqur singib ketmagani, ya'ni ijro mexanizmlari va nazorat tizimining institutsional "yetuklik"ka hali erishmaganligi bilan izohlanadi. Bu xulosa Rustamjon Urinboyev va Mons Svenssonlarning "postsovet" makonidagi norasmiy institutlar rasmiy normalarni siqib chiqarishi haqidagi kuzatuvlari bilan uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, CPI ko'rsatkichini yagona haqqoniy mezon sifatida mutlaqlashtirishga qo'shilmaymiz: bu indeks ekspert va tadbirkorlar idrokiga asoslangani sababli u qonunchilik ijrosining barcha jihatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Shuning uchun tahlilda CPI ma'lumotlari Bosh prokuratura va agentlik hisobotlaridagi rasmiy statistika bilan birga ko'rib chiqildi, bu esa xulosalarning haqqoniyligini oshiradi.

Tadqiqot jarayonida bir qator metodologik va institutsional to'siqlar aniqlandi. Birinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha rasmiy statistikaning ochiqqligi cheklangan bo'lib, bu chuqur miqdoriy tahlil imkoniyatlarini qisqartiradi. Ikkinchidan, komplayens bo'linmalari va "Sirli mijoz" instituti kabi yangi mexanizmlar hali yetarli amaliy tarixga ega emas hamda tadbir davomida olingan dalillarning kuchi hali aniq emas, shu sababli ularning uzoq muddatli samaradorligini baholash erta hisoblanaadi. Uchinchidan, qonunchilik normalari bilan mahal-

13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5729-sonli farmoni // Lex.uz. – URL: <https://lex.uz>

14 Bekmurodov A.Sh. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh.Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022-yil, 246-bet.



liy ijtimoiy-madaniy amaliyot (tanish-bilish, norasmiy tarmoqlar) o'rtasidagi ziddiyat ilm-fanda hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, bu borada sotsiologik tadqiqotlar yetishmaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari Rustamjon Urinboev va Mons Svenssonning Markaziy Osiyo bo'yicha xulosalari bilan umuman mos keladi: ikkala tadqiqotda ham rasmiy qonunchilik va norasmiy amaliyot o'rtasidagi tirqish tizimli xususiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, "The Diplomat" nashrining tahliliy materiallarida ilgari surilgan "islohotlar tanaffusga uchradi" degan tezis ushbu maqoladagi CPI dinamikasi bilan qisman tasdiqlanadi, biroq muallif bu holatni to'liq "tanaffus" emas, balki institutsional islohotlarning tabiiy sekinlashuv bosqichi sifatida talqin qiladi. "Kun.uz" nashri tomonidan qayd etilgan 2025-yilgi reyting pasayishi esa mazkur tadqiqotning statistik xulosalarini mustahkamlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi keng qonunchilik bazasi va institutsional tizim shakllantirilgan bo'lsa-da, "qog'ozdagi qonun" bilan "hayotdagi poraxo'rlik" o'rtasidagi tirqish hali to'liq bartaraf etilmagan. Buning asosiy sababi qonun ijrosini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarning yetarli "yetuklik"ka erishmaganligi, shuningdek, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan nol tolerantlik madaniyatining hali to'liq shakllanmaganligidadir.

Ushbu tirqishni kamaytirish maqsadida quyida-

gi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1) korrupsiyaga qarshi kurash faqat qonun va jazo choralari bilan cheklanmasligi, balki jamiyatning barcha qatlamlarida korrupsiyaga nisbatan nol tolerantlik g'oyasini singdirish zarurligi; shu maqsadda umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab "Halollik va mas'uliyat" fani yoki moduli joriy etilishi, oliy ta'limda esa antikorrupsiya kursi majburiy fanga aylantirilishi lozim;

2) davlat xizmatchilari uchun yiliga kamida ikki marta majburiy treninglar tashkil etilishi hamda ushbu treninglardan o'tmagan xodimlarni lavozimga tayinlash yoki lavozimda qoldirish taqiqlanishi;

3) "Sirli mijoz" tadbirlari natijasida aniqlangan tizimli korrupsiya holatlari bo'yicha tegishli tashkilot rahbarining shaxsiy javobgarligini normativ jihatdan belgilash;

4) ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali korrupsiyaning iqtisodiyot va jamiyatga yetkazadigan ziyoni haqida muntazam targ'ibot materiallarini tarqatish, korrupsiyadan voz kechgan fuqarolar va tadbirkorlarning ijobiy tajribasini ommalashtirish.

Xulosa qilib aytganda, qonunchilik islohotlarining amaliy natijaga aylanishi uchun institutsional ijro mexanizmlarini mustahkamlash va jamiyat darajasidagi profilaktik ishlarni kuchaytirish bir vaqtning o'zida olib borilishi lozim. Faqatgina shu yondashuv "law in books" bilan "law in action" o'rtasidagi tirqishni real ravishda qisqartirishga xizmat qiladi.

#





Muborak NE'MATOVA,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA YUZAGA KELADIGAN FUQAROLIK-HUQUQIY NIZOLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola raqamli savdo platformalarida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy nizolar va ularning yuzaga kelish sabablarini yoritib berishga bag'ishlangan bo'lib, unda fuqarolik-huquqiy nizo tushunchasi nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy nizolar tadqiq etilib, savdo platformalari ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarning asosiy turlari, ularning huquqiy tabiati hamda kelib chiqish sabablari tahlil qilinadi.

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена исследованию гражданско-правовых споров, возникающих на цифровых торговых платформах, а также причин их возникновения. В работе раскрывается понятие гражданско-правового спора как в теоретическом, так и в практическом аспекте. Также исследуются гражданско-правовые споры, возникающие в сфере электронной торговли в Республике Узбекистан, анализируются основные виды конфликтов между участниками торговых платформ, их правовая природа и причины возникновения.

ABSTRACT. This article is devoted to the study of civil-law disputes arising on digital trading platforms and the causes of their occurrence. The concept of a civil-law dispute is examined from both theoretical and practical perspectives. The research also focuses on civil-law disputes arising in the field of e-commerce in the Republic of Uzbekistan, analyzing the main types of conflicts between participants of trading platforms, their legal nature, and underlying causes.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, fuqarolik-huquqiy nizo, iste'molchilar huquqini himoya qilish, savdo platformalari, marketpleyslar, tijorat operatorlari, shartnoma, yetkazib berish, zarar, javobgarlik.

Ключевые слова: электронная коммерция, гражданско-правовой спор, защита прав потребителей, торговые платформы, маркетплейсы, коммерческие операторы, договор, доставка, ущерб, ответственность.

Key words: e-commerce, civil-law dispute, consumer protection, trading platforms, marketplaces, commercial operators, contract, delivery, damage, liability.

Ma'lumki, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet tarmog'iga kirish imkoniyatlari ning kengayishi global miqyosda savdo munosabatlarining mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning asosiy sohalari dan biriga aylandi: ekspertlar bahosiga ko'ra, onlayn savdo hajmi dunyo bo'yicha har yili ikki xonali o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Ta'kidlash joizki, elektron tijorat o'zining tezkorligi va nisbatan past tannarxi tufayli an'anaviy savdoga nisbatan samarali savdo vositalaridan biriga aylandi.

Elektron tijoratning rivojlanish tendensiyasi O'zbekistonda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda "Zoodmall", "Uzum", "Wildberries", "Yandex" kabi marketpleyslar va internet platformalarining soni ortib bormoqda.

Shubhasiz, elektron tijoratning rivojlanishi tovar va xizmatlar aylanishini soddalashtirdi, biznes va uning mijozlarini mahsulotni sotish yoki sotib olish uchun bir joyda bo'lish zaruratidan xalos etdi. Biroq, har qanday faoliyat singari elektron tijoratning ham salbiy tomoni mavjud bo'lib, uning jadal o'si-

shi ortidan internet bilan bog'liq nizolar sonining keskin ko'payishi kuzatilmoqda.

Tomonlarning anonimligi, hududiy uzoqligi, elektron shartnomaning o'ziga xos xususiyatlari, tovar yetkazib berilganligi yoki xizmat ko'rsatilganligini lozim darajada aniqlashdagi murakkabliklar – bularning barchasi an'anaviy fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini sezilarli darajada moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi eng yirik bir kunlik onlayn savdo aksiyalaridan biri – "Global Shopping Festival" atigi 24 soat ichida "Alibaba" elektron tijorat platformalarida (asosan "B2C Tmall.com" va "C2C Taobao Marketplace" saytlarida) 120,7 milliard yuan (17,79 milliard AQSH dollari) daromad keltirgan. Ushbu platformalar 657 million yetkazib berish buyurtmalarini shakllantirib, 235 ta mamlakat va hududni qamrab olgan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, onlayn xaridlar bilan bog'liq nizolar umumiy nizolarning 40 foizdan ortig'ini, transchegaraviy onlayn xaridlar esa taxminan 10 foizini tashkil etadi¹. Shubhasiz, bitimlar

1 E.B. Ситкарева, Л.А. Крикун. Механизмы разрешения споров на платформах электронной торговли: возможность или необходимость? Цифровые технологии в системе частно-правовых (цивилистических) отношений // <https://inlibrary.uz/index.php/digiteclaw/article/view/136619/138199>



sonining ortishi bilan ishtirokchilar o'rtasidagi nizolar soni ham oshib boradi.

Davlat sudlari va xalqaro arbitraj organlari bunday katta hajmdagi ishlar oqimini obyektiv ravishda qamrab olishga qodir emas. Bundan tashqari, da'vo qiymatini inobatga olgan holda, nizolarni hal etishning an'anaviy usullariga murojaat qilish har doim ham samarali yechim bo'lib xizmat qilmaydi.

Mazkur sohani huquqiy tartibga solish O'zbekistonda avvalo, Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi hamda "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar normalari asosida amalga oshiriladi. Biroq, huquqni qo'llash amaliyoti amaldagi qonunchilikda ko'plab bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Fuqarolik huquqi nazariyasida fuqarolik-huquqiy nizolar an'anaviy ravishda fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan o'zaro huquq va majburiyatlar yuzasidan subyektlar o'rtasidagi kelishmovchilik sifatida talqin etiladi hamda ularni qonunda belgilangan himoya mexanizmlari orqali hal etish talab etiladi.

Fuqarolik huquqida huquq to'g'risidagi nizo fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar yoki harakatsizlik majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlar qat'iy belgilangan tartibda sodir etilishi va o'zaro bog'liq holda mavjud bo'lishi zarur.

Bu borada huquqshunos mutaxassislarning fikrini o'rganadigan bo'lsak, Sh.Ro'zinazarov, J.As-karov va A.Tursunov elektron tijoratning huquqiy asoslarini tahlil qilib, elektron shartnomalar, elektron hujjatlar va elektron tijorat subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritgan. Mualliflar elektron tijoratni rivojlantirish uchun qonunchilikni zamonaviy raqamli munosabatlarga mos ravishda takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi². M.A.Rojkova fuqarolik-huquqiy nizoni subyektiv huquqning buzilishi yoki e'tirof etilmasligi natijasida yuzaga keladigan huquqiy kelishmovchilik sifatida baholaydi³. E.V.Sitkareva va L.A.Krikun esa elektron savdo platformalarida nizolarning ko'payishini platforma-

larning ko'p subyektli tuzilishi hamda javobgarlik chegaralarining aniq belgilanmaganligi bilan izohlaydi⁴. S.A.Shadiyeva elektron tijoratni huquqiy tartibga solishda texnologik rivojlanish bilan bir qatorda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, elektron bitimlar ishonchligini ta'minlash hamda iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilish zarurligini qayd etadi⁵. Bunday ilmiy yondashuvlar raqamli tijorat sohasida maxsus fuqarolik-huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Huquq to'g'risidagi nizo murakkab yuridik tarkibni ifodalaydi va u faqat muayyan yuridik faktlar yig'indisi mavjud bo'lgan hamda ular belgilangan tartibda yuzaga kelgan taqdirdagina huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Xususan, bunday nizoning yuzaga kelishi quyidagi shartlar bilan bog'liq:

- shaxsning (himoya subyekti) subyektiv huquqlari boshqa aniq bir shaxs (huquqbuzar) tomonidan buzilishi yoki e'tiroz qilinishi;
- himoya subyekti tomonidan huquqbuzarga nisbatan muayyan xulq-atvorni talab qilish;
- huquqbuzar tomonidan ushbu talabning bajarilmasligi⁶.

Elektron tijorat sharoitida mazkur tushuncha o'ziga xos xususiyat kasb etadi, bu esa tegishli huquqiy munosabatlar amal qiladigan muhitning tabiati bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida, elektron tijorat tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu moddaning o'zida elektron tijorat subyektlari ham keltirib o'tilgan bo'lib, ular elektron tijorat ishtirokchilari va (yoki) elektron tijorat operatorlaridir⁷. Savdo platformalari (marketpleyslar) bu jarayonda alohida subyekt sifatida – sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etuvchi vositachi sifatida namoyon bo'ladi xolos, biroq ular yakuniy iste'molchi bilan bevosita shartnomaviy munosabatlarga kirishmaydi.

Mazkur ko'p subyektlilik o'ziga xos huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi: iste'molchi huquqlari buzilgan taqdirda, tegishli javobgar kim ekanligi

2 Ro'zinazarov Sh.N., Askarov J., Tursunov A. Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. – Toshkent: TDYU, 2021-yil // <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46331>

3 Рожкова М.А. Понятие спора о праве гражданском. <https://rozhkova.com/pdf/sporoprave-2005.pdf>

4 Е. В. Ситкарева., Л.А.Крикун. Механизмы разрешения споров на платформах электронной торговли: возможность или необходимость? Цифровые технологии в системе частно-правовых (цивилистических) отношений // <https://inlibrary.uz/index.php/digiteclaw/article/view/136619/138199>

5 S.A.Shadiyeva O'zbekiston va Xitoyda elektron tijorat munosabatlarini huquqiy tartibga solish: platformalar javobgarligi, iste'molchilarni himoya qilish va raqamli komplayensning qiyosiy-huquqiy tahlili // <https://slib.uz/article/36814>

6 Рожкова М.А. Понятие спора о праве гражданском // <https://rozhkova.com/pdf/sporoprave-2005.pdf>

7 O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/-6213382>



masalasi yuzaga keladi, ya'ni bunday holatlarda sotuvchi, platforma yoki uning operatoridan qay biri javobgar bo'lishi masalasi ochiq qoladi. Fuqarolik huquqi doktrinasida vositachilar va bevosita sotuvchilarning javobgarligini farqlaydi, biroq elektron platformalarga nisbatan ushbu masala hanuzgacha munozarali bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston qonunchiligida platformaning sotuvchilar harakatlari uchun subsidiar javobgarligi to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yilmagan, bu esa qonunchilikdagi mazkur bo'shliqni maxsus normalalar bilan to'ldirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda amaliyot shuni ko'rsatadiki, predmet tarkibi nuqtayi nazaridan elektron tijorat sohasidagi fuqarolik-huquqiy nizolar bir nechta asoslar bo'yicha yuzaga kelmoqda:

- masofaviy shaklda tuzilgan oldi-sotdi shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar;
- tovarning sifati va butligi (komplekt) bilan bog'liq nizolar;
- yetkazib berish majburiyatining lozim darajada bajarilishi bilan bog'liq nizolar;
- tovarni qaytarish va yetkazilgan zararni qoplashga oid nizolar;
- shaxsiy ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish bilan bog'liq nizolar;
- platforma va sotuvchi o'rtasidagi agentlik hamda vositachilik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar.

Bugungi kunda onlayn savdo sohasidagi nizolarning katta qismi aynan elektron shartnomani tuzish tartibi bilan bog'liq buzilishlardan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining shartnoma shakli va tuzilgan payti haqidagi umumiy qoidalari, shuningdek, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning maxsus normalariga ko'ra, shartnoma ofertani yuborgan shaxs tomonidan aksept olingan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Amaliyotda esa ko'pincha saytga joylashtirilgan ommaviy oferta mazmuni bitimning haqiqiy shartlariga mos kelmaydigan holatlar uchraydi. Masalan, buyurtma rasmiylashtirish jarayonida tovar narxi o'zgarib ketadi, mahsulot tavsifi noto'g'ri yoki chalg'ituvchi bo'ladi yoxud "foydalanuvchi kelishuvi" kabi standart shartlar iste'molchi huquqlarini sezilarli darajada cheklaydigan tarzda tuziladi.

MDH mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan oferta va aksept shartlarining nomuvofiqligi xaridorlarning e'tiroz bilan murojaat qilishining eng keng tarqalgan sabablaridan biri hisoblanadi⁸.

Ta'kidlash joizki, elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilik asosining mavjudligi uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ayrim omillar yo'qligini anglatmaydi. Shunday omillardan biri – internet orqali tuziladigan bitimlar uchun ishonchli huquqiy kafolatlarning hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Elektron tijorat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani sababli unda ko'plab texnik normalardan foydalaniladi, ba'zan ular hatto huquqiy normalar o'rnini ham bosib qoladi. Biroq, texnologik neytrallik prinsipiga rioya qilish uchun elektron tijorat avvalo, texnik emas, balki huquqiy tartibga solish predmeti bo'lishi lozim⁹.

Bundan tashqari, tovar sifati va tavsifga nomuvofiqlik muammolari ham elektron tijorat platformalaridagi asosiy nizo sabablaridan biri hisoblanadi. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun iste'molchining e'lon qilingan xususiyatlarga mos va tegishli sifatga ega tovar olish huquqini kafolatlaydi¹⁰. Elektron tijorat sharoitida esa xaridor tovarni sotib olishdan oldin uni bevosita tekshira olmaydi – u to'liq ravishda platformada joylashtirilgan tavsif, fotosuratlar va sharhlarga tayanadi.

Bu esa sotuvchi va xaridor o'rtasida sezilarli axborot nomutanosibligini yuzaga keltiradi. Ko'pincha ushbu holatdan insofsiz sotuvchilar foydalana-di: tovar xususiyatlari bo'rttirib ko'rsatiladi, mavjud nuqsonlar yashiriladi, chalg'ituvchi fotosuratlar joylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, onlayn savdo bilan bog'liq murojaatlarning qariyb 40 foizi aynan tovar sifati bilan bog'liq nizolarni tashkil etadi¹¹.

Bu borada xorij tajribasiga tayanadigan bo'lsak, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda elektron savdo platformalarida iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishda platforma operatorlarining huquqiy maqomini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etishini

8 Фадеев А.В., Аникин Г.Г. Дистанционный договор в сфере торговли как экономическое и правовое явление. Аграрное и земельное право. 2025 г. № 7. DOI 10.47643/1815-1329_2025_7_272

9 Шадиева С.А. Правовое регулирование электронной торговли в Республике Узбекистан // <https://inlibrary.uz/index.php/strategy-2030-young-scientists/article/view/33266/33895>

10 O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/-4704>

11 Почти 100 потребителей пожаловались на качество товаров, продаваемых через телемагазин Hopshop. // <https://www.uznews.uz/ru/posts/56843>



ko'rsatadi. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Raqamli xizmatlar to'g'risida"gi hujjatining (Digital Services Act Regulation EU 2022/2065) 16, 22, 30 va 31-moddalarida onlayn platformalar hamda marketpleyslar zimmasiga noqonuniy mahsulotlar tarqalishining oldini olish, sotuvchilarni identifikatsiya qilish, foydalanuvchilarning noqonuniy kontent haqida xabar berish mexanizmlarini yaratish hamda iste'molchilarni himoya qilishga qaratilgan qo'shimcha majburiyatlar yuklatilgan¹². Rossiya Federatsiyasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 26.1-moddasida esa masofaviy savdo shartnomalari bo'yicha iste'molchiga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot hajmi hamda sotuvchining javobgarligi alohida tartibga solingan¹³. Mazkur tajriba O'zbekiston qonunchiligida ham elektron savdo platformalari operatorlarining huquqiy maqomi va javobgarligini yanada aniq belgilash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, raqamli tijoratda tovarni yetkazib berish majburiyatni bajarishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada uchraydigan odatdagi buzilishlarga — yetkazib berishning kechikishi, tashish jarayonida tovarning yo'qolishi yoki shikastlanishi, yetkazib berilgan tovarning buyurtmaga mos kelmasligi kabilarni misol qilishimiz mumkin. Sotuvchi va yetkazib berish xizmati (ko'pincha mustaqil yuridik shaxs bo'ladi) o'rtasida javobgarlikni taqsimlash muhim huquqiy muammo hisoblanadi. Amalda iste'molchi ikki subyekt bilan o'zaro aloqada bo'ladi, biroq shartnomani faqat bit-tasi — sotuvchi bilan tuzgan bo'ladi. Fuqarolik kodeksida majburiyatni bajarishga jalb etilgan uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi haqidagi umumiy qoida belgilangan bo'lsa-da, ushbu qoidaning marketpleyslar doirasida qo'llanish amaliyoti hali to'liq shakllanmagan¹⁴.

Tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, raqamli tijorat sohasidagi fuqarolik-huquqiy nizolar o'ziga xos huquqiy tabiatga ega bo'lib, bu raqamli savdo

muhitining xususiyatlari, huquqiy munosabatlar-ni ko'p subyektiligi hamda ular o'rtasidagi no-mutanosib axborot almashinuvining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, ularning yuzaga kelish sabablari asosan elektron shartnoma tuzishdagi buzilishlar, tovar sifatining lozim daraja-da emasligi, tomonlarni identifikatsiya qilishdagi muammolar, yetkazib berish va tovarni qaytarish jarayonidagi kamchiliklar orqali vujudga keladi.

Amaldagi qonunchilik bazasi, jumladan, Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar marketpleys modelining o'ziga xos jihatlarini to'liq hisobga olmaydi. Bu esa ularni yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu boisdan yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, raqamli savdo platformalarida yuzaga keladigan fuqarolik-huquqiy nizolarni kamaytirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunga elektron savdo platformasi operatorining iste'molchilar oldidagi subsidiar javobgarligi belgilanishi maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, Fuqarolik kodeksining 369- va 370-moddalarini elektron tijorat munosabatlari xususiyatidan kelib chiqib takomillashtirish, elektron savdo platformalarida joylashtirilgan ommaviy ofertada tovarning asosiy tavsifi, yakuniy narxi, yetkazib berish muddati, qaytarish shartlari hamda sotuvchi rekvizitlari majburiy shart sifatida ko'rsatilishini nazarda tutuvchi normalarni kiritish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunga masofaviy usulda tuzilgan shartnomalar bo'yicha alohida modda kiritilib, elektron savdo platformalari orqali xarid qilingan tovarlarni qaytarish muddati, qaytarish xarajatlarini kim qoplashi hamda pul mablag'larini qaytarishning maksimal muddatlari qat'iy majburlov tartibda belgilanishi lozim.

#

12 Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services and amending Directive 2000/31/EC (Digital Services Act) (Text with EEA relevance). // <https://eur-lex.europa.eu/>

13 Закон РФ от 07.02.1992 N 2300-1 (ред. от 28.12.2025, с изм. от 17.02.2026) "О защите прав потребителей" // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_305/1525b1a2f037db240c8e6a749619f86e53857f13

14 O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi II qism. 1189-1192-moddalar // <https://lex.uz/ru/docs/-180552#-199405>





Shohjahon JUMAYEV,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVLARINING AYRIM JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari, ularning o'ziga xos jihatlari, tekshiruv o'tkazish asoslari hamda prokuror tekshiruvlaridagi harakat (harakatsizlik) va hujjatlar ustidan yuqori turuvchi prokuror yoki sudga shikoyat qilish tartibi xususida so'z borgan. Bir qator huquqshunos olimlarning fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishilgan hamda ularning qarashlariga nisbatan muallifning shaxsiy ilmiy-nazariy pozitsiyalari keltirib o'tilgan. Bir nechta davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning tajribasi va xalqaro standartlar milliy qonunchilik bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, nazariya va amaliyotga yo'naltirilgan takliflar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются прокурорские проверки исполнения законов, их специфические особенности, основания для проведения проверок, а также порядок обжалования действий (бездействия) и документов в ходе прокурорских проверок вышестоящему прокурору или в суд. Вступлено в научную дискуссию с мнениями ряда учёных-юристов, а также изложены личные научно-теоретические позиции авторов по отношению к их взглядам. Опыт ряда государств, в том числе Казахстана, Туркменистана и Кыргызстана, а также международные стандарты проанализированы в сравнительно-правовом аспекте с национальным законодательством, и выдвинуты теоретические и ориентированные на практику предложения.

ABSTRACT. This article discusses prosecutorial inspections over the execution of laws, their specific features, the grounds for conducting inspections, as well as the procedure for appealing actions (inaction) and documents in prosecutorial inspections to a higher prosecutor or to a court. It engages in a scholarly debate with the opinions of a number of legal scholars and presents the authors' personal scientific and theoretical positions in response to their views. The experience of several countries, including Kazakhstan, Turkmenistan, and Kyrgyzstan, as well as international standards, is comparatively analyzed in relation to national legislation, and theoretical and practice-oriented proposals are put forward.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, tekshiruv o'tkazish asoslari, tekshiruv muddati, tekshiruv ustidan shikoyat qilish, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: прокурорский надзор, прокурорская проверка исполнения законов, основания для проведения проверки, срок проведения проверки, обжалование проверки, международные стандарты.

Key words: prosecutorial supervision, prosecutorial inspection over the execution of laws, grounds for conducting an inspection, time limit for conducting an inspection, appeal against an inspection, international standards.

Yurtimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, aholining turmush darajasi va hayot farovonligini oshirish, hududlarni har tomonlama rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda prokuratura organlarining mas'uliyatli hamda sharaflil faoliyati sezilarli ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga bag'ishlangan va unda qonuniylikni qat'iy ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda "Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar" tamoyilini bosh mezoniga aylantirish vazifasi qo'yilgan edi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni prokura-

tura organlarining qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash faoliyatini ham takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, uning 2-bandida prokuratura organlarining qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklariga, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga rioya etilishini nazorat qilish sohasidagi faoliyatiga axborot tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich keng joriy etish lozimligi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Keltirib o'tilganlar O'zbekiston Respublikasi-ning "Prokuratura to'g'risida"gi qonunida aks etgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir huquqiy normalarni ham takomillashtirish zarur va dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshev ham 2025-yil 19-mart kuni mamlakat aholisiga qilgan murojaatida "Har bir tekshiruv hamda tergov ishi prokurorlarning kundalik va qat'iy nazoratida bo'ladi. Tekshiruv va tergov harakatlari-ning har tomonlama, to'liq, eng asosiysi, xolis va



qonuniy o'tkazilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi"¹, deb ta'kidlab o'tdilar. Ushbu fikrlar juda o'rinli bo'lib, prokuror tekshiruvlarining qonuniyligi hamda samaradorligi ham doimiy e'tibor markazida ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari tekshiruvlarning eng muhim elementlaridan sanaladi. Yuridik adabiyotlarda ushbu masalaga doir turlicha fikrlar bildirilgan bo'lib, ayrim huquqshunoslarning nazariy qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Y.Ergashevning fikricha: "Qonunlar ijrosini tekshirishning asosiligi prinsipi muhim prinsip hisoblanib, uning asosida prokuratura organlari qonunlarning bajarilishini faqat qonun buzilishiga oid faktlar haqida olingan ma'lumotlar asosida tekshiradilar"².

Nazarimizda, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari Y.Ergashev ta'kidlaganidek, fakt to'g'risidagi ma'lumotlar asosidagina emas, balki mazkur toifadagi ma'lumotlar aks etgan arizalar, shikoyatlar, rahbariyat ko'rsatmalari, tarmoq rejalari, hay'at qarorlari va boshqa shu kabi hujjatlar asosida o'tkaziladi. Boisi yuqoridagi hujjatlar mazmuni kengroq doirada bo'lib, ularda nafaqat qonun buzilishi haqidagi faktik ma'lumotlar, balki tekshiruv muddatlari, uni o'tkazishda qo'llanilishi lozim bo'lgan tavsiyaviy taktikalar hamda metodlar, tekshiruvda alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar ham qayd etilgan bo'lishi lozim. Bunday ko'maklashuvchi ma'lumotlarning mavjud bo'lishi esa tekshiruvning sifatli hamda yanada samarali o'tkazilishiga hissa qo'shadi.

V.Galuzoning fikriga ko'ra, prokuror tekshiruvini o'tkazish sabab, asos va ma'lum shartlarning mavjudligini talab etadi. Asoslar qonunlarning buzilishi faktlari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Biroq, qonun buzilishi faktlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar ham asos sifatida e'tirof etilavermaydi. Ya'ni faqat prokuratura organlari vakolatiga kiradigan masalalar asos bo'la oladi, boshqa davlat organlari vakolatlari doirasiga kiradigan qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar esa tegishliligiga ko'ra yuborilishi zarur³.

Yuqorida keltirilgan olimlarning nazariy qarashlari tahlilidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari birmuncha kengroq doirada bo'lib, har

qanday qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar ham prokuror tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'la-vermaydi.

Umuman olganda, yuridik fanlar doktori A.B.Komilov to'g'ri ta'kidlab o'tganidek: "Prokuror tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish tartibotini huquqiy tartibga solish borasida O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va prokuratura organlarining ichki idoraviy hujjatlarini o'rganish shundan dalolat berdiki, hali bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina, to'g'rirog'i, hali bu masalada ishlar o'zining boshlang'ich nuqtasida turibdi"⁴.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 21-moddasi aynan qonunlar ijrosi bo'yicha prokuror tekshiruvlarining asoslariga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Vaholanki, prokuror tekshiruvlari orqali davlat organlari, tashkilotlari hamda ular mansabdor shaxslariga nisbatan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Bu esa ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muayyan darajada qonuniy tartibda cheklash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, bunday protsessual jarayonlarni o'tkazishning aniq va qat'iy asoslari qonun bilan tartibga solinishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida muayyan faktni belgilash bilan, shaxslarni turli xil javobgarlikka tortish hamda ularning huquq va erkinliklarini huquqiy ta'sir choralari orqali cheklash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tegishli qonun hujjatlari darajasida tartibga solinganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirishning qat'iy asoslari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonunning 9-moddasida, jinoyat ishini qo'zg'atishning aniq va qat'iy asoslari esa Jinoyat-protsessual kodeksining 322-moddasida belgilab berilgan va hokazo.

1 O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshevning mamlakat aholisiga murojaatidan // URL: <https://t.me/uzbprokuratura>.

2 Ергашев Е.Р. Обоснованность проведения проверок исполнения законов как принцип прокурорского надзорно-охранительного права // Российский следователь. 2007 г. № 23. – С. 38-39.

3 Прокурорский надзор: учеб. для вузов / под ред. О.А. Галустяна. М.: ЮНИТИДАНА; Закон и право, 2004 г. – С. 83.

4 Komilov A.B. Prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida huquqiy vositalarni qo'llashdagi muammolar va takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2025-yil, 189-bet.



Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni 9-moddasida O'zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi belgilangan. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni ham muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlar deb hisoblagan holda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishning to'la va qat'iy asoslari "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 21-moddasida belgilab qo'yilishi joiz degan fikrdamiz.

Bu masalada Rossiya Federatsiyasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 21-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan nazorat tekshiruvi qonun buzilishi haqidagi ma'lumotlar asosida hamda qonuniylik prokuror tomonidan chora ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqib amalga oshirilishi belgilangan. Shuningdek, prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar, federal davlat axborot tizimlari ma'lumotlari, uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar va aerofotosuratlar ham asos bo'lishi keltirilgan. Ammo milliy qonunchilikda belgilangan prokuror tekshiruvi asoslari nisbatan to'liq emas. Axborotlarning asosiy qismi zamonaviy texnologiya vositalari yordamida almashiladigan bugungi dunyoda prokuror tekshiruvlarini o'tkazishga asoslar qatoriga internet axborot-kommunikatsiya tarmog'ida joylashtirilgan xabarlar hamda uchuvchisiz havo vositalari yordamida olingan ma'lumotlar ham kiritilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o'tkazishning quyidagi asoslari kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

tarkibiy tarmoqlar ish rejalari;
hay'at qarorlari;
rahbariyat ko'rsatmalari;
jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;
ommaviy axborot vositalarining xabarlar;
internet jahon axborot tarmog'idagi xabarlar;
axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda uchuvchisiz havo vositalari (dronlar, xususan, kvadrokopter, geksakopter, oktokopter va boshqalar) orqali olingan ma'lumotlar.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari

fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat organlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonunbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida o'tkaziladi. Shunga qaramasdan, ba'zida tekshiruv subyektlari tomonidan tekshiruv o'tkazishda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkinligini ham inkor etib bo'lmaydi. Bu esa tabiiyki, tekshiriluvchilarda norozilik paydo bo'lishiga sabab bo'lib, shikoyat qilish ehtiyojini yuzaga keltirishi mumkin. Shunday ekan, tekshiruv jarayonida amalga oshirilgan harakatlar yoki chiqarilgan qarorlar ustidan shikoyat qilish mexanizmi tekshiruv obyektlarining qonuniy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.

Amaldagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda esa prokuror tekshiruvlari ustidan shikoyat qilish huquqi qayd etilmagan. Ma'lumki, prokuror tekshiruvlari davomida prokuror tomonidan tegishli tekshiruv harakatlari ketma-ketligi amalga oshirilib, mazkur harakatlar qonunga zid bo'lib qolsa (masalan, tekshiruv o'tkazishning qonuniy asosi bo'lmasa, tekshiruvning belgilangan muddati o'tib ketsa, tekshiruv uni o'tkazish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilsa) qanday yo'l tutish lozimligi aniq belgilanmagan.

Bu borada xalqaro standartlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega" ekanligi qayd etilgan⁵. Yoki 1966-yil 12-dekabrda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 2-moddasida ushbu paktga ishtirok etuvchi har bir davlat mazkur paktga tan olingan huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni, agar bu buzilish rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, huquqiy himoyaning samarali vositasi bilan ta'minlashni o'z zimmasiga majburiyat sifatida olishi belgilangan⁶.

Shuningdek, yuqoridagi masala boshqa xalqaro standartlarda ham alohida ta'kidlangan. Masalan, Venesiya komissiyasining "Sud tizimining mustaqilligi bo'yicha Yevropa standartlari to'g'risida"gi hisobotining ikkinchi qismiga muvofiq, prokurorning inson huquqlarini cheklaydigan harakatlari sud nazoratida bo'lishi kerak⁷. Shu kabi, Sud tizimi masalalari bo'yicha Yevropa tarmog'i xalqaro tashkilotining

5 Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // URL: <https://lex.uz/docs/7338189>.

6 Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt // URL: <https://lex.uz/docs/2640479>.

7 Report on European Standards as Regards the Independence of the Judicial System: Part II – the Prosecution Service (adopted by the Venice Commission at its 85 th plenary session, Venice, 17-18 December 2010, CDL-AD (2010)040) // <https://www.venice.coe.int>.



“Prokuraturaning mustaqilligi va hisobdorligi to'g'risida”gi hisobotining 43-bandida prokurorning qarorlari yuzasidan sudga shikoyat qilish tartibi mavjud bo'lishi zarurligi qayd etilgan⁸.

Ayrim xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratib, tekshiruvlar ustidan shikoyat qilish instituti qonun darajasida belgilanganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Qozog'iston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni 19-moddasiga asosan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini tayinlash to'g'risidagi qaror hamda prokuratura xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin⁹.

Shu kabi, Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni 11-moddasiga ko'ra, prokuror nazorati doirasidagi harakatlar va hujjatlar (aktlar) bo'yicha shikoyatlar, agar qonun bilan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, shikoyat qilinayotgan harakat sodir etilgan yoki prokuror hujjati e'lon qilingan kundan boshlab o'n kun ichida yuqori turuvchi prokurorga yuborilishi mumkin. Shikoyat qilish bu harakat yoki hujjatning ijrosini to'xtatmaydi. Prokuror o'z vakolatlarini amalga oshirar ekan, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan amalga oshirilayotgan harakat yoki chiqarilayotgan prokuror nazorati hujjati, shuningdek, ular bo'yicha shikoyat qilish tartibi va muddati haqida tushuntirish berishi shart. Yuqori turuvchi prokuror quyi lavozimdagi prokurorning harakatlari va hujjatlari bo'yicha berilgan shikoyatni bir oy muddatda ko'rib chiqadi va natijalari haqida yozma ravishda murojaatchiga hamda harakati ustidan shikoyat qilingan prokurorga xabar beradi¹⁰.

Xuddi shu kabi, Qirg'iziston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni 8-moddasiga muvofiq, prokurorning harakatlari va prokuror ta'sir hujjatlari ustidan yuqori turuvchi prokurorga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin. Prokuror talablari yoki prokuror ta'sir chorasiga doir hujjatlar ustidan shikoyat qilish ularning ijrosini to'xtatmaydi. Sud yoki yuqori turuvchi prokuror quyi prokurorning harakatlari yoki ta'sir chorasiga hujjatlari bo'yicha murojaatni ko'rib chiqish yakuniga yetgunga qadar ularni ijro etishni to'xtatib turishi mumkin. Yuqori turuvchi prokuror fuqarolar va

(yoki) yuridik shaxslarning murojaati asosida yoki o'z tashabbusi bilan quyi lavozimdagi prokurorning ta'sir chorasiga qo'llashga doir hujjatini bekor qilishi (qaytarib olishi) mumkin¹¹.

Shu bilan bir qatorda, A.B.Komilovning fikriga ko'ra: “Prokuror nazorati hujjatlari ustidan shikoyat qilish masalasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonunda tartibga solinmaganligi ushbu nazorat hujjatini qo'llagan prokurorni shaxsiy mas'uliyat va javobgarlik hissidan asossiz ozod qilib qo'yadi, ya'ni prokurorda kelgusida u qo'llagan hujjatlar ustidan nazorat tartibida yuqori turuvchi prokurorga yoki sudga shikoyat qilinishi va natijada hujjatning qonuniyligi shubha ostida qolishi mumkinligi haqida xavotir (hadik) bo'lmaydi”¹².

Bizningcha, quyidagi hollarda prokuror tekshiruvlari ustidan shikoyat qilish zarur va bu asosli bo'ladi:

- tekshiruv yetarli asoslarsiz yoki tegishli qarorsiz o'tkazilganda;
- tekshiruv o'tkazish muddati buzilganda;
- tekshiruvda vakolatsiz shaxs ishtirok etganda;
- prokuror o'z vakolatini suiiste'mol qilib, tekshiruv doirasidan chetga chiqqanda.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlaridan norozi bo'linganda yuqori turuvchi prokuratura yoki sudga shikoyat qilish mumkin bo'lib, shikoyatda quyidagilar ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- shikoyat qilinayotgan organ nomi va tomonlar haqidagi aniq ma'lumotlar;
- huquq buzilgan vaziyat (faktlar bilan);
- shikoyat qiluvchi tayanayotgan asoslar (normativ hujjatlarga havola bilan);
- talablar (ma'lum akti bekor qilish, tekshiruv natijalarini noqonuniy deb topish).

Umuman olganda, prokuror nazorati tadbiri shakli sanalgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruv ustidan yuqori turuvchi prokurorga yoki sudga murojaat qilish instituti O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonunida o'z aksini topsa, ijobiy natijalarga olib keladi. Chunki, bu tekshiruv qaratilgan obyektlar va mansabdor shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu taklifning amalga

8 ENCJ's Report (2014-2016) on Independence and Accountability of the Prosecution // <https://www.encj.eu/>.

9 Qozog'iston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni // URL: <https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z2200000155>.

10 Turkmaniston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni // URL: [https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-\(novaya-redaktsiya\)](https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-(novaya-redaktsiya)).

11 Qirg'iziston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni // URL: <https://cbd.minjust.gov.kg/4-3086/edition/37183/ru>.

12 Komilov A.B. Prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida huquqiy vositalarni qo'llashdagi muammolar va takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, 2025-yil, 157-bet.





oshirilishi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi 40-moddasida belgilangan "har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega"¹³ligi huquqiy normasiga mutanosib bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 21-moddasidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish asoslari doirasini xorij tajribasi asosida ken-

gaytirish va yanada aniqlashtirish lozim. Jumladan, zamonaviy-innovatsion vositalar, ya'ni internet jahon axborot tarmog'i hamda uchuvchisiz uchish apparatlari orqali olingan ma'lumotlarni ham prokuror tekshiruvini o'tkazish asoslari qatoriga kiritish zarur.

Ikkinchidan, prokuror tekshiruvi ustidan yuqori turuvchi prokurorga yoki sudga shikoyat qilish institutini O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga kiritish maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu institut tekshiruv obyektlari va mansabdor shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga xizmat qiladi. Qolaversa, ushbu taklifning joriy etilishi sohaga doir qator xalqaro standartlar talablariga ham muvofiq keladi.

#





Maftuna KHUDAYBERDIYEVA,
doctoral student at the Institute of State and Law
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

THE MANIFESTATION OF THE CHILD'S RIGHT TO EDUCATION AS A SPECIFIC SYSTEM AND ITS ELEMENTS

ABSTRACT. This article examines the child's right to education as a specific legal system within international and national legal standards. The study analyzes the historical development of children's rights, the role of the UN Convention on the Rights of the Child (1989), and the importance of education in human capital development under globalization and digital transformation. Particular attention is given to legal and institutional reforms in Uzbekistan, including inclusive and digital education. The article also identifies existing challenges such as regional disparities in educational quality and unequal access to education. The author proposes several recommendations aimed at strengthening legal and institutional mechanisms for ensuring children's right to quality education.

ANNOTATSIIYA. Maqolada bolaning ta'lim olish huquqi inson huquqlari tizimining muhim elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Unda avvalo, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda O'zbekistonda ta'lim olish huquqini ta'minlashning milliy mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish, inklyuziv va raqamli ta'lim masalalariga hamda sifatli ta'limga teng kirishni ta'minlashdagi mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif tomonidan bolaning ta'lim olish huquqini himoya qilishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ayrim takliflar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается право ребенка на образование как важный элемент системы прав человека. Анализируются международные стандарты, прежде всего Конвенция ООН о правах ребенка, а также национальные механизмы обеспечения права на образование в Узбекистане. Особое внимание уделяется вопросам развития человеческого капитала, инклюзивного и цифрового образования, а также существующим проблемам в сфере обеспечения равного доступа к качественному образованию. Автором предложены отдельные рекомендации по совершенствованию правовых и институциональных механизмов защиты права ребенка на образование.

Key words: child rights, right to education, human capital, globalization, international standards, inclusive education, digital education, legal mechanisms, Uzbekistan, UN Convention on the Rights of the Child.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, ta'lim olish huquqi, xalqaro standartlar, inson kapitali, inklyuziv ta'lim, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi.

Ключевые слова: права ребенка, право на образование, международные стандарты, человеческий капитал, инклюзивное образование, Конвенция ООН о правах ребенка.

The pace of globalization processes, the widespread introduction of digital technologies, and the orientation of modern society towards intellectual development make the issue of human capital development one of the paramount areas of state policy¹. One of the main factors of human capital is a quality education system, the effectiveness of which is closely related, first of all, to the full provision of children's right to education. Therefore, the right of a child to education is not only a socio-legal category, but also an important institution for the democratic development of the state, economic stability, and the establishment of civil society.

In the modern system of international law, the right to education is recognized as one of the core human rights. In particular, the Convention on the Rights of the Child, adopted by the UN in 1989, ensh-

rines the right of every child to education, and this document imposes obligations on states to protect the interests of children and create equal access to education. Article 28 of the Convention stipulates that primary education shall be compulsory and free, and Article 29 stipulates that education shall be directed to the development of the child's personality and abilities².

The right of the child to education is one of the main means of ensuring his intellectual, spiritual, physical and social development. In this regard, Lundy emphasizes that the implementation of the rights of the child should not be limited to protection alone, but should also ensure the active participation of the child in society³. Also, according to Verhellen, the Convention on the Rights of the Child has served to form a single legal model of children's

1 Schultz T.W. Investment in Human Capital. — New York: The Free Press, 1971. — P. 26–48.

2 Convention on the Rights of the Child. UN, 1989. Available at: UN — <https://www.unicef.org/child-rights-convention>

3 Lundy L. "Voice" Is Not Enough: Conceptualising Article 12 of the UN Convention on the Rights of the Child // British Educational Research Journal. — 2007. — Vol. 33, No. 6. — P. 927–942.



rights on a global scale⁴.

Today, reforms being implemented in the education system, including the development of inclusive education, the introduction of digital educational technologies, the expansion of private education services, and the implementation of international standards in national legislation, are taking the child's right to education to a new level⁵. In Uzbekistan, the modernization of the education system has been identified as one of the key areas of state policy, and the guarantees of this right are being strengthened through the Law "On Education" and other regulatory legal acts. At the same time, differences in the quality of education between regions, insufficient qualifications of teaching staff, disparities in the material and technical base, and problems related to equal access to education for children in need of social protection create the need for a deep scientific analysis of this area.

The concept and essence of children's rights occupy a special and extremely important place in the human rights system. Children's rights are a framework of rights aimed at protecting children in all aspects⁶. These rights guarantee children's survival, development, education, health care, protection and upbringing. The concept of children's rights in a broad sense includes the right of children to have equal rights and opportunities in life, the right to freely express their opinions, and guarantees for the protection of their personal dignity.

The essence of the rights of the child is to ensure the physical, spiritual, social and legal development of the child, to protect his safety, personality and proper upbringing. These rights are enshrined in international and national legal norms, including in such essential documents as the Universal Convention on the Rights of the Child, which are aimed at his fair and equal treatment in all areas, taking into account the personality and value of the child.

The concept of children's rights also requires prioritizing the best interests of the child, ensuring his full and active participation in society and providing him with continuous support. Each state is responsible for protecting the rights and freedoms of children and must create conditions for their implementation. This will strengthen the future of children and form them as unconditionally full and active members of society.

In the second half of the 20th century, especially with the establishment of the UN and the adoption of declarations on new approaches to human rights, children's rights emerged as a separate issue. The Universal Declaration of Human Rights and the UN Convention on the Rights of the Child were important steps in forming the legal basis for children's rights. According to this UN Convention, children's rights were aimed not only at protection, but also at improving the social and legal systems related to them. This document developed special legal protection mechanisms for children, including⁷:

- The right of the child to self-protection and development,
- The right of parents to fully realize their responsibilities towards their children,
- The right of the child to receive an equal education.

After the adoption of the UN Convention on the Rights of the Child on November 20, 1989, the rights of the child have taken a special place in international law. This Convention aims not only to protect the rights of the child, but also to ensure that children live a free and full life. Articles 4, 6, 12, 28 and 29 of the Convention define the responsibilities of states, societies and families in the implementation of the rights of the child⁸. In particular, these articles, which emphasize the primary responsibility of states in protecting the rights of the child, speak about the need to improve social conditions for children and provide them with equal opportunities.

The concept of children's rights has developed further in modern society and provides children with the opportunity not only to be protected, but also to exercise their rights, to actively participate in society and make their own independent decisions. This, in turn, requires the development of educational and pedagogical approaches to children's rights. Torney-Purta states that child rights education is not only aimed at protecting the rights of the child, but also at developing the social and civic consciousness of the child. Research conducted by Torney-Purta (2001) and Jensen (2004) shows that for child rights education to be effective, it is necessary to take into account not only legal concepts, but also the social and cultural context⁹. It was concluded that child rights education should not only consist

4 Verhellen E. Children's Rights and Education // Citizenship and Democracy in Schools: Diversity, Identity, Equality. — London: CiCe, 2000. — P. 33–43.

5 Jabborova G. State support for inclusive education: The situation in Uzbekistan // Education and Development. — 2020. — No. 8(1). — P. 12–18.

6 Freeman M. A Commentary on the UN Convention on the Rights of the Child. — Leiden: Martinus Nijhoff Publishers, 2007. — P. 15–21.

7 Universal Declaration of Human Rights, 1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

8 Convention on the Rights of the Child. UN, 1989. Available at: UN — <https://www.unicef.org/child-rights-convention>

9 Judith Torney-Purta (2001), Jensen (2004) Citizenship and Education in Twenty-eight Countries p. 19



of studying laws, but should also be aimed at ensuring the active participation of the child in society, as well as creating equal rights and fair opportunities. Although many countries have laws aimed at protecting the rights of the child, their execution is often poor. In this regard, first of all, there is a need to strengthen the legal mechanisms of the state, strengthen education on child rights.

Historically, children have begun to be recognized not only as protected individuals, but also as individuals capable of exercising their rights. In the 20th century, this concept has developed further and been reinforced by important documents such as the UN Convention on the Rights of the Child¹⁰. The Convention calls for the protection and realization of children's rights at a global level, which creates not only the right of the child to education, but also opportunities for equal and active participation in society. There are also many social, legal and economic challenges in the development and effective execution of child rights education, which must be addressed by further strengthening the legal systems of states.

The specificity of children's rights in the human rights system means that children's rights are of particular importance in social, cultural, economic and legal contexts. Children's rights require a specific approach and legal framework in the human rights system. The child is seen not only as a subject of human rights, but also as a subject whose specific needs, developmental needs and social circumstances require consideration. Although the child rights system has developed together with the human rights system, children's rights are distinguished as a separate subject. Children's rights are aimed at ensuring the most vital rights for children living in society, giving them such rights as healthy development, education, protection, freedom and security, creativity, equality and liberty.

The human rights system is based on clear and specific standards in solving problems related to children's rights. The UN Convention on the Rights of the Child (1989) constitutes a special legal mechanism for the rights of the child and their protection¹¹. This Convention created a specialized legal mechanism for children and served to strengthen the legal approach to them.

Children's rights are a component of the human rights system, which is manifested as a distinct legal institution aimed at ensuring the physical, spiritual,

intellectual and social development of children. The concept of child rights is based on the recognition of the child as an independent legal subject and encompasses his or her rights to survival, development, protection and active participation in the life of society.

The theoretical foundations of children's rights are closely related to the concept of natural law, the principle of human dignity and theories of the social state. In modern legal approaches, children's rights are interpreted on the basis of the principles of universality, equality, non-discrimination and the best interests of the child¹².

The right of the child to education is one of the main elements of the system of children's rights. This right ensures not only the opportunity to receive knowledge, but also the free development of the individual, socialization, professional growth and development of civic consciousness. Therefore, the right to education is recognized as one of the vital areas in the social policy of modern states.

The emergence of children's rights as a legal institution involves a long historical development process. In the early stages, children were mainly considered the property of their parents or dependent members of the family, and their status as independent legal subjects was not recognized. The evolution of children's rights can be conditionally divided into five stages.

- Stage 1. The period of emergence of the concept of children's rights (19th century - early 20th century). During this period, the need to protect children arose as a result of the widespread use of child labor under the influence of the industrial revolution. The first laws aimed at limiting child labor were adopted in European countries. However, during this period, children were mainly seen as objects in need of protection, and a complete picture of their independent rights was not formed¹³.

- Stage 2. Formation of international legal norms (1948–1959). After World War II, the issues of protecting human rights at the international level gained urgent importance. The Universal Declaration of Human Rights, adopted in 1948, did not specifically mention children's rights, but it established general principles for their protection. The adoption of the Declaration of the Rights of the Child by the UN in 1959 was an important milestone in the development of children's rights. The Declaration recognized the child's rights to survival, development, education and protection¹⁴.

10 Cunningham H. Children and Childhood in Western Society Since 1500. - London: Routledge, 2005. - P. 112–118.

11 Convention on the Rights of the Child. UN, 1989.

12 Freeman M. A Commentary on the UN Convention on the Rights of the Child. — Leiden: Martinus Nijhoff Publishers, 2007. — P. 15–21.

13 Cunningham H. Children and Childhood in Western Society Since 1500. - London: Routledge, 2005. - P. 112–118.

14 Universal Declaration of Human Rights, 1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights/>
Declaration of the Rights of the Child, 1959. Available at: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/declaration-rights-child?utm_source=chatgpt.com



- Stage 3. The establishment of international mechanisms for the rights of the child (1989). The adoption of the Convention on the Rights of the Child by the UN in 1989 was one of the most important events in the history of children's rights. This Convention recognized children as independent legal subjects and imposed obligations on states to ensure their rights¹⁵.

- Stage 4. Development of national and international systems (1990–2010). During this period, many states implemented the provisions of the Convention on the Rights of the Child into national legislation. State bodies, ombudsman institutions, and international monitoring mechanisms specializing in the protection of children's rights were formed. Also, the activities of international organizations such as UNICEF and the International Labour Organization increased¹⁶.

- Stage 5. The era of modern development and digital transformation (2010 to the present). At the present stage, the issue of children's rights is developing in close connection with digital technologies, inclusive education, artificial intelligence and global security issues. In modern approaches, the right of a child to education is assessed not only by the ability to enter an educational institution, but also by a quality, safe and inclusive educational environment¹⁷.

At the same time, the protection of children's rights in the digital space, cybersecurity and digital equality issues require new scientific and legal approaches. Today, children's rights issues are studied not only from a legal perspective, but also from a political, social and cultural perspective. In modern society, the rights of the child are not limited to legal protection, but also include issues of child development, education, healthy growth, active participation in society and equal rights. This is aimed at increasing the child's awareness of his rights and their activeness in protecting them.

The foundation of the idea of the "Third Renaissance" put forward by the President of the Republic of Uzbekistan is precisely the education system. In the process of renewing society, the right of the child to education is manifested not only as a type of social service, but also as a fundamental right that forms the freedom, values and active civic position of the individual in society. Studying the right to education as a system means that it is a complex

of legal, economic and spiritual relations between the state, society, family and individual¹⁸.

The main elements of the system include: the regulatory and legal framework, namely the Constitution, the Law "On Education", the Convention on the Rights of the Child and other documents; institutional structure - state and non-state educational institutions, in particular, the private sector and mechanisms of public-private partnership; subjects - the child (rights holder), educator (executor) and parents (responsible participants); content and quality - national curricula, new generation textbooks, digital educational resources¹⁹.

Among the work done, a significant increase in the coverage of preschool education, the strengthening of inclusive education on a legal basis and the expansion of access to higher education are of great importance. However, disparities in the quality of education between regions, inequities in the distribution of material and technical resources, and deficiencies in the qualifications of teachers remain systemic problems.

As new theoretical and practical proposals: to bring the legislative framework into a single system by adopting the "Education Code"; to ensure academic freedom, in particular, the right of senior students to choose a subject; to protect the rights of children in the field of digital education; to expand the powers of school supervisory boards to strengthen public control; to introduce a system of state grants for students with disabilities; to develop pedagogical assistants based on artificial intelligence; and to effectively protect children's rights through the institution of a school representative of the children's ombudsman.

These reforms constitute a comprehensive effort aimed at modernizing the education system in the country, ensuring the right of citizens to education, and strengthening human capital.

In conclusion, the system of children's rights is distinguished by its complex structural structure, multifaceted mechanisms, and focus on the specific needs of children. Its effectiveness depends on the existence of legal norms and the functioning of institutional and practical mechanisms for their application. Modern countries are not only carrying out legislative reforms to improve the child rights system, but are also focusing on creating opportunities for children to exercise their rights in practice.

#

15 Convention on the Rights of the Child. UN, 1989.

16 Hodgkin R., Newell P. Implementation Handbook for the Convention on the Rights of the Child. — New York: UNICEF, 2007. — P. 45–53.

17 Livingstone S., Third A. Children and Young People's Rights in the Digital Age. — London: LSE Publishing, 2017. — P. 9–17.

18 <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/yangi-ozbekiston-va-uchinchi-recessans-mano-mohiyati-zaruati-va-mushtarakligi>

19 The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" // National Database of Legislative Information. Available at: Lex.uz – Law on Education

"O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborotnomasi"da nashr etiladigan maqolaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- maqolada jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etishning umumnazariy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy masalalari, mazkur sohalarida amalga oshirilgan ishlarning tizimli tahlili hamda aniq yangi nazariy va amaliy takliflar aks etishi;
- matn takrorlarsiz, mantiqiy izchil, bayon qilingan fikrlar aniq, qisqa va lo'nda bo'lishi;
- keltirilayotgan ma'lumotlar ishonchli va to'g'ri bo'lishi;
- maqolaga jurnalda nashr qilish mumkinligi haqida shu sohadagi yetakchi huquqshunos olim va mutaxassisning, muallif ishlaydigan yoki tadqiqotchi hisoblanadigan oliy o'quv muassasasi kafedrası yoki instituti rahbari taqrizi;
- matn o'zbek va rus tilida taqdim etilishi;
- matn kompyuterda Wordning "Times New Roman"ida 14 shriftda 1,5 intervalda A4 formatli standart oq qog'ozning bir tomonida yozilishi, elektron nusxada taqdim etilishi hamda matnning chap qismi 3 sm, o'ng qismi 1,5 sm, tepa va pastki qismlari 2 sm bo'lishi;
- maqolada ilmiy bahs-munozara, iqtiboslarning mavjud bo'lishi; iqtiboslar 12 shriftda 1,0 intervalda yozilishi;
- maqolaning hajmi 8 betdan 10 betgacha bo'lishi;
- maqolaning so'nggi sahifasida muallifning ism-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi va lavozimi, yashash va xizmat manzili, telefon raqamlari yozilishi;
- o'zbek, rus va ingliz tilidagi qisqa annotatsiya hamda tayanch so'zlar bo'lishi lozim.



На статьи, публикуемые в журнале, распространяются следующие требования:

- обзор общих политических, общественно-политических, правовых и практических вопросов темы, а также систематический анализ работы, проделанной в этих областях, новых теоретических и практических выводов, предложений и рекомендаций;
- постановка проблем, полнота теоретических и методологических аспектов материала, достоверность предоставленной информации, обоснованность проблемы, выводов, предложений и рекомендаций;
- логическое, последовательное, точное и лаконичное изложение идей, предложений и рекомендаций;
- отсутствие информации, не подлежащей публикации в открытой печати.
- Статьи публикуются на узбекском, русском и английском языках.
- Текст набирается на компьютере, шрифт «Times New Roman», размер шрифта 14 пт, межстрочный интервал 1.5, общий размер не более 8-10 страниц, напечатан на одной стороне стандартного формата бумаги A4, поля слева 3 сантиметра, справа 1,5 сантиметров, сверху и снизу 2 сантиметра;
- научные дискуссии, цитаты (ссылки) на использованные источники, цитаты, написанные шрифтом 12 пт, в однострочном интервале.
- Первая страница статьи должна содержать следующую информацию:
 - имя, фамилия и отчество (полное) автора (ов), место работы и должность, ученая степень и звание, почетное звание, номер телефона (сотового), адрес электронной почты;
 - краткая аннотация и ключевые слова на узбекском, английском и русском языках.
- Статья не будет принята к рассмотрению и публикации в следующих случаях:
 - статья не соответствует вышеуказанным требованиям;
 - наличие отрицательных рецензий;
 - в случае принятия на заседаниях редколлегии решение не публиковать научную статью;
 - если выявлено научное мнение другого автора, выводы и взгляды (плагиат).
- Авторы и рецензенты несут ответственность за содержание представленных статей и достоверность фактов. Рукописи не рассматриваются и не возвращаются.